

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
YURISTLAR MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

**“Intellectual mukt huquqini himoya qilishni takomillashtirish
masalalari”**

Respublika onlayn ilmiy-amaliy
konferensiyasi materiallari
(2022 yil 27 oktabr)

Toshkent – 2022

UO‘K-347.779

I-61

“Intellectual mull huquqini himoya qilishni takomillashtirish masalalari” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022.– 104 6.

To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi **“Xususiy-huquqiy fanlar” kafedrasini majlisi bayonnomasining qarori bilan nashrga tavsiya etilgan (2022 yil 23 noyabr 9-sonli bayonnoma).**

T a h r i r h a y’ a t i:

Sh. Rabiyeu, Sh.K. Saidov, Sh.N. Raxmanov, Sh.X. Xasanov

To‘plamda 2022 yil 29 oktabr kuni Yuristlar malakasini oshirish markazida **“Intellectual mull huquqini himoya qilishni takomillashtirish masalalari” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya** mavzusida o‘tkazilgan Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari joy olgan.

Huquqshunoslik yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilar, magistrantlar hamda talabalar foydalanishlari mumkin.

Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik va boshqa ma‘lumotlar, me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldir.

**© O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi
Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022**

**RABIYEV SHERZOD
MIRJALILOVICH**

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish
markazi direktori

INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI HIMOYA QILISH DAVR TALABI

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 42-moddasida “Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi”¹ deb belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2022 yil 28 yanvardagi 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”²gi Farmonining 97-maqsadi jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish bo‘lib, unga ko‘ra:**

Jahon savdo tashkilotiga a‘zo davlatlar bilan muzokaralar o‘tkazish, O‘zbekistonlik mutaxassislarning Jahon savdo tashkiloti va ko‘p tomonlama savdo tizimi sohasida salohiyatini oshirish va texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya choralari va intellektual mulk himoyasi sohalarida milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlarining talablariga muvofiqlashtirish bo‘yicha tegishli takliflar ishlab chiqish belgilangan edi.

O‘tgan davrda mamlakatimizda yuridik kadrlarni zarur bilim va kasbiy ko‘nikmalarga o‘rgatish borasida muayyan ta‘lim va ilmiy salohiyat shakllantirildi, sohada qator tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi.

2021 yil 28 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Intellektual mulk sohasini rivojlantirish mamlakatimizning jahon integratsiyasidagi asosiy omil ekanligidan kelib chiqib, intellektual mulk ob‘ektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha [Harakatlar strategiyasida](#) belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida **“Intellektual mulk**

¹ <https://lex.uz/docs/-20596>

² <https://lex.uz/docs/5841063>

ob’ektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”¹gi Qarorini imzoladi. Ushbu Qaror bilan 2021 yil 1 apreldan boshlab:

intellektual mulk sohasidagi xalqaro shartnomalar normalaridan kelib chiqib, tovar belgisi va xizmat ko’rsatish belgisining faqat tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs nomiga ro’yxatdan o’tkazilishiga nisbatan qonunchilikdagi mavjud cheklovlar bekor qilish;

intellektual mulk ob’ektlarini davlat ro’yxatiga olish muddatlarini keskin qisqartirish imkoniyatlarini yaratuvchi tezkor ekspertiza tartibi joriy etilsin. Bunda, intellektual mulk ob’ektini muhofazaga olish uchun topshiriladigan talabnoma bo’yicha dastlabki qidiruv tomonlarning kelishuviga muvofiq amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Adliya vazirligi faoliyatida intellektual mulk ob’ektlariga talabnomalarni davlat ekspertizasidan o’tkazish jarayonida autsorsing usullarini qo’llash tajribasi yo’lga qo’yish belgilandi.

Intellektual mulk — ijodiy akliy faoliyat mahsuli. Ixtirochilik va mualliflik ob’ekti huquqi majmuiga kiruvchi, fan, adabiyot, san’at va ishlab chiqarish sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyorlik san’ati, jumladan ovoz yozish, radio, televidenie asarlari, kashfiyotlar, ixtirolar, ratsionalizatorlik takliflari, sanoat namunalari, kompyuterlar uchun dasturlar, ma’lumotlar bazasi, nou-xauning ekspert tizimlari, tovar belgilari, firma atamaları va boshqalar aqliy mulk ob’ektlariga kiradi. Hozirgi davrda Intellektual mulkni muhofaza qilish muhim vazifa hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi 1991 yil dekabrda Jahon intellektual mulk tashkilotiga a’zo bo’ldi, 1993 yildan sanoat mulkini muhofaza qilish Parij konvensiyasiga qo’shildi.

Shuningdek, 2022 yil 26 aprel kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidenti **“Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”²**gi qarori qabul qilindi.

O’tkazilgan tahlillar intellektual faoliyatni rivojlantirish, ilg’or intellektual faoliyat natijalarini qo’llash orqali ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, intellektual mulkni huquqiy himoya qilish, davlat organlari va

¹ <https://lex.uz/docs/5248263>

² <https://lex.uz/docs/5987120>

tashkilotlarining ushbu yoʻnalishdagi oʻzaro hamkorlikdagi faoliyatini zamon talablariga moslashtirish, intellektual mulk obʼektlari qoʻllangan mahsulotlar hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda oʻz nomiga (brendiga) ega boʻlgan raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotganini koʻrsatdi. Xususan:

-intellektual mulk obʼektlarini ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilish koʻrsatkichlari juda past;

-aholi va tadbirkorlik subʼektlari intellektual mulk sohasi boʻyicha yetarli bilim va koʻnikmalarga ega emas;

-xoʻjalik yurituvchi subʼektlar oʻz faoliyatiga intellektual faoliyat natijalarini joriy qilishdan manfaatdor emas;

-ixtirochilar va novatorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmagan;

-intellektual mulk obʼektlarining huquqiy himoyasini taʼminlash uchun masʼul vazirlik va idoralar oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlik lozim darajada yoʻlga qoʻyilmagan, ilmiy-tadqiqot muassasalari va laboratoriyalarining intellektual mulk sohasi bilan bogʻliq faoliyati yetarli darajada muvofiqlashtirilmagan;

-ilmiy ishlanmalarni fuqarolik muomalasiga kiritish koʻrsatkichlari past;

-«IP Management» (intellektual mulkni boshqarish) sohasida intellektual mulk obʼektlarini rivojlantirish va ularning transferi bilan faol shugʻullanuvchi yuqori malakali mutaxassislar yetishmaydi;

-intellektual mulkni huquqiy himoya qilish lozim darajada emas, ushbu sohada, ayniqsa, davlat organlari va tashkilotlarida malakali mutaxassislar yetishmaydi;

-taʼlim tashkilotlarida insonlarning intellektual faoliyat natijalariga hurmat hissini shakllantirishga qaratilgan amaliy tadbirlar oʻtkazilmaydi;

-taʼlim jarayonlarida oʻzgalarning intellektual mulk obʼektlaridan toʻgʻri foydalanishga oʻrgatish, koʻchirmachilikning (plagiat) oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarlicha amalga oshirilmagan;

- mahsulotlar realizatsiyasiga qarshi kurashish bilan bogʻliq ishlar, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi hududidan olib chiqiladigan va uning hududiga olib kiriladigan tovarlar boʻyicha intellektual mulkni huquqiy himoya qilish lozim darajada tashkil qilinmagan.

OKYULOV OMANBAY

TDYuU professori O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, yuridik fanlari doktori, professor TDYuU professori

INTELLEKTUAL MULK HUQUQIDA IJODKOR SHAXSIY HUQUQLARI TIZIMIDA IJOD ERKINLIGINING KONSTITUTSIYAVIY REJIMI

Xar qanday huquq, u shaxsiy huquq bo‘ladimi, mulkiy huquq bo‘ladimi, huquq sub‘ekti uchun muayyan ahamiyatga ega bo‘ladi. Odatda moddiy ob‘ektlarga nisbatan mulk huquqi shaxsiy huquqlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lmaydi, biroq, intellektual mulk huquqida shaxsiy huquqlar bilan mulkiy huquqlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Bu holat FKning 1033-moddasida o‘z ifodasini topgan. Unga intellektual faoliyat natijalarining mualliflari ana shu natijalarga nisbatan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga ega bo‘ladilar. Shaxsiy nomulkiy huquqlar ijodkor muallifga uning mulkiy huquqlaridan qat‘iy nazar tegishli bo‘ladi va uning intellektual faoliyat natijalariga tegishli bo‘lgan mulkiy huquqlari boshqa shaxsga o‘tgan taqdirda ham ijodkorning o‘zida saqlanib qoladi deb ko‘rsatiladi. Shu o‘rinda qonun ijodiy faoliyat natijalari bo‘lgan intellektual faoliyat natijasining muallifi deb e‘tirof etilish huquqi ya‘ni mualliflik huquqiga alohida urg‘u beradi. Shuni ta‘kidlash o‘rinliki, o‘zbek tilidagi qonunlar matnlarida ushbu urg‘uni alohida ilg‘ab olish qiyin va ko‘p hollarda uni boshqa kategoriyalar bilan almashtirish, chalg‘itishga ham olib kelishi mumkin. Gap bu o‘rinda “pravo na avtorstva” ya‘ni mualliflik huquqi va “avtorskoe pravo” mualliflik huquqi o‘rtasidagi farq to‘g‘risida bormoqda. 1033-moddani 3-qismi ham, boshqa qonunlar ham afsuski ushbu kategoriyalar o‘rtasidagi farqni ochib bermaydi va mualliflik huquqi xar ikki holatga nisbatan bir xil ibora tarzida qo‘llanadi. Holbuki, mualliflik huquqi ya‘ni ijodkorni o‘z ijodi mahsuliga nisbatan muallif sifatida e‘tirof etilish, muallif sifatida tanilish huquqi intellektual mulk huquqida barcha huquqlarni o‘ziga xos gultojsi bo‘lishi lozim. Chunki, ijodkor bo‘lmaganda ijod maxsuli ham bo‘lmaydi. Ijodiy faoliyat, intellektual faoliyat bu o‘rinda asosiy xal qiluvchi holat xisoblanadi. To‘g‘ri qonun uni alohida ajratib ko‘rsatadi, e‘tirof etadi. Ilim-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risidagi qonunda ham, Mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonunda ham, Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risidagi qonunda ham ijodkor sub‘ekt alohida moqomga ega bo‘lgan sub‘ekt xisoblanadi. Odatda ijodiy faoliyat inson aqliy faoliyatini eng yuqori cho‘qqisi xisoblanadi va aynan shu faoliyat orqali yangi

g'oyalar, yangi texnologiyalar, yangi badiiy asarlar, original ijrolar vujudga keladi va fuqarolik muomilasiga kirib boradi. Biroq, ijodiy faoliyat maxsulini intellektual mulk ob'ekti sifatidagi fuqarolik muomilasini keyingi jarayonlardagi xarakatida mutlaq huquqlar ob'ektni "o'z qaramog'iga oladi" va bundan keyingi jarayonlarda mualliflik huquqi namoyon bo'lish holatlari xiralashadi va ikkinchi yoki uchinchi planga tushib qoladi. Nima ham deyish mumkin, bozor qonunlari, tijorat qonunlari shuni talab etadi. Agar muallif ijodkor ob'ektga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo'lmasa (mutlaq huquq buyurtmachiga o'tishi shartnomada qat'iy shart qilib qo'yilgan bo'lsa), yoxud mutlaq huquqni o'zidan begonalashtirgan bo'lsa, bu xolda u deyarli nomi ulug' suprasi quruq mualliflik huquqi bilan qoladi. To'g'ri, intellektual faoliyatning ba'zi ob'ektlari bo'yicha mutlaq huquq egasi yoki ob'ektga nisbatan mutlaq huquqni qabul qilayotgan shaxs sotib olayotgan paytda ergashma huquq asosida ijodkor muallifga xarid narxini bir necha foizi miqdorida ulush ajratishi lozim bo'ladi yoxud shartnomada belgilab qo'yilgan bo'lsa ob'ektdan foydalanishda olgan samaradan muallif ijodkor uchun ulush ya'ni mukofot ajratishi lozim bo'ladi. Bu o'rinda muallif ijodkorni juda xam qurib qoldi deb aytish qiyin. Mamlakatimizda uni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni tizimi mavjud. Jumladan, ijodkor muallif ob'ektni yaratish va uni samaradorligini ta'minlash masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini ilmiy daraja berilishi uchun asos bo'luvchi dissertatsiya sifatida rasmiylashtirishga ham xaqli. Ilmiy unvonlar berilishida ham bu holat e'tibrga olinishi mumkin. Shuningdek, unga ilm-fan, san'at sohasida faxriy unvonlar olishi, oylik ish xaqiga ustamalar olishi mumkin. Albatta bu ijobiy holat biroq bu ilmiy va badiiy ijodni tizimli rag'batlantirish sifatida baxolanishi mumkin emas, chunki bu jarayonning ba'zi xolatlarida ijodkor faoliyati uchun ne'matlarga erishishni muqarrarligidan ko'ra tasodifiyligi namoyon bo'ladi.

Patent huquqi tizimida ijodkor muallifning mualliflik huquqi FKning 1085-moddasida alohida norma sifatida shakllantirilgan. Unga ko'ra ixtiro, foydali model, sanoat namunasiga nisbatan mualliflik huquqi va maxsus nom berish huquqi ixtiro, foydali model, sanoat namunasining muallifiga tegishlidir. Binobarin, ushbu ob'ektlarni o'z ijodiy mehnati bilan yaratgan shaxs ixtirochilik rutbasiga ega bo'ladi va ayni paytda o'zi yaratgan ob'ektlarga nisbatan maxsus nom berish huquqi ham unga tegishlidir. Maxsus nom berish huquqining mohiyati shundan iboratki, patent huquqi ob'ekti fuqarolik muomilasida bo'lganida muayyan bir nom, shartli ramz, identifikatsiya belgisi asosida xarakat qiladi va ushbu identifikatsiya belgisini nomlash ijodkor muallifga tegishli bo'ladi. Muallif ba'zi holatlarda uni o'zini nomiga

qo‘yish xollari ham uchraydi. Garchi unchalik qovushmasa ham, shuni ta’kidlash o‘rinliki rentgen nurlari uni yaratgan ixrochi Konrad Rentgen nomiga qo‘yilgan. Qizig‘i shundaki, K.Rentgen bu nurlarni xar doim X nurlar deb atagan va u butun insoniyatga xizmat qilishi lozim deb xisoblab uni patentlashga urinmagan.

Ixtiro, foydali model, sanoat namunasiga bo‘lgan mualliflik huquqi va boshqa shaxsiy huquqlar patentga asoslangan huquqlar vujudga kelgan paytdan e’tiboran fuqarolik muomilasida o‘zini namoyon qiladi (FKning 1085-moddasi 2-qismi). Bu o‘rinda savol tug‘ilishi mumkin: nima uchun patent shaxsiy huquqni vujudga kelganligini guvoxlantiruvchi yuridik hujjat bo‘lib xisoblanadi. Axir undan oldin ijodkor ham, ijodiy faoliyat ham va ijodiy faoliyat maxsuli ham mavjud-ku? To‘g‘ri, haqiqatdan ham ijodiy faoliyat maxsuli bo‘lgan ob‘ektga patent berilishi yoki berilmasligidan qat’iy nazar mualliflik huquqi mavjud bo‘lgan. Biroq bunday mualliflik huquqi patent ob‘ektiga nisbatan emas, oddiy ilmiy tadqiqot natijasiga nisbatan mualliflik huquqi tarzida namoyon bo‘ladi. Qonun ixtiro, foydali model, sanoat namunasi muallifini maxsus huquqlar, imtiyozlar va ijtimoiy tushdagi afzalliklar bilan ta’min etishi mumkin deb ko‘rsatadi. Ilmiy darajalar olishdagi imtiyozlar, davlat mukofotlari va faxriy unvonlar olish, xizmat uylarida qo‘shimcha alohida xona tarzidagi kabinetga ega bo‘lish, ijodiy ta’tillarga chiqish, davlat mukofotlari va xalqaro mukofotlar sohibi bo‘lish imkoniyatlari bunga yaqqol dalildir.

Intellectual mulk huquqini fundamental negizi ijod erkinligiga borib taqaladi. Ijod erkinligi inson huquq va erkinliklarining tarkibiy qismi sifatida 1948 yildagi Inson huquqlari Butunjaxon deklaratsiyasi (27-modda) va 1966 yildagi Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida Pakt (15-modda) mazmunida ham o‘z ifodasini topgan.

Shunisi diqqatga sazovorki, xar ikkala xalqaro hujjatda xar bir inson o‘zi muallifi bo‘lgan ilmiy, adabiy yoki badiiy asarlar yuzasidan ma’naviy va moddiy manfaatlarini ximoya qilinishi huquqiga egaligiga urg‘u beriladi.¹

Ushbu xalqaro hujjatlarda texnikaviy ijod erkinligi to‘g‘risida ko‘rsatilmagan. Biroq, inson huquqlari Umumjaxon deklaratsiyasining 14-moddasida insonning ta’lim olish huquqi tarkibiy qismi sifatida texnikaviy ta’lim xam eslatib o‘tiladi. O‘zbekiston Respublikasining 1992 yildagi Konstitutsiyasi dastlabki loyihasida ijod erkinligi to‘g‘risida norma mavjud bo‘lmaganligini qayd etish lozim. Ushbu norma keyinchalik, umumxalq muxokamasi davrida maxsus modda sifatida shakllantirildi va Konstitutsiyaning 42-moddasida o‘z ifodasini topdi. Biroq, qizig‘i shundaki bunda

¹ Inson huquqlari to‘g‘risida Xalqaro Bill. Toshkent. Adolat. 1992 yil. 16,26-betlar.

asosiy urg‘u ilmiy va texnikaviy ijodga berildi. Xolbuki xalqaro standartlar bo‘yicha ilmiy, adabiy va badiiy ijod erkinligiga alohida urg‘u berilgan. 2022 yil 4 iyunda e‘lon qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirish qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi 21-bandiga ko‘ra 42-moddaning 1-qismidagi ilmiy va texnikaviy degan so‘zlar ilmiy, texnikaviy, badiiy degan so‘zlar bilan almashtirilishi nazarda tutildi¹. Binobarin kelgusida ijod erkinligi, texnikaviy ijod erkinligi, ilmiy ijod erkinligi va badiiy ijod erkinligi turlaridan iborat bo‘lishi nazarda tutilmoqda. Bu o‘rinda shuni aytish lozimki, texnikaviy ijod erkinligi ijod erkinliklari tizimida alohida sof holda uchramaydi. Odatda u ilmiy texnikaviy ijod erkinligi sifatida talqin etiladi. L.A.Gumerov ilmiy va texnikaviy ijod, ijod erkinligining mustaqil turi sifatida mavjud deb xisoblaydi va u ilmiy texnik faoliyat sohasida muhim ahamiyatga ega deb ko‘rsatadi.² Ilmiy texnika faoliyati inson bilish faoliyatini turi sifatida unikal natijalar izlashga, yangi nazariyalar va texnik yechimlar yaratishga, yangi ob‘ektlarni shakllantirishga qaratilgandir. Albatta texnikaviy ijod erkinligini kamsitmagan xolda shuni aytish mumkinki, u klassik ijod erkinligi, ya‘ni biz bilgan an‘anaviy ijod erkinliklari tizimida mavjud emas. Balki, ilmiy ijod erkinligini o‘ziga xos durragayi sifatida namoyon bo‘lmoqda. U sof xolatda cheklangan doirada, ya‘ni texnik ta‘lim, texnik faoliyat, texnik jarayonlarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirishga qaratilgan ijodiy faoliyat sifatida baxolanishi mumkin. Mehnatni ilmiy uslubda tashkil etish, ratsionalizatorlik yechimlari sohasida u o‘zini yaqqol ifodasini topadi. Texnikaviy ijod ilmiy ijodga nisbatan kengroq ommaviylik kasb etishi ham istisno etilmaydi. Ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishchilar, boshqa xodimlar texnikaviy ijodi xar doim ham kuchli ilmiy ijodiy xarakter kasb etmasligi mumkin. Shu ma’noda olganda texnikaviy ijod erkinligini ijod erkinligining mustaqil komponenti sifatida ajratib ko‘rsatish mumkin. Albatta buni O‘zbekiston Respublikasida alohida konstitutsion rejimga ega bo‘lganligi shu jihatdan olganda muayyan asosga ega.

Ilmiy ijod erkinligiga kelganda shuni ta‘kidlash o‘rinliki, u O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktyabrdagi O‘RQ 576-sonli Ilm fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risidagi Qonunning 3, 12,14-moddalarida bevosita bo‘lmasa ham, bivosita o‘z ifodasini topgan. Unda ilmiy ijod va axborot erkinligiga alohida urg‘u beriladi. Ilmiy faoliyatga berilgan ta‘rifda uning mohiyati ochib berishga xarakat qilingan. Ilmiy faoliyat ob‘ektlar, hodisa (jarayonlar)ning xususiyatlari, o‘ziga xosliklari va

¹ Xalq so‘zi, 25 iyun 2022 yil

² Qarang: Ученые записки Казанского Университета. Том 154. Кн.4. Гуманитарные науки. Казан. 2012 г.

qonuniyatlarini aniqlash maqsadida borliqni o‘rganish va olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanib, fundamental va amaliy tadqiqotlardan iboratdir.

Fundamental tadqiqotlar tabiat, jamiyat va insonning tuzilishi, shakllanishi va rivojlanishiga oid asosiy qonuniyatlar haqida yangi bilimlar olish, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, shuningdek muayyan faoliyat natijasida yaratilgan ob‘ektlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan nazariy va (yoki) tajribaga yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

Amaliy tadqiqotlar amaliy maqsadlarga erishish va aniq vazifalarni hal etish uchun asosan yangi bilimlar va fundamental tadqiqotlar natijalarini qo‘llashga yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanadi

Ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslar:

ilmiy faoliyat turi, yo‘nalishi va vositalarini tanlash;

ilmiy faoliyatni yakka tartibda yoki jamoaviy asosda olib borish;

inson hayoti va salomatligi, atrof tabiiy muhitga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ilmiy faoliyatda qatnashishni rad qilish;

bajargan ishining darajasi va sifatiga ko‘ra moddiy rag‘bat olish, shuningdek ilmiy faoliyati natijalarini amaliyotga tatbiq etishdan mukofot yoki daromad olish;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari, ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy loyihalar bo‘yicha tanlovlarda qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etish;

o‘zi tomonidan yoki hammualliflikda bajarilgan ilmiy ishlanmalar natijalaridan, agar ular davlat, xizmat va tijoratga oid yoki qonunchilikka muvofiq muhofaza qilinadigan boshqa sirlardan tarkib topmagan bo‘lsa, erkin foydalanish, ularni tarqatish va ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilish;

ilm-fan sohasida tadbirkorlik faoliyatini qonunchilikka muvofiq amalga oshirish;

pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish, maslahatchi va ekspert bo‘lish;

agar qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, ilmiy faoliyat natijalarini ilmiy ma‘ruza, maqola, monografiya va dissertatsiya himoyasi ko‘rinishida hamda boshqa shakllarda taqdim etish huquqiga ega.

Ilmiy faoliyat yurituvchi shaxslar:

inson hayoti va salomatligi, atrof tabiiy muhitga zarar yetkazmaslikka;

ko'chirmachilikka yo'l qo'ymaslikka, o'zgalarning ilmiy ishlanmalarini o'zlashtirmaslikka va yolg'on ma'lumotlarga asoslanmaslikka;

intellektual mulk huquqlari va ilmiy odob-axloq qoidalariga rioya qilishga majburdir.

Albatta yuqoridagi normalar ilmiy ijod erkinligi mohiyatini ochib berishga muayyan darajada xizmat qiladi, biroq uning mazmunini to'liq aks ettirmaydi. Buning ustiga bevosita Asosiy Qonunimizning o'zida ilmiy ijod erkinligini muayyan chegerasi xam belgilangan. Konstitutsiyaning 26-moddasi 3-qismida xech kimni uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajibalar o'tkazilmasligi belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 29-moddasiga ko'ra xar kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligiga ega. Xar kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega. Amaldagi konstitutsiyaviy tuzimga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga ta'luqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin. Yuqoridagi konstitutsiyaviy normalar ilmiy ijod erkinligi muayyan istisnolar bilan amal qilishini ko'rsatadi. Ilmiy ijod erkinligini ilmiy tadqiqotlarni mavzusini tanlash erkinligi, usul va vositalarni belgilash erkinligi, erishilgan ilmiy natijalarni e'lon qilish yoki e'lon qilmaslik erkinligi ma'nosida talqin etish mumkin. Xar qanday ilmiy nazariya yashashga xaqlidir. Fanda ilmiy qarashlar, nuqtai nazarlar, nazariyalarning to'g'riligi ovoz berish yo'li bilan xal etilishi, sud yoki davlat organi qarori asosida belgilab qo'yilishi mumkin emas. Xalqaro standartlarda adabiy va badiiy ijod erkinligi to'g'risida xam so'z boradi. 1886 yilgi adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida xalqaro Bern Konvensiyasi ham adabiy va badiiy asarlarni farqlaydi. Biroq xozircha Asosiy Qonunimiz badiiy ijod erkinligi bilan boyitilmoqda xolos. Bu o'rinda savol tug'iladi: badiiy ijod erkinligi va adabiy ijod erkinligi o'rtasida nisbat qanday? Odatda badiiy ijod shartli obrazlar orqali ijodiy faoliyatni amalga oshirish xisoblanadi. Badiiy ijodiyot o'z tarkibiga tasviriy san'at va san'atning boshqa turlarini, shu jumladan teatr va kino san'ati, musiqa san'ati va shu kabilarni ham qamrab oladi. Adabiy jarayonlar esa badiiy adabiyot yoki boshqachasiga aytganda adabiy asarlar, ya'ni she'riyat, proza, publitsistika va shu kabi asarlarni yaratish jarayoni bilan uzviy ravishda bog'liq. Adabiy va badiiy jarayonlarni farqlash nisbiy shartli xarakterga ega. Ular bir biri bilan uzviy ravishda bog'liq va ko'p holatlarda yaxlit kategoriya sifatida tahlil etilishi mumkin. Shu ma'noda olganda Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartirishlarda adabiy ijod erkinligi alohida ajratilib ko'rsatilmasdan, faqat badiiy ijod erkinligiga urg'u berilganligi

tanqidiy yondashuv asosida baxolash o‘rinli bo‘lmagan bo‘lur edi. Ijod erkinligi va uning tarkibiy qismlarini Asosiy Qonunimizda belgilab qo‘yilishi Fuqarolik Kodeksi loyihasining 4-bo‘limida ularni yanada kengroq va batafsilroq talqin etish uchun asos bo‘ladi. Ijod erkinligini Asosiy Qonunimizda belgilanishi bu shunchaki oddiy deklaratsiya, bayonot emas, u o‘zini huquqiy tartibga solish yuklamalariga ega, ommaviy madaniyat sharpalari xar tomondan bosib kelayotgan, so‘z erkinligi, ijod erkinligi niqobi ostida xar xil “bemaza” asarlarga virtual maydon to‘ldirilayotgan hozirgi davrda ijod erkinligini to‘g‘ri talqin etish o‘ta muhim ahamiyatga ega. Boshqa jihatdan olganda oliy ta‘lim jarayonidagi xorijiy til bo‘yicha cheklovlar kelgusida ilmiy ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishni asosiy shakli bo‘lgan mustaqil izlanuvchilar institutlariga ham daxl qilishi tobora ravshan bo‘lib bormoqda. Faqat chet tilini bilgan magistraturada ta‘lim olishi mumkin, faqat chet tilini bilgan ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanishi mumkin qabilidagi “axmoqona” yondashuv Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni amalda cheklanishiga olib kelishi turgan gap. Shu sababli ham bunday cheklovlar inson huquqi va erkinliklarining tarkibiy qismi bo‘lgan ijod erkinligini amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Odatda mamlakatimizda qonun ijodkorligi jarayonida yangi norma zaruriyatini izohlashda nafaqat ichki zaruriyatdan, balki xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib ish tutish yondashuvi an‘anaga aylangan. Ushbu nuqtai nazar bo‘yicha ham qayd etish mumkinki na rivojlangan mamlakatlar, na rivojlanayotgan mamlakatlar qonunlarida va na huquqni qo‘llash amaliyotida ijod erkinligiga qo‘yiladigan bunday sun‘iy to‘siqlar mavjud emas. Fikrimizcha Konstitutsiyaviy Sud bu masala bo‘yicha o‘z talqinini bildirishi lozim bo‘ladi.

**YULDASHOV ABDUMUMIN
ABDUGOPIROVICH**

Toshkent davlat yuridik universiteti
Intellectual mulk huquqi kafedrası
dotsenti yu.f.f.d. (PhD)

VIRTUAL MUHITDA MUALLIFLIK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH MASALALARI

Telekommunikatsiya tarmoqlarning tez sur’atlarda rivojlanishi hamda ijtimoiy munosabatlarga jadallik bilan kirib kelishi ijodkorlarni o’z asarlariga bo’lgan mutlaq huquqlar muhofazasini yetarli darajada ta’minlash bo’yicha zarur chora-tadbirlarni ko’rishga undamoqda. Ma’lumki, so’nggi yillarda insonning axborot va ma’lumot olishga bo’lgan ehtiyoji har qachongidan ham yuqori darajaga chiqqan. Ayniqsa, internet va telekommunikatsiya tarmoqlarining keng rivojlanishi natijasida bu bilan bog’liq jarayonlar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda “axborot uzatuvchi” va undan “foydalanuvchi” o’rtasida ushbu axborotni tashkil qiluvchi ma’lumotlar asosan mualliflik huquqi obyektlari hisoblanadi. Aynan ushbu jarayonda telekommunikatsiya tarmoqlari va ularda mualliflik huquqi bilan bog’liq munosabatlarni o’rganish muhim sanaladi. Zamonaviy qoidalarda telekommunikatsiya deganda, elektron ma’lumot va axborotlarni uzatishni ta’minlaydigan har qanday texnologiya, xizmat, tizim yoki manba (resurs)lar tushuniladi. Telekommunikatsiya manbalari ovoz va ma’lumotlarni uzatish tarmoqlari, simsiz xizmatlar, ma’lumotlarni yuqori tezlikda uzatish, telefonlar, tarmoqli serverlar, elektron xabarlarini uzatishda foydalaniladigan xizmat va tizimlar tushuniladi [1].

Ta’kidlash kerakki, telekommunikatsiya tarmoqlari bilan bog’liq jarayonlarni mualliflik huquqi obyektlarining ishtirokisiz tasavvur etib bo’lmaydi. Bunda o’z navbatida mualliflik huquqi obyektlaridan foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Asarlardan foydalanish hamda ularni fuqarolik muomilasiga boshqacha tarzda kiritish bo’yicha nazoratning huquqiy mexanizmlari sifatida asosan asarlarni shartnoma asosida boshqarish va himoyalashning texnik usulini kiritish mumkin. Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarning deyarli barcha jabhalariga internet va telekommunikatsiya tushunchalari va ular bilan bog’liq munosabatlar kirib borganligini hamda buni fuqaroviy-huquqiy, jinoiy-huquqiy va ommaviy-huquqiy munosabatlarda yaqqol ko’rishimiz mumkin. Ta’kidlash kerakki,

telekommunikatsiya tarmog'ida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar, kompyuter texnologiyalari yordamida axborot almashinuvi bilan bog'liq munosabatlar mavjudligi sababli huquqiy munosabatlarda bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda [2]. “Telekommunikatsiya” atamasi yunon va lotin tillarning o'zaro aralashuvidan kirib kelgan bo'lib, “tele” – yunoncha “uzoqda” va lotincha “communico” – “bo'lishishmoq” degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu so'zni bugungi kundagi mazmunda foydalanilishi fransuz tilidan kirib kelgan va bunga 1904-yilda fransuz muhandisi va yozuvchisi Eduard Estone tomonidan uning yozma tarzda ishlatilishi sabab bo'lgan [3].

Mamlakatimizdagi norma ijodkorligi jarayoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u xoh jinoyat xoh fuqarolik qonunchiligi bo'lsin, oxirgi kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar aynan telekommunikatsiya tarmoqlari bilan bog'liq hisoblanadi. Xususan, buni 2006-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonuni 3-moddasida ham ko'rish mumkin. Mazkur qonunning oldingi tahririda “barchaning e'tiboriga yetkazish” atamasi mavjud bo'lmagan. Ma'lumki, barchaning e'tiboriga yetkazish – bu asarlarni yoki turdosh huquqlar obyektlarini simlar yoki simsiz aloqa vositalari orqali telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanuvchilar o'z tanloviga ko'ra istalgan joyda va istalgan vaqtda ulardan foydalana olishi mumkin bo'lgan tarzda barchaning e'tibori uchun yuborishdir [4]. Mazkur qonunning oldingi tahririda bu kabi tushunchalar mavjud bo'lmagan. Mualliflik huquqida eng muhim jihat bu mutlaq huquqlar bilan bog'liq hisoblanadi. Yuqoridagi qonunning 19-moddasida aynan ushbu huquqlar tasnifi keltirilgan bo'lib, e'tiborli jihati mazkur harakatlarni (tarjima qilish, takrorlash, tarqatish, barchaning e'tiboriga yetkazish, omma oldida namoyish etish v.h.) barchasini bevosita telekommunikatsiya tarmoqlari yordamida amalga oshirish mumkin.

Ayni ushbu yo'nalishda xalqaro normalarni yaratish bo'yicha ishlar ancha ilgari boshlanganini hamda bugungi kunga kelib O'zbekiston ham sohaga doir bir qator xalqaro shartnomalar a'zosi ekanligini qayd etish lozim. Xususan, 1996-yilda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) hamda tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar tomonidan muallif va huquq egalari huquqlarini raqamli muhitda himoyasini ta'minlash maqsadida “BIMTning mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasi” hamda “BIMTning ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnomasi” qabul qilindi [5]. Ma'lumot o'rnida qayd etish lozimki, O'zbekiston 2019-yil 16-fevral sanasida yuqoridagi ikkita xalqaro shartnomaga qo'shilgan [6]. Qaysidur

mazmunda mamlakatimizda internetda mualliflik huquqi buzilishiga qarshi kurashishni ushbu davr bilan bog'lash mumkin. Odatda biron-bir sohada qonun qabul qilinsa yoki ushbu yo'nalishdagi xalqaro shartnomaga qo'shilish davri tegishli soha bo'yicha faoliyatning boshlanishi deb hisoblanadi. Masalan, 2013-yilda Rossiya Federatsiyasida axborot-telekommunikatsiya tarmoqlarida intellektual mulkka doir qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritildi hamda ushbu qonun “qaroqchilikka qarshi qonun” degan nom oldi va 2013-yil Rossiyada Internet tarmog'ida mualliflik huquqiga qarshi kurash boshlangan davr sifatida tarixga kirdi [7]. “BIMTning mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasi”ning 11-moddasiga ko'ra, ahdlashuvchi tomonlar mazkur shartnoma yoki “Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi” bo'yicha o'z huquqlarini amalga oshirish munosabati bilan mualliflar foydalanadigan mavjud texnik vositalarni chetlab o'tishdan va o'z ijodiga ruxsat bermagan harakatlarni cheklashga qaratilgan tegishli huquqiy himoya va samarali vositalarni ta'minlaydilar. Aynan ushbu mazmundagi norma turdosh huquq subyektlari bo'lgan ijrochilar va fonogramma tayyorlovchilarga nisbatan qo'llanilishi bo'yicha “Butunjahon intellektual mulk tashkilotining ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnomasi”ning 18-moddasidan o'rin olgan [8].

O'zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonuni 63-moddasida ham asarlarni himoya qiluvchi texnik vositalar haqida so'z yuritilgan. Xususan, “asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanishni nazorat qiluvchi, muallif, turdosh huquqlar egasi yoxud asarlarga yoki turdosh huquqlar obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarning boshqa egasi tomonidan ruxsat etilmagan harakatlar amalga oshirilishining oldini oluvchi yoki ularni cheklovchi har qanday texnik qurilmalar yoxud ularning tarkibiy qismlari mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnika vositalari deb e'tirof etiladi”. Aynan ushbu normani Rossiya Federatsiyasining mualliflik huquqiga doir qonunining 481-moddasida ham ko'rishimiz mumkin [9].

Yuqoridagi kabi texnik vositalardan chetlab o'tishga harakat qilishni cheklashga qaratilgan qoidalar BIMTning yuqoridagi “internet shartnomalari”ni imzolagan davlatlar milliy qonunchiligidan o'rin olgan. AQSH ushbu qoidani birinchi bo'lib, o'z qonunchiligiga kiritgan bo'lib, 1998-yildagi mualliflik huquqi qonunidan, 2001-yilda esa mualliflik huquqi bo'yicha Yevropa ittifoqi direktivasidan o'rin olgan [10]. AQShda mazkur cheklovni buzgan shaxslar fuqarolik va jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan. Yuqoridagi ikki xalqaro hujjatning “internet shartnoma” deb

yuritilishiga asosiy sabab, aynan ushbu tarmoqning keng taraqqiy etishi va ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga kirib borishi bilan bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan ham XX asrning 90-yillariga kelib, mualliflik huquqini nafaqat boshqa telekommunikatsiya tarmoqlarida, balki internetda ham muhofaza qilish zaruriyati paydo bo‘ldi. Shu o‘rinda telekommunikatsiya tarmoqlari sirasiga qaysi aloqa-axborot texnologiyalari kirishini ta’kidlash joiz. Bular:

- kompyuter tarmoqlari;
- telefon tarmoqlari;
- radio tarmoqlar;
- televizion tarmoqlar hisoblanadi.

Yuqoridagi “internet shartnomalar”ning qabul qilinishi muallif va huquq egalari muhim bo‘lgan himoya vositalari berish orqali ularning mutlaq huquqlarini mustahkamlanishiga erishildi [11]. Ushbu qoidadan foydalangan holda mualliflar o‘zlarining asarlariga nisbatan turli darajadagi himoyaning texnik usullarini qo‘llay boshlashdi. Intellektual mulkda, xususan mualliflik huquqida doimiy ikkita qarama-qarshi fikr mavjud bo‘lib, ulardan biri intellektual mulkda mutlaq huquqdan to‘laqonli foydalanish tarafdori bo‘lsa, ikkinchi toifa esa intellektual mulk jamiyat tomonidan foydalanish uchun ochiq bo‘lishligi kerak degan fikrni ilgari surishadi. Shuningdek, ikkinchi toifa vakillarining fikriga ko‘ra, himoyaning texnik vositalari tijoriy nusxa ko‘chirish uchun kuchsiz bo‘lib, aksincha ilmiy-tadqiqot yoki shaxsiy maqsadida foydalanish uchun esa qattiq cheklolarni qo‘ygan. Ushbu fikr tarafdorlari ko‘rish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun bu cheklol jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishini, bu orqali esa ularning ilm olishga, madaniyat va san‘at yutuqlaridan foydalana olmasligini keltirib chiqarishini ta’kidlashadi. Biroq qayd etish lozimki, BIMT tomonidan ayni shu maqsadda 2013-yil 27-iyunda “Ko‘zi ojiz, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan va bosma axborotni idrok etishda boshqa jihatdan qobiliyati cheklangan shaxslarning nashr etilgan asarlardan foydalanishini yengillashtirish to‘g‘risidagi Marokkash shartnomasi” qabul qilingan.

O‘zbekistonda intellektual mulk huquqiga doir so‘nggi paytlarda qabul qilinayotgan qonun hujjatlarida ushbu sohani telekommunikatsiya tarmog‘i bilan aloqadorligiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–221-son qarorida ham telekommunikatsiya sohasida mualliflik va turdosh huquqlarni muhofaza qilish bo‘yicha quyidagi muhim vazifalar belgilab olindi:

- O‘zkomnazorat Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2022-yil 1-oktabrga qadar Internetda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzgan veb-saytlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oluvchi “Mualliflik va turdosh huquqlar sohasidagi qonunbuzilishlar reyestri” axborot tizimini ishga tushirish;

- veb-saytlar tomonidan mualliflik va turdosh huquqlar tizimli ravishda buzilishi isbotlangan taqdirda, O‘zkomnazorat Adliya vazirligining xulosasi asosida mazkur veb-saytlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qonunbuzilishlar reyestriga kiritadi va uning ko‘rsatmasiga muvofiq Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ushbu veb-saytlar faoliyatini mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzuvchi hatti-harakatlar bartaraf etilmaguniga qadar cheklash;

- 2022-yil 1-maydan boshlab Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining fonogrammalar va audiovizual asarlarni tarqatishda mualliflik huquqi himoyasini ta‘minlash bo‘yicha qonunchilikka rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlari to‘liq O‘zkomnazoratga o‘tkazish;

- Butunjahon intellektual mulk tashkiloti ko‘magida Adliya vazirligi hamda O‘zkomnazorat faoliyatida “WIPO Alert” onlayn platformasidan foydalanishni yo‘lga qo‘yish [12].

Yuqoridagi qarorda mualliflik huquqini internet va telekommunikatsiya tarmoqlarida muhofaza qilishga doir muhim jihatlar o‘rin egallagan bo‘lib, ushbu vazifalar o‘zining ahamiyatiga ko‘ra juda ham dolzarb hisoblanadi.

Telekommunikatsiya va mualliflik huquqi tushunchasidan bitta kontekstda foydalanish va huquqiy oqibatni keltirib chiqarishi nuqtai nazardan juda ahamiyatli hisoblanadi. Buni quyidagi idoraviy hujjatni tahlil qilish orqali ham anglab yetishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2020-yil 30-iyundagi 208-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish qoidalari”ning 229-qismini tahrir qilish maqsadga muvofiq. Zero, unga ko‘ra, eshittiruvchi dasturlarini tarqatish (translyasiya, retranslyasiya qilish) va sotish, shuningdek olingan dasturlarni tarqatish (translyasiya, retranslyasiya qilish) va sotish faoliyatini xususiy yoki alohida mualliflik shartnomalari asosida amalga oshirishi belgilangan [14]. Mualliflik huquqi yo‘nalishidagi qonun hujjatlari va doktrinal manbalarga tayanadigan bo‘lsak, “mualliflik shartnomasi” va “muallifning roziligi (ruxsati)” tushunchalariga duch kelamiz. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar

to‘g‘risida”gi Qonunning 19-moddasi, shuningdek turdosh huquqlarga doir qismi (masalan, 47, 50-moddalari)da o‘z aksini topgan. Amaliyot ham ayni ushbu tushunchalar negiziga asoslangan. Rozilik (ruxsat) oddiy yozma shaklda bo‘lishligi va unda O‘zbekiston Respublikasi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunning 19-moddasida keltirilgan mulkiy harakatlardan biri, bir qanchasi yoki hammasiga ham foydalanishga ruxsat berishlik nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. “Mualliflik shartnomasi” esa “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunning 38-39-moddalarida keltirilgan talab va shartlarga muvofiq rasmiylashtirilgan bo‘lishi lozim. Shunga muvofiq, yuqoridagi Qoidalarning 229-qismiga mualliflik shartnomalari yoki muallifning roziligi asosida amalga oshirishi lozim degan tushunchalarni kiritish lozim. Shu bilan birga, ushbu qoidalarning 304-bandi ikkinchi xatboshisida eshittiruvchi o‘z faoliyatini qonunchilik hujjatlari va “Telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish qoidalari” asosida hamda mualliflik shartnomalari amalga oshirishi belgilangan. Xuddi yuqoridagi kabi mualliflik huquqi bilan bog‘liq harakat faqatgina shartnomalar bilan cheklanmaydi, shuningdek mualliflik shartnomasi tushunchasi, unda ishtirok etayogan ikki tarafning (muallif va foydalanuvchi) huquq va majburiyatlari bilan bog‘liqligi sababli, tor tushuncha bo‘lib, u o‘zida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bilan bog‘liq barcha harakatlarni qamrab olmaydi. Shu sababli ham mazkur Qoidalarda mualliflik huquqi bilan bog‘liq harakatlarni aniq va batafsil yozish lozim. Zero, har bir harakat muallif (huquq egasi)ning mutlaq huquqlari bilan bog‘liqdir.

Telekommunikatsiya tarmoqlarida nafaqat mualliflik huquqini ta‘minlash, balki ushbu sohani rivojlantirish, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda ushbu tarmoqlardan keng foydalanish, undagi axborot xavfsizligini ta‘minlash ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham axborot xavfsizligini ta‘minlash, zamonaviy telekommunikatsiya tarmoqlarini ijtimoiy hayotga keng targ‘ib etish borasida zarur bo‘lgan amaliy ishlar qilinmoqda. Masalan, telekommunikatsiya, axborot va kiberxavfsizlikni ta‘minlash sohasidagi nazorat tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4024-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi (O‘zkomnazorat) tashkil etildi. Mazkur qaror bilan Inspeksiyaning asosiy vazifalariga qatoriga ilk marotaba fonogrammalar,

audiovizual asarlar, EHM uchun dasturlarni tarqatishda mualliflik huquqlariga rioya etilishi bo'yicha vakolatlar (o'rganish, monitoring qilish, tekshirish, xulosalar tayyorlash) hamda internet tarmog'ida mualliflik huquqi obyektlari noqonuniy tarqalishini (barchaning e'tiboriga yetkazilishini) bartaraf etish choralarini ko'rish kiritildi. Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 sentyabrdagi PQ-4452-son qarori bilan yuqoridagi inspeksiya faoliyat qaytadan tashkil etildi. O'zkomnazoratga qo'shimcha vazifa sifatida axborot tizimlari va resurslarini yaratish hamda xavfsiz ma'lumot almashishni ta'minlash belgilandi. Shu o'rinda xavfsizlik atamasini nafaqat texnik jihat nuqtai nazaridan, balki mualliflik huquqi yo'nalishi jihatidan ham tushunish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zkomnazoratga o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda huquqiy ta'sir choralarini qo'llash vakolatini berish lozim. Zero, bugungi kunda internet tarmog'ida intellektual mulk, xususan mualliflik huquqi obyektlaridan ruxsatsiz tarzda foydalanish juda ham ko'p.

Hozirgi kunda axborot uzatuvchi tarmoqlardan foydalanish doirasi juda ham kengayib bormoqda. Bu yo'nalishda albatta xavfsizlik va himoya nuqtai nazaridan tegishli chora-tadbirlarni ko'rish talab etiladi. Huquqni himoya qilish uning muhofaza qilinishi va ta'minlanishining eng muhim omillaridan biridir. Amaliyotga ko'ra, har qanday huquq himoya qilish mexanizmi bilan mustahkamlangan bo'lsagina, uni amalga oshirish mumkin [15]. Umuman olganda, O'zbekistonda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasini ta'minlash bo'yicha aniq o'ylangan va mustahkam davlat siyosatini ishlab chiqish talab etiladi [16].

Shu bilan birga, Jinoyat kodeksida mualliflikning o'zlashtirilgani uchun hamda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning buzilganligi uchun alohida moddalarni kiritish lozim. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzganlik uchun javobgarlik choralarini oshirish Jahon savdo tashkilotining TRIPS bitimining ham talablaridan biri hisoblanadi [17].

Yuqoridagi takliflar bo'yicha ishlarni to'g'ri va tizimli tarzda yo'lga qo'yilishi, o'ylaymizki mualliflik huquqini himoyasini ta'minlashga bu orqali esa ijodkorlar mehnati uchun tegishli haqlarni to'lanishiga hamda mamlakatimizda madaniyat va san'atni rivojlanishiga olib keladi. Shu bilan birga, telekommunikatsiya tarmog'ida mualliflik huquqlari himoyasini ta'minlash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish hamda O'zbekistonda ushbu yo'nalishdagi tadqiqot ishlari hamda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ishlarni jadallashtirish zarur ahamiyat kasb etadi.

XUDJANOV DILSHOD

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
Sanoat mulkini huquqiy himoya qilish
boshqarmasi boshlig‘i

BOJXONA ORQALI INTELLEKTUAL MULKNI HUQUQIY HIMOYA QILISH (MARKAZIY OSIYO VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLARI AMALIYOTIDA)

So‘ngi yillarda “tadbirkorlar” tomonidan bozorga kirgan va iste‘molchilar ishonchini qozongan mahsulotlarning kontrafakt nusxalarini ishlab chiqarish ko‘paymoqda. Bunga sabab, aholi o‘rtasida ma‘lum va mashhur bo‘lgan hamda o‘zining doimiy iste‘molchilariga ega bo‘lgan mahsulotning ancha arzon bo‘lgan yoki shu narxda, aynan shunday yoki juda o‘xshash bo‘lgan kontrafakt nusxasini ishlab chiqish va sotish o‘zganing bozorini kasod qilish hisobga oson daromad keltiradi.

Ma‘lumot uchun: Kontrafakt so‘zi fransuzcha “contrafaction” so‘zidan olingan bo‘lib o‘zbekchaga “soxta” deb tarjima qilinadi. Milliy qonunchiligimiz ko‘ra kontrafakt – intellektual mulk to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini buzgan holda amalga oshiriladigan mahsulot nusxalardir.

Ayniqsa, o‘z brendini yaratib, o‘z xaridoriga ega bo‘lgan va sifati bilan iste‘molchilar ishonchini qozongan milliy mahsulotlarimizni kontrafakt nusxalarini Xitoy va boshqa qo‘shni davlatlarda ishlab chiqarilib, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish orqali noqonuniy daromad orttirish ko‘paydi.

Bugungi kunda mazkur muammo nafaqat O‘zbekiston Respublikasining balki, jahon hamjamiyating ham jiddiy muammolaridan biriga aylandi. Hozirgi kunda xalqaro tashqi savdo faoliyatida kontrafakt tovarlar almashinuviga hamda savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha bir nechta tashkilotlar faoliyat olib bormoqda. Jumladan, Jahon Bojxona Tashkilotining intellektual mulk dasturi tomonidan mazkur yo‘nalishda global kurash olib borilmoqda, tashkilot koronavirus pandemiyasi davrida 2020-yil hamda 2022-yilda sifatsiz farmatsevtika tovarlari aylanmasini oldini olishga qaratilgan STOP 1 va STOP 2 operatsiyalari doirasida 502 mln. dona sifatsiz dori vositalari aniqlangan.

Shuningdek, Yevropol tashkilotining intellektual mulk bo‘yicha jinoyatlarga qarshi kurashish guruhi 2021-yilda tashkil etilgan bo‘lib, Yevropa Ittifoqi hududida kontrafakt tovarlar aylanmasiga qarshi kurashadi. Bugungi kunda tashkilotga 35 ta davlat a‘zo hisoblanadi. Tashkilot tomonidan 2019-yilda 119 mlrd. yevro

miqdoridagi kontrafakt va qaroqchi tovarlar aniqlangan, mazkur tovarlar Yevropa Ittifoqiga imort qilingan tovarlarning 5,8% tashkil qiladi.

Chegarada intellektual mulkni huquqiy himoya qilish mexanizmi davlatlarning rivojlanganlik darajasiga, geografik joylashuviga va boshqa omillarga qarab shakllangan. Xususan, Markaziy osiyo davlatlarini oladigan bo'lsak, ularda o'ziga xos jihatlarni ko'rish mumkin.

Jumladan:

Qozog'iston Respublikasining Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona xizmati tomonidan Milliy (870 ta tovar belgisi kiritilgan) va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining intellektual mulk obyektlari bojxona reyestrlari yuritiladi. Mazkur reyestrda bepul tarzda amalga oshiriladi hamda bugungi kunda reyestrda kiritish bo'yicha arizani “Yagona darcha” xizmati orqali yuborilishi bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bojxona reyestriga kiritish uchun arizada huquq egalari tomonidan deklarantga yoki importyor/eksportyorga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni qoplash uchun 1000 bazaviy hisoblash miqdori (BHM) (3 063 000 tenge yoki 6 360 AQSh dollari) miqdorida sug'urta summasi mavjud bo'lishi lozim hamda reyestrda kiritish uchun arizada himoyaga olingan intellektual mulk obyektining TIF TN kodlari ko'rsatilishi belgilangan. Qozog'iston Respublikasi bojxona qonunchiligida parallel import ta'qiqlangan bo'lib, huquq egasi tomonidan ro'yxatda ko'rsatilgan TIF qatnashchilaridan boshqa importyorlar tovarlarni import qilishi mumkin emas hamda mazkur yo'nalishda bojxona axborot tizimlariga tegishli xavf profillari ishlab chiqilgan.

Ma'lumot uchun, Qozog'iston Respublikasining Jinoyat kodeksida intellektual mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni buzilishiga oid 3 ta modda (198, 199, 22-moddalar) mavjud, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida mazkur yo'nalishda tegishli moddalar mavjud emas.

Qirg'iziston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona xizmati tomonidan Milliy (405 ta tovar belgisi kiritilgan) va EOIning intellektual mulk obyektlari bojxona reyestrlari yuritiladi, mazkur reyestrda 2 yil muddatga kiritiladi, bunga 1 330 som (16 AQSh dollari) yig'im hamda muddatini uzaytirish uchun 2 500 som (31 AQSh dollari) yig'im undiriladi.

Reyestrda kiritish uchun arizada huquq egalari tomonidan deklarantga yoki importyor/eksportyorga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni qoplash uchun 10 000 AQSh dollari ekvivalenti miqdorida sug'urta summasi mavjud bo'lishi lozim. Shuningdek, Qirg'iziston Respublikasi Bojxona xizmati tomonidan faqatgina tovar belgilariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha faoliyat olib boriladi.

Turkmaniston Respublikasi Bojxona xizmati tomonidan intellektual mulk obyektlari yoʻnalishida mualliflik huquqi, turdosh huquq, tovar belgilari, xizmat koʻrsatish belgilariga nisbatan huquqlar himoya qilinadi.

Bojxona xizmati tomonidan intellektual mulk obyektlari bojxona reyestri yuritiladi hamda mazkur reyestrغا kiritish muddati 5 yil boʻlib, reyestrغا kiritish uchun yigʻim undirilmaydi.

Mazkur reyestrغا intellektual mulk obyektlari kiritilgandan soʻng, huquq egalari tomonidan toʻxtatish uchun ariza kelib tushganda mazkur ariza asosida choralar koʻriladi hamda barcha majburiyat huquq egasining zimmasida boʻladi. Shu bilan birga, mazkur yoʻnalishda bojxona nazoratini taʼminlashda xavfni boshqarish tizimi qoʻllaniladi.

Tojikiston Respublikasi Bojxona xizmati tomonidan intellektual mulk obyektlari bojxona reyestri yuritiladi hamda mazkur reyestrغا kiritish muddati 1 yildan 5 yilgacha boʻlib, reyestrغا kiritish uchun yigʻim undirilmaydi.

Shuningdek, reyestrغا kiritish uchun arizada huquq egalari tomonidan deklarantga yoki importyor/eksportyorga yetkazilishi mumkin boʻlgan zararni qoplash uchun 40 000 AQSh dollari ekvivalenti miqdorida sugʻurta summasi mavjud boʻlishi lozim.

Mazkur reyestrغا kiritish uchun ariza kelib tushgandan soʻng, bir oy davomida koʻrib chiqiladi. Reyestrغا kiritilgan intellektual mulk obyektlariga boʻlgan huquqlarni himoya qilish uchun tovarlarning chiqarib yuborilishi 10 kun muddatga toʻxtatiladi hamda tovarning keyingi taqdiri sud qaroriga koʻra hal qilinadi.

Shuningdek, dunyoning eng rivojlangan dalatlaridan biri sifatida Amerika Qoʻshma Shtatlarini hamda Sharqiy Yevropa dalatlaridan Gruziya va Armaniston tajribasini oladigan boʻlsak, chegarada intellektual mulkni himoya qilish boʻyicha oʻziga xoslikni koʻrish mumkin.

Jumladan, **Amerika Qoʻshma Shtatlarida** Bojxona xizmati tomonidan intellektual mulk obyektlari bojxona reyestri ippr.gov saytida yuritiladi. Bojxona organlari tomonidan intellektual mulk obyektlari asosan ushbu reyestrغا kiritilgan obyektlarga nisbatan amalga oshiriladi. Bugungi kunda, mazkur reyestrغا kiritish boʻyicha arizalar elektron tarzda topshirish yoʻlga qoʻyilgan boʻlib, har bir tovar belgisini reyestrغا kiritganlik (10 yil) uchun 190 AQSh dollari miqdorda yigʻim undiriladi hamda har bir mualliflik huquqi 20 yil muddatga kiritiladi va bunga 80 AQSh dollari miqdorida yigʻim undiriladi.

Bugungi kunga qadar 18 757 ta intellektual mulk obyektlari reyestriga kiritilgan bo‘lib, mavjud chegara bojxona postlarining 328 tasida reyestriga kiritilgan ma’lumotlardan barcha chegara bojxona postlari xodimlari foydalanish imkoniyatiga ega. Intellektual mulk obyektlari bojxona reyestrining hamma uchun ochiq bo‘lgan ko‘rinishi iprs.cbp.gov portaliga joylashtirilgan.

AQShning chegara va bojxona xizmatida jami 16 000 dan ortiq xodimlari xizmat qiladi hamda AQShda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish quyidagi uchta usulda amalga oshiriladi:

1. Sud orqali tovarlar importiga ta’qiq qo‘yish (mazkur usul ko‘p vaqt hamda xarajat talab qiladi);
2. Vashington shtatida joylashgan Xalqaro savdo komissiyasi tomonidan tovarlar importiga taqiq qo‘yish;
3. Bojxona xizmati yordamida himoya qilish.

AQShning qonunchiligiga muvofiq bojxona organlari quyidagi vakolatlarga ega:

- kontarafakt tovarlarni aniqlash va ularni erkin muomalaga chiqarilishini to‘xtatish;
- to‘xtatilgan tovarlarni olib qo‘yish;
- to‘xtatilgan tovarlarni sud qarorisiz musodara qilish va yo‘q qilish.

AQSh bojxona xizmatining Vashington shtatida joylashgan Markaziy byurosida 10 ta yuristlar va 2 ta yurist yordamchilari mazkur yo‘nalishda faoliyat olib boradi, hamda mazkur yo‘nalishdagi qonunchilikni ishlab chiqishda ishtirok etish bilan birga, chegara bojxona postlari tomonidan holatlar aniqlansa mazkur holatga baho berish va umumiy nazoratni olib borishda ishtirok etishadi.

AQSh bojxonasi tomonidan yo‘lovchilarning o‘zlari bilan qo‘l yuklarida olib kelayotgan kam miqdordagi tovarlarga nisbatan intellektual mulk obyekti huquqlari buzilishiga nisbatan choralar ko‘rilmaydi.

Bojxona xizmati tomonidan intellektual mulk obyektiga bo‘lgan huquqlarni buzilishiga qarshi kurashishda tegishli choralarni ko‘rish bu bojxona organlarining vakolati bo‘lib, bojxona chegaralari orqali harakatlanayotgan tovarlarga nisbatan bojxona nazoratining shakllari xavfni boshqarish tizimi orqali berilgan topshiriqlar asosida amalga oshirilganligi sababli, mazkur holatlarda bojxona organi xodimi javobgarlikka tortilmaydi.

Shuningdek, ba’zi bir katta hajmdagi tovar aylanmasiga ega bo‘lgan tovar belgilarining huquq egalari tomonidan eng ko‘p tovar oqimiga ega bo‘lgan chegara bojxona postlariga tovarning maxsus BAR kodini o‘qiydigan hamda ushbu orqali

tovarlarning boshqa ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarilganligini ko'rsatuvchi qurilmalar berilgan bo'lib, mazkur qurilmalar chegara bojxona postlariga o'rnatilgan.

Shu bilan birga, tovarlarga mazkur yo'nalishda ekspertizalar o'tkazilsa hamda tovarlarni saqlash, tushirish, qayta yuklash kabi operatsiyalar amalga oshirilgan taqdirda barcha xarajatlar importyor tomonidan qoplanadi.

Aniqlangan holatlar yuzasidan intellektual mulk obyektlarining huquq egalari tomonidan qo'shimcha ma'lumotlar yoki tushuntirishlar kerak bo'lgan taqdirda huquq egasining elektron pochta manziliga so'rov yuboriladi, biroq bunda tovarlarni import qiluvchi to'g'risida ma'lumotlar oshkor qilinmaydi.

Bojxona organlari tomonidan tovarlar chiqarib yuborilgandan so'ng, tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlarda kontrafakt alomatlari aniqlanganda tovarlar chiqarib yuborilgan bo'lsa, importyorga tovarlarni qaytarish majburiyati yuklanadi hamda mazkur vazifani amalga oshirish uchun hududiy politsiya idoralari bilan hamkorlik qilinadi.

AQSh chegara va bojxona xizmati tomonidan intellektual mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni himoya qilish quyidagi 6 ta bosqichdan iborat ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

- Xavfni boshqarish tizimi ma'lumotlarini tahlil qilish;
- Bojxona yuk deklaratsiyasi hamda boshqa hujjatlardagi ma'lumotlarni xavfni boshqarish tizimi orqali tahlil qilish;
- Tovarlarga nisbatan bojxona ko'rigini o'tkazish;
- Mavjud huquq buzilishini aniqlash;
- Kontrafakt tovarlarni olib qo'yish hamda musodara qilish;
- Belgilangan huquq doirasida amalga oshirilgan harakatlarning qonuniyligini nazorat qilish.

AQSh bojxona xizmatining tovarlarni yo'q qilish bo'yicha xususiy tashkilotlar bilan shartnomalari mavjud bo'lib, mazkur shartnomalar doirasida tashkilotlar tomonidan bojxona organlari aniqlagan kontrafakt tovarlar yo'q qilinadi.

Gruziya bojxona xizmati tomonidan intellektual mulk obyektlari bojxona reyestri yuritiladi va bojxona xizmatida “ex-officio” usulida harakat qilish funksiyasi mavjud. Reyestrga 373 ta intellektual mulk obyektlari reestrda kiritilgan. Reyestrga kiritilgan obyektlarning 23% kiyim kechaklar, 21% alkogol mahsulotlari, 8% farmatsevtika tovarlari, 5% avtomobil tovarlariga tegishli brendlar tashkil qiladi.

Gruziyaning Intellektual mulk markazi Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik olib boradi hamda EUGIPP (EU Georgian IP Project) loyihasini tashkil etgan, uning asosiy

vazifasi intellektual mulk obyektlari yoʻnalishida hamkorlik hisoblanadi. Ushbu dasturning budjeti oʻrtacha 500 ming yevroni tashkil qiladi.

Mazkur yoʻnalishda himoyani tashkil qilishda xavf profillari ishlab chiqilishi 2011-yilda boshlangan boʻlib, bugungi kunda 46 ta shu kabi profillar mavjud. Xavf profillarini ishlab chiqishda tovarlarning TIF TN kodlari, importyor/eksportyor, qabul qiluvchi va joʻnatuvchi davlat, kelib chiqish davlati, tasodifiy tanlov kabilar oʻrnatilgan.

Armaniston bojxona xizmati (Ruzanna Kusikyan) tomonidan 2018-yilda mazkur yoʻnalishda XBT qoʻllanilishi boshlangan. Huquq egalari tovar belgilarini reyestrغا kiritadi, reestrغا kiritishda berilgan maʼlumotlar asosida xavf profillari ishlab chiqiladi va ular asosida bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilishida tovarlar chiqarib yuborilishi toʻxtatiladi.

Mazkur yoʻnalishda yuritiladigan reyestr bojxona organlarining “Yagona darcha” tizimi orqali amalga oshiriladi. 2021-yilda 485 ta holatda tizim orqali tovarlar toʻxtatilgan. Reyestrغا kiritilgan obyektlar soni 2022-yilning dastlabki olti oyi boʻyicha jami 485 tani tashkil qilgan.

Oʻzbekiston Respublikasida chegarada intellektual mulkni huquqiy himoya qilish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bojxona kodeksi bilan belgilanadi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari respublika bojxona chegaralari orqali olib oʻtilayotgan tovarlarda intellektual mulk huquqlariga rioya qilinishini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organi hisoblanib, Oʻzbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga muvofiq bojxona hududiga olib kiriladigan va bojxona nazorati ostida turgan intellektual mulk obʻektlariga boʻlgan huquqlarning himoya qilinishini taʼminlash uchun intellektual mulk obʻektlariga boʻlgan huquqlarning buzilganlik belgilari mavjud boʻlgan tovarlarni chiqarib yuborishni toʻxtatib turish vakolatiga egadir.

Davlat bojxona xizmati organlari intellektual mulk huquqini buzuvchi tovarlarga nisbatan tegishli chora koʻrish uchun bunday intellektual mulk obʻyekti “Intellektual mulk obʻyektlari bojxona reestri”ga kiritilgan boʻlishi va oʻz navbatida intellektual mulk huquq egasi tomonidan huquqbuzarlik toʻgʻrisida bojxona xizmati organlari maʼlumot taqdim etishi lozimligi belgilangan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ–221-son qaroriga muvofiq intellektual mulkni ishonchli himoya qilish, intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda kontrafakt

mahsulotlarga samarali qarshi kurashish mexanizmi yaratildi. Jumladan, qabul qilingan Qaror bilan birga kelgusi 2 yilga mo'ljallangan ushbu yo'nalishda 7 ta ustuvor yo'nalish va 35 ta tadbirdan iborat “Yo'l xaritasi” tasdiqlandi.

Ayniqsa, O'zbekiston tarixida birinchi bor 2022 — 2026-yillarda **O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi**ning qabul qilinishi intellektual mulkning huquqiy maqomi oshishiga va moddiy mulklar kabi davlat tomonidan qat'iy himoya qilinishini belgilab berdi.

Xususan, chegarada intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha 2022-yil 1-sentabrdan boshlab quyidagi himoya mexanizmlari yaratildi:

a) “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi orqali intellektual mulk obyektlarini Reyestrda kiritish to'g'risidagi arizalarni elektron tarzda yuborish va qabul qilish, ularni ko'rib chiqish bosqichlarini onlayn ravishda kuzatib borish hamda qabul qilingan qarorlar to'g'risida ariza yuboruvchilarni xabardor qilish tartibi yo'lga qo'yiladi;

b) bojxona organlari tomonidan Reyestrda kiritilgan intellektual mulk obyektlari huquq egalari qonuniy manfaatlarini quyidagi himoya qilish huquqi beriladi:

tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona postlarida bojxona nazorati va rasmiylashtiruv jarayonida intellektual mulk huquqlari buzilganligi alomati mavjud bo'lgan tovarlar aniqlanganda, bojxona organlari tomonidan huquq egasining “Yagona darcha” bojxona axborot tizimidagi shaxsiy kabinetiga ushbu holat to'g'risida bir ish kunida elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan xabar yuborish;

xabar yuborilgandan boshlab bir ish kuni davomida huquq egalari tegishli shakldagi ariza kelib tushgan taqdirda, ularning huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko'rish. Bunda, ushbu muddat ichida huquq egalari tegishli shakldagi ariza bojxona organlariga kelib tushmagan taqdirda, tovarlar belgilangan tartibda chiqarib yuboriladi;

intellektual mulk huquqlari buzilganligi alomati tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvda xavfni boshqarish tizimi natijalari asosida bojxona nazorati shakllarini qo'llagan holda aniqlash, bundan bojxona organlarining tezkor-qidiruv faoliyati davomida aniqlangan holatlar mustasno.

v) Reyestrda kiritilgan huquq egalari ularning intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarini himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish to'g'risida bojxona organlariga ariza bilan murojaat qilganda, ulardan taxmin qilinayotgan huquqbuzarlikni aniqlashda yordam beradigan, shu jumladan ishlab chiqaruvchi,

tovar turishi mumkin boʻlgan joy va uni bojxona chegarasi orqali olib oʻtish sanasi, tashish xususiyatlari va oʻrovining koʻrinishi, tovar turgan joy yoki rejalashtirilayotgan yetkazish joyi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni talab qilish taqiqlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, chegarada intellektual mulk boʻyicha rivojlangan davlatlar amaliyotini oʻrganish natijalariga koʻra mamlakatimizda intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish sohasini takomillashtirish boʻyicha quyidagi takliflarni bildiramiz:

1. Intellektual mulk obyektlariga boʻlgan huquqlarni himoya qilishda deklarantga hamda boshqa shaxslarga yetkazilishi mumkin boʻlgan zararni qoplash uchun taʼminot summasini joriy qilish boʻyicha tahliliy oʻrganib chiqish;

2. Bojxona organlari tomonidan intellektual mulk obyektlari bojxona reyestriga kiritilmagan tovar belgilariga boʻlgan huquqlarni himoya qilish boʻyicha “ex-officio” tartibida himoya qilish tartibini joriy qilish yuzasidan qonun qabul qilish;

3. Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda sanoat mulki obyektlaridan (tovar belgisi, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi v.b.) qonunga xilof ravishda foydalanish holatlariga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilash masalasini oʻrganish;

(Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida oʻzganing mulkini egallab olish, oʻgʻirlash kabi harakatlarga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan boʻlsada, biroq huquqiy jihatdan moddiy mulk bilan teng huquqiy maqomga ega boʻlgan sanoat mulki obyektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanishga nisbatan faqatgina maʼmuriy javobgarlik belgilangan)

4. Kontrafakt mahsulotlarni aniqlash va ekspertizadan (testdan) oʻtkazishda nazorat xaridini amalga oshirish tartibi, nazorat xaridi bilan bogʻliq ishlarni moliyalashtirish boʻyicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.

(ijtimoiy tarmoqlar orqali kontrafakt mahsulotlar savdosini tashkil etgan huquqbuzarlar shaxsini aniqlash, bozorlar, savdo majmualarida kuzatuv profilaktika tadbirlari davomida kontrafakt mahsulotlarni aniqlash, ekspertizadan (testdan) oʻtkazishda nazorat xaridini amalga oshirish uchun nazorat xaridi bilan bogʻliq ishlarni moliyalashtirish tizimi mavjud emasligi bois, koʻplab kontrafakt mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bogʻliq huquqbuzarliklar latentligicha qolib ketmoqda.

Shu bilan birga, chakana savdo obyektlarida xalq isteʼmoli tovarlarining nazorat xaridini tashkillashtirish va ularni ekspertizadan (testdan) oʻtkazish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-fevraldagi “Isteʼmolchilar

huquqlarini himoya qilish va ushbu yo‘nalishda davlat organlari hamda tashkilotlari hamkorligini samarali tashkil etishni ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 59-son qarori mavjud).

**ASQAROV FURQAT
XASANOVICH**

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi (PHD)

“TADBIRKORLIK HUQUQIY MUNOSABATLARDA KO‘CHMAS MULK BOZORI VA RIELTORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH OMILLARI”

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda rieltorlik sohasiga bevosita bog‘liq bo‘lgan ko‘chmas mulk sohasidagi xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribasi xususida so‘z boradi. Ma‘lumki O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 83-moddasida mol-mulk fuqarolik huquqlari obyekti sifatida ko‘chmas mulkka va ko‘char mulkka bo‘linishi, ko‘chmas mulk jumlasiga yer uchastkalari, yer osti boyliklari, binolar, inshootlar, ko‘p yillik dov-daraxtlar va yer bilan uzviy bog‘langan boshqa mol-mulk, ya‘ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o‘zgartirish mumkin bo‘lmaydigan obyektlar kirishi, qonunchilikda boshqa mol-mulk ham ko‘chmas mol-mulk qatoriga kiritilishi mumkinligi va ko‘chmas mol-mulkka bo‘lgan huquqlarni qo‘lga kiritish va ular bekor bo‘lishining xususiyatlari qonun hujjatlari bilan belgilab qo‘yilishi belgilab o‘tilgan. Maqolada ko‘chmas mulkaning holati va tavsifi haqida boshqa mamlakatlarda, xususan Rossiya Federatsiyasi va shu kabi bir qator davlatlarda belgilab o‘tilgan normalar yoritilgan. Maqolaning maqsadi sifatida rieltorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish ko‘chmas mulk bilan bog‘liq muammolarini tadqiq etishdan iborat bo‘lgan. Shuningdek, ko‘chmas mulk sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni ochib berish va uning yechimi ham muhokama qilingan. Xulosada rieltorlik faoliyatini rivojlantirishda birinchi navbatda ko‘chmas mulk sohasini tartibga solish yuzasidan horijiy tajribani o‘rganish zarurligi haqida xulosalar qilingan.

Kalit so‘zlar. Rossiya Federatsiyasi, Belorussiya, Fuqarolik kodeksi, ko‘chmas mulk, ipoteka, garov, xususiylashtirish, rieltorlik faoliyati, qonun.

Abstract. The article talks about the positive experience of foreign countries in the field of real estate, which is directly related to the real estate sector today. It is known that in Article 83 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, property is divided into immovable property and movable property as an object of civil rights, including land plots, underground resources, buildings, structures, perennial trees and other property integrally connected with the land. , i.e. objects that cannot be moved without causing disproportionate damage to their intended purpose, the legislation stipulates that other property can also be included in the list of immovable property, and the features of acquisition of rights to immovable property and their cancellation shall be determined by legislation. The article describes the norms of the status and description of real estate in other countries, in particular the Russian Federation and a number of countries. The purpose of the article was to research the problems of legal regulation of real estate activity. Also, the disclosure of problems arising in the field of real estate and its solution were also discussed. In the conclusion, it was concluded that in the development of real estate activity, first of all, it is necessary to study foreign experience in the field of real estate regulation.

Keywords: Russian Federation, Belarus, Civil Code, real estate, mortgage, bail, privatization, real estate activities, law.

Аннотация. В статье рассказывается о положительном опыте зарубежных стран в сфере недвижимости, которая имеет непосредственное отношение к сфере недвижимости на сегодняшний день. Известно, что в статье 83 Гражданского кодекса Республики Узбекистан имущество делится на недвижимое и движимое имущество как объект гражданских прав, в том числе земельные участки, подземные ресурсы, здания, сооружения, многолетние деревья и иное имущество в совокупности. связанных с землей., т. е. объектов, которые не могут быть перемещены без причинения несоразмерного ущерба их целевому назначению, законодательством предусмотрено, что в перечень недвижимого имущества может быть включено и иное имущество, а также особенности приобретения прав на недвижимое имущество и их отмена определяется законодательством. В статье описаны нормы статуса и описания недвижимого имущества в других странах, в частности в Российской Федерации и ряде подобных стран. Целью статьи было исследование проблем правового регулирования риэлтерской деятельности. Также обсуждалось раскрытие проблем, возникающих в сфере недвижимости и их решение. В

заклучении сделан вывод о том, что при развитии риэлторской деятельности в первую очередь необходимо изучение зарубежного опыта в сфере регулирования недвижимого имущества.

Ключевіе слова: *Российская Федерация, Беларусь, Гражданский кодекс, недвижимост, ипотека, залог, приватизация, риэлторская деятельность, закон.*

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq, mamlakat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi sifatida bozor iqtisodiyotini shakllantirish belgilab olindi. Mazkur sharoitda iqtisodiyot rivojlanishini hisobga olib, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati uchun asosiy mol-mulk obyektı bo‘lgan ko‘chmas mulklarning roli yanada oshdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi ta’kidlaganidek, “Bir narsani alohida ta’kidlash kerak, pandemiya davrida iqtisodiyotning barqaror ishlashi uchun tadbirkorlar davlat bilan teppa-teng hissa qo‘shdilar. Shuning uchun barchamiz tadbirkorlarga yelkadosh bo‘lib, ularni doimo qo‘llab-quvvatlashimiz shart. Bu borada ishbilarmonlarning haq-huquqlarini, ayniqsa, xususiy mulk daxlsizligini ta‘minlash – barcha darajadagi davlat organlarining asosiy vazifasi bo‘lishi lozim”¹.

O‘zbekistonda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyati sohasini isloh qilishning asosiy fundamental yo‘nalishlaridan biri ko‘chmas mulk bozorini modernizatsiya qilish va rivojlantirish, shuningdek ko‘chmas mulk bozorlarida raqobat muhitini shakllantirish hisoblanadi.

Ayni shu xususda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida prezidentimiz tadbirkorlik faoliyati subyektlarining xususiy mulki to‘g‘risida quyidagilarni ta’kidlab o‘tdi, – “Birinchı navbatda, xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysı xususiy mulkdor qonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritgan yoki yaratgan o‘z mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta‘minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratishimiz zarur. Har bir tadbirkor avvalo shuni aniq-ravshan bilib olishi kerakki, davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir. Shuning uchun ham tadbirkorlar o‘z biznesiga bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko‘paytirishi, o‘z mulkiga o‘zi egalik qilishi,

¹ <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.

foydalanishi, tasarruf etishi lozim. Ayni shu maqsadda bozor iqtisodiyotining negizi hisoblangan xususiy mulkka nisbatan davlat tomonidan berilayotgan asosiy kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida¹”gi Farmonning qabul qilinishi xususiy mulkni yanada rivojlanishiga zamin yaratdi.

O‘ziga xos voqelik bo‘lgan ko‘chmas mulklar tizimining vujudga kelishi, rivojlanishini zamonaviy tushunish, nafaqat fuqarolik huquqining tadqiq etilayotgan mazkur obyektining o‘rni va rolini belgilab beradi, balki bundan muhimroq bo‘lgan ko‘chmas mulklar tizimi, ular tuzilish tartibining mohiyati va harakterini namoyon etadi, shuningdek xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi ko‘chmas mulklar bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarga samarali ta‘sir etuvchi huquqiy vositalarni ishlab chiqadi.

Material va metodlar.

O‘zbekiston Respublikasida ko‘chmas mulkni huquqiy tartibga solishda 2011-yil 23-iyunda qabul qilingan "Rieltorlik faoliyati to‘g‘risida"gi Qonun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘chmas mulklar keng muomalada bo‘ladigan obyektlar bo‘lib, alohida qiymatga egaligi va boshqa ashyolardan farqli o‘laroq, u bilan bog‘liq yuridik faktlar belgilanishining alohida tartibi mavjudligi bilan o‘ziga xos o‘rin tutadi. Mazkur obyekt bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirishda ko‘chmas mulk tushunchasini nazariy jihatdan tahlil etish, uni tavsiflovchi belgilarni aniqlash asosida qonunchilikda yaxlit tushunchani kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda mol-mulkni ko‘char va ko‘chmas toifalarga ajratish birinchi marta 1990-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi qonunda nazarda tutildi. 1994-yilda X.T.Azizov o‘z nomzodlik dissertatsiyasida ko‘char va ko‘chma mulklarni turkumlarga ajratgan. Bunday ajratish amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ham alohida e‘tibor qaratildi va huquqiy jihatdan har tomonlama o‘z yechimini topdi.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF-5780-sonli Farmoni.

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 81-moddasiga binoan, fuqarolik huquqi obyektlariga ashyolar, jumladan pul va qimmatli qog‘ozlar, boshqa buyumlar, mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar, ixtirolar, sanoat namunalari, fan, adabiyot, san‘at asarlari va intellektual faoliyatning boshqa natijalari, shuningdek shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa moddiy hamda nomoddiy boyliklar kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 83-moddasiga binoan esa, mol-mulk fuqarolik huquqi obyekti sifatida ko‘chmas va ko‘char mulkka bo‘linadi. Zamonaviy fuqarolik huquqi tizimining muhim jihati mol-mulklarni bu tarzda bo‘lishdir, sababi ashyolarni huquqiy tartibga solishning o‘rnatilishi ularni u yoki bu guruhga o‘tkazilishiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida mavjud ashyolarni ko‘chmas yoki ko‘char mol-mulk turkumiga kiritishda ularning tabiiy xususiyatlari hisobga olindi. Ko‘chmas mol-mulk, odatda, doimo biror-bir belgili joyda turadi, o‘ziga xos xususiy belgilari bilan ifodalanadi, uni almashtirib ham bo‘lmaydi. Ko‘chmas mol-mulk turkumiga yer uchastkalari, yer osti boyliklari joylashgan uchastkalar, alohida bo‘lingan suv omborlari va yer bilan mustahkam bog‘liq boshqa obyektlar kiradi. Shuning bilan birga ko‘chmas mol-mulk turkumiga o‘rmonlar, ko‘p yillik daraxtlar, binolar, imoratlar va boshqa obyektlar ham kiradi, chunki ular ham yerda joylashgan. Umuman olganda ko‘chmas mol-mulknii ifodalovchi xususiyatlari shundan iboratki, ularni yerdan alohida ajratib bo‘lmaydi, shu tufayli ular yuqori darajadagi qiymatli obyektlar sifatida ta‘riflanadi. Yerga tegishli ravishda bog‘liq bo‘lmagan obyektlar, masalan, ko‘chat sifatida boshqa joydagi yerga olib borib o‘tkazish uchun maxsus pitomniklarda o‘stiriladigan daraxtlar ko‘chmas mol-mulk qatoriga kirmaydi. Shu bilan birga har yili muntazam mehnat qilish yo‘li bilan yer yuzidan doimo olinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (donlar, sabzavot mahsulotlari va h. k.) ko‘chmas mol-mulk turkumiga kirmaydi¹.

Eng avvalo ko‘chmas mulk deganda yer ustining bir qismi va u bilan belgilangan maqsadi va ko‘rinishiga zarar yetkazmasdan ko‘chirib bo‘lmaydigan darajada bog‘liq bo‘lgan ashyolar tushuniladi. Yerning ustki qismida qad rostlagan imoratlar ko‘chmas mulk deb tan olingani kabi, yerning ostki qismidagi qurilish natijalari, masalan, quduqlar, shaxtalar ko‘chmas mulk deb hisoblanishi kerak².

S.S.G‘ulomovning fikricha, ashyolarning ko‘char yoki ko‘chmas turga o‘tishi mazmuni ko‘chmas mol-mulkning fuqarolik muomalasida ishtirok etish tartibi

¹ Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqining obyektlari. – T.: TDYUI, 2009.

² Shershenevich G.F. Uchebnik ruskogo grajdanskogo prava. T.1. – M.: Statut, 2005. – S.461.

alohida protseduralarda amalga oshirilishida ifodalanadi. Qonun bilan alohida nazarda tutilgan xollarda ko‘chmas mol-mulklarning alohida turlariga nisbatan davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yoki alohida ko‘chmas mol-mulk turlarining hisobi yuritilishi mumkin. Bundan farqli o‘laroq, ko‘char mol-mulklarga bo‘lgan huquqlar qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan xollardagina davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart. Ushbu institutning o‘ziga xos xususiyati, yozma tartibga rioya qilinishi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini talab etuvchi ko‘chmas mulk huquqining vujudga kelishi, o‘zgarishi, chegaralanishi yoki bekor bo‘lishi, boshqa ashyoviy huquqlar (ipoteka, servitut va h. k.) va ayrim majburiyat huquqlari (ijara, ishonchli boshqaruv va h. k.) alohida tartibda amalga oshirilishida namoyon bo‘ladi¹.

Bugungi kunda sivilistika adabiyotlarida fuqarolik huquqi obyektlari hisoblangan ashyolar, mol-mulklarga nisbatan serqirra huquqiy tabiatining turliligi ta‘siridan yagona qarash mavjud emas va hozirga kelib sivilistikada ko‘chmas mol-mulk belgilarini aniqlash bo‘yicha bir necha nazariyalar shakllanib ulgurdi. Islom xuquqshunoslari mulk xuquqi predmetini tashkil etuvchi yerning besh turini farqlaydi²: “jonsiz” yerlar; “jonlantirilgan” yerlar; tanob yerlar; xiroj yerlar; hobus. Xalifalikka ixtiyoriy ravishda bo‘ysungan joylarda mahalliy axoli yerga bo‘lgan mulk huquqini saqlab qolgan bo‘lsa, fatx etilgan hududlarda musulmon jamoasi yerga nisbatan oliy xuquqqa ega bo‘lgan. Yer egalari bu yer avloddan avlodga o‘tishini istisno etuvchi ayrim uzufukt huquqinagina saqlab qolganlar³. Birinchinazariya (K.P.Pobedonossev, Ye.V.Vaskovskiy, Yu.S.Gambarov⁴) yer bilan mustahkam bog‘liq mulklarni ko‘chmas mol-mulk deb tan oladi. Ikkinchi konsepsiya (I.Fransesson, G.F.Shershenevich, K.I.Malishev⁵) imorat egasi huquqlarining imorat joylashgan yer bilan yuridik aloqasi mavjudligidan kelib chiqqan. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu nazariyaga binoan vaqtincha qurilgan imoratlar va o‘zgalarga tegishli yerda qurilgan imoratlarni ko‘chmas mulk deb tan olmaydi. Uchinchi nazariya vakillari

¹ Gulyamov S.S. Вещи недвижимые и движимые./ Гражданское право: Общая часть./ Под ред. X.R. Raxmankulova. – T.: 2009. – S.299.

² R.Boymirzayeva ISLOM HUQUQI fani bo‘yicha 5380100-yurisprudensiya ta‘lim sohasi, yo‘nalishi (mutaxassislik) uchun MA‘RUZALAR MATNI.- Namangan 2010

³ Sharl R. Musulmanskoye pravo. Per. s frans. S.I.Volka. Pod red. i o predisl. Ye.A.Belyayeva. - Moskva: Izd-vo “Inostrannaya literatura”, 1959. - S.6.

⁴ Qarang: Pobedonossev K.P. Kurs grazhdanskogo prava. Chast I: Votchinnye prava. – Spb.: 1873. S.11-14.;

Vaskovskiy Ye.V. Uchebnik grazhdanskogo prava. – M.: 2003. – S.118-119.;

Gambarov Yu.S. Grajdanskoye pravo. Obshchaya chast./ Pod red. V.A.Tomsinova. – M.: 2003. – S.608-611.

⁵ Fransesson I. Prodaja stroyeniy, vozdvignutyyh na chujoy zemle.// Jurnal Ministerstva yustitsii, 1905. – №10. – S.10, 148-149, 154-156.

(A.I.Vorms, V.B.Yelyashevich, A.Dumashevskiy¹) ning fikriga ko'ra, majburiyat huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lmagan yerda qurilgan imoratlarni ko'char mulk deb tan olish, ashyoviy huquq asosida o'zgalarga tegishli yerda qurilgan imoratlarni ko'chmas ashyolar deb tan olish kerak.

Yuqorida keltirilgan ikkinchi va uchinchi nazariya tarafdorlari ko'chmas mol-mulklarni tasniflashning umumiy belgilarini tan olishsa-da, yuridik bog'liqligi mavjud bo'lgan mol-mulklarni yuridik bog'liqligi bo'lmagan mol-mulklardan ajratishadi. Bu bir turdagi mulk ikki xil huquqiy maqomga ega deb hisoblash kerakligini anglatadi, ya'ni ba'zi ko'chmas mulk obyektlari joyidan ko'chirilishi mumkin deb hisoblaydilar. Yer bilan mustahkam bog'liqlik xususiyati ko'chmas mol-mulklarni harakterlovchi eng muhim belgilardan deb hisoblovchi birinchi nazariyaga qo'shilgan holda, ushbu nazariya mohiyatini kengroq tushunish kerak deb o'ylaymiz.

Umuman aytganda, adabiyotlarda fuqarolik huquqi obykti sifatida ko'chmas mol-mulklarning xususiyatlari bir necha bor belgilangan. Bunday obyektarning o'ziga xosligi ikki jihatdan, ya'ni yuridik va moddiy jihatdan ko'rib chiqiladi. Ko'chmas mol-mulklar qatoriga kiritilgan ashyolarning moddiy belgilariga ularning tabiiy xususiyatlari kiradi. Bularga xususan, mustahkamlik, almashtirib bo'lmaslik, chidamlilik, qo'zg'almaslik (statsionar), asoslilik (fundamentallik) va xususiy alomatlari bilan belgilanganlik kiradi.

Sivilistikada huquqshunoslar “yer bilan mustahkam bog'liqlik” tushunchasini faqatgina obyektning tuproq bilan birikishi (birikmasi) deb hisoblashgan. Yer bilan qurilish obykti o'rtasidagi yuridik bog'liqlik tushunchasini XX asr boshlari sivilistlari tomonidan asosiy ashyo (yer)ga mansub ashyo (qurilish obykti)ning bog'liqligi kabi belgilagan. Biroq hozirgi vaqtda imoratning yer bilan mustahkam bog'liqligining odatiy mezonlari o'rnini yuridik (mustahkam) bog'liqlikka bo'shatib berib, o'z kuchini yo'qotib bormoqda².

Ammo, ko'pincha bino (inshoot)ning yer uchastkasi (yer) bilan bog'liqligi bu ma'lum ma'noda mustaqil ko'chmas mulk huquqi obyektleri huquqiy rejimining birikuvi deb hisoblangan. Yuridik bog'liqlik soddaroq ko'rinishda, obyekt egasining yer uchastkasi hamda imoratga bo'lgan ashyoviy huquqlarining bir-biriga mos kelishida (yoki “birgalikda mavjud bo'lish” imkoniyatida) ifodalanadi. Asil mumtoz

¹ Qarang: *Законы гражданские (Свод законов. Т.Х., ч.1). Практический и теоретический комментарий./* Pod red. A.Ye.Vormsa, V.B.Yelyashevicha. – M.: 1913. – S.18-22.
Dumashevskiy A. Xarakter prav na zdaniye, postroyenooye na chujoy zemle.// *Jurnal Ministerstva Yustitsii.* 1868. kn.2. – S.168-174.

² Kasko L.A. *Zdaniye na chujoy zemle.* – M.: 1905. – S.42.

shaklida esa (bino yer uchastkasining mansub ashyosi) bu bog‘liqlik nafaqat mavjud, balki zarur hisoblanadi.

Ko‘chmas ashyolarni tasniflashda ikki mezonan foydalaniladi: moddiy – ko‘chmas ashyolarning yer bilan bog‘liqlik darajasi va yuridik – qonun bilan u yoki bu ashyoni ko‘chmas mulklar turkumiga kiritilishi. Shunday bo‘lsada, ushbu mezonlardan birining mavjudligi ashyoga ko‘chmas mulk huquqiy maqomini beradi.

Qonun bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chmas mulk deb ko‘rsatilmagan ashyolar, jumladan pullar va qimmatli qog‘ozlar ko‘char mulklar deb tan olinadi. Ko‘chmas mulkdan farqli o‘laroq, ko‘char mulklarning turlari va ko‘rinishlari cheksizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ham, boshqa biror bir qonun hujjatida ham ko‘char mulklarning ta‘rifi berilmagan. Ko‘char mulk, qoidaga ko‘ra, mustaqil ravishda harakatlanish layoqatiga ega (hayvonlar) yoki inson yordamida o‘zi uchun belgilangan holda joyidan jildirilishi mumkin bo‘lgan ashyolardir¹. Shunday ekan, ko‘chmas mulk turlarining kamligidan kelib chiqib, ularga yagona va maqbul ta‘rif berilishi ko‘char mulklarga bunday ta‘rif keltirishdan ozod qiladi. Ya‘ni, ko‘chmas mulk turlariga kirmaydigan qolgan barcha ashyolar ko‘char mulklar sirasiga kiradi.

V.A.Goremikin iqtisodiy mezonlarga asoslanib, ko‘chmas mulklarni natural shaklda qayta ishlab chiqarishdan kelib chiqib (qayta ishlab chiqarilmaydigan – yer uchastkalari, qayta ishlab chiqariladigan – bino-inshootlar, ko‘p yillik dov-daraxtlar), egalik shaklidan kelib chiqib (xususiy, davlat, umumiy birgalikda olib boriladigan, umumiy ulushdagi, ommaviy tashkilotlar) va ekspluatatsiya uchun tayyorlik darajasidan kelib chiqib (ekspluatatsiyaga topshirilgan va tugatilmagan qurilish obyektlari) tasniflashni taklif etadi².

V.A.Goremikin taklifiga binoan ko‘chmas mulkning tasniflanishiga, mamlakatimiz qonunchiligi uchun yangilik sanalgan, tugatilmagan qurilish obyektlarini ham kiritgani e‘tiborga loyiq, biroq egalik shakllaridan kelib chiqib tasniflashni, turli subyektlarning egalik qiluvchi ko‘chmas mulki huquqiy maqomini turlicha belgilash lozim degan fikridan yiroq holda, egalik shakliga ko‘ra xususiy va ommaviy turlarga bo‘lish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

R.Grover va M.Solovyevlar ko‘chmas mulk obyektlarini turlarga bo‘lishning informatsion usulini taklif etib, ularni ikki guruhga: yashash uchun mo‘ljallangan (kvartiralar, kottedjlar, dala-hovlilar, bog‘ uchastkalari) va yashash uchun

¹ O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (1-qism) Adliya vazirligi. – T.: “Vektor-Press”, 2010. – 816 b. – (Professional (malakali) sharhlar).

² Goremikin V.A. Рынок недвижимости. – М.: 1994. – С.14.

mo'ljallanmagan (ofislar, savdo obyektlari, omborlar, tugallanmagan qurilishlar va boshqalar) bo'lish kerak deb hisoblagan¹.

Ushbu olimlarning fikrlari quyida keltirilgan Ye.A.Dorojinskaya qarashlarining boshqa ko'rinishidagi ifodasidir. Misol uchun iqtisodiy-huquqiy harakterdagi mol-mulkning funksional vazifasiga qarab ko'chmas mulklarni tasniflashning belgilarini ko'rsatish mumkin. Ushbu mezondan kelib chiqqan holda, ko'chmas mulk obyektlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan va ishlab chiqarishga mo'ljallanmagan turlariga bo'linadi. Ishlab chiqarish ko'chmas mulklari tovarning vujudga kelishida bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi (yer, bino, inshoot, korxonalar va shu kabilar). Noishlab chiqarish ko'chmas mulklari yuqorida ko'rsatilgan faoliyatda ishtirok etmaydi, balki axolining yashashi va unga xizmat ko'rsatilishiga sharoit yaratadi (ko'p yillik daraxtlar, yashash xonalari va boshqalar).

Tadqiqot natijalari.

Ko'chmas mulk obyektlarini tasniflashga xizmat qiluvchi yana bir mezon etib ularning xususiyatini hisoblash mumkin. Ushbu mezonga bog'liq holda, tabiiy xususiyatlariga ko'ra va qonun ta'siridagi ko'chmas mulklarga bo'linadi. Haqiqatdan ham, qonun chiqaruvchi bir tushunchada juda farq qiluvchi holatlarni birlashtirgan. Ko'chmas mulklar yo o'z tabiatiga ko'ra yoki qonun asosida, mazmuniga binoan ko'char mulklar bo'lsada – “ko'chirib bo'ladigan ko'chmas mulklar”, deb tan olinadi.

Birinchi guruhga: yer va yer osti boyliklari joylashgan uchastkalar, ko'p yillik dov-daraxtlar, binolar, inshootlar, yashash uchun mo'ljallangan joylar, mulkiy kompleks sifatida korxonalar va shu kabilar kiradi. Ikkinchi guruh ko'chmas mulklariga esa: havo va dengiz kemalari, ichki suv kemalari, qonun bilan ko'chmas mulklar qatoriga kiritilgan boshqa mol-mulklar kiradi.

Bu yerda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan birinchi guruhga kiruvchi ko'chmas mulk obyektlari qo'zg'atib bo'lmaz obyektlar sanaladi. Ko'chmas mulklar turkumiga kiritilgan obyektlarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish mumkin, lekin ular yangi joyda qo'zg'almas qilib (statsionar) joylashtirilgan bo'lishi kerak; shuningdek ular ko'p marta foydalanish uchun mo'ljallanadi, ya'ni iste'mol qilinmaydi; individual belgilariga ega bo'ladi; butun xizmat muddati davomida tabiiy shaklini saqlaydi; eskirish (yeyilish) natijasida asta-sekin foydalanishga yaroqlilik xususiyatlarini yo'qotib boradi².

¹ Grover R., Solovyev M. Vvedeniye v upotrebleniye nedvijimostyu. – M.: 1997. – S.42-43.

² Dorojinskaya Ye.A. Pravovoye regulirovaniye sdelok s nedvijimostyu. – Novosibirsk.: 1999. – S.18.

Yuqorida ko’rsatilgan Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksi (bundan buyon matnda RF Fuqarolik kodeksi)ga nisbatan olingan ko’chmas mulkning tasniflanishidan kelib chiqib, ikkinchi guruh ko’chmas mulklarining umumiy xususiyatlarini ajratib ko’rsatish qiyin, sababi ushbu obyektlarni birlashtirib turuvchi birdan bir asos bu qonun va alohida qiymatga egalik xususiyatidir.

Tadbirkorlik amaliyoti obyektlarning investitsiyaviy va tijorat ko’rkamligini belgilashda ko’chmas mulk turlarini belgilashning quyidagi tamoyillarini ajratib ko’rsatadi: paydo bo’lishi jihatidan (yangitdan yaratiladigan obyekt, qayta tiklanadigan va shu kabilar); belgilangan maqsadi jihatidan (tijorat yoki ijtimoiy funksiyalarni bajarishga qaratilgan); masshtab-ko’lam jihatidan (kompleks imorat, alohida imorat, inshoot, suv quvurlari tarmog’i va shu kabilar); foydalanishga shayligi jihatidan (qurilish yoki qayta tiklanish bosqichida); muomalaga yaroqlilik jihatidan (tijorat jozibadorligi, tez sur’atda sotish imkoniyatining mavjudligi)¹.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ko’chmas mulk obyektlari yuridik almashtirib bo’lmaydigan obyektlar deb tan olinadi. Ko’chmas mulkning nobud bo’lish yoki buzilish xollarida majbur bo’lgan shaxsdan aynan shunday ashyolarni emas, balki yetkazilgan zarar o’rnini qoplashni talab qilish mumkin. Shu bilan birga, qarzdordan faqat xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyolarni natura shaklida talab qilish mumkin (masalan, oldi-sotdi shartnomasini amalga oshirmaganda). Ko’chmas ashyolar davlat ro’yxatidan o’tkazilishi ta’siri ostida xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyolar hisoblanadi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan xollarda boshqa mol-mulklar ham ko’chmas mol-mulklar turkumiga kirishi mumkin (O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 83-modda 3-qism). Bular qatoriga davlat ro’yxatidan o’tkaziladigan yuk tashuvchi va engil avtomobil transport vositalari, havo va dengiz kemalari, shuningdek ichki suv kemalari va boshqalar kiradi. Ushbu obyektlarning ro’yxatdan o’tkazilishi ko’pchilik davlatlarning fuqarolik qonun hujjatlarida nazarda tutilgan. Bunday tartib o’rnatilishiga asosiy sabab, ular birinchidan, muayyan davlatning maxsus belgilari va har biriga xos xususiy alomatlari bilan harakatda bo’ladi; ikkinchidan, qiymati yuqori bo’lgan obyektlar hisoblanadi va shuning uchun fuqarolik muomalasida (olish-sotish, ijaraga berish, hadya qilish, meros qoldirish va h.k.) ularga nisbatan ishonarli tartib o’rnatish talab etiladi.

¹ Volchkova N.G. Spravochnik po nedvijimosti. – M.: 1996.;
Goremykin V., Butulov E. Ekonomika nedvijimosti. Uchebnik. – M.: 1999.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko‘chmas mulkning ayrim turlariga berilgan ta’riflar mavjud. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 2-moddasida bino va inshoot tushunchasi, Yer kodeksining 10-moddasida yer uchastkasiga berilgan ta’rif. Biroq ko‘chmas mulk tushunchasini belgilovchi aniq tushunchani topish murakkab masala. Ko‘chmas mulk tushunchasining belgilanishi ushbu institut bilan bog‘liq masalalarning yechimini topishga sabab bo‘lar edi, deb hisoblaymiz. Ushbu holatni inobatga olib, bizning fikrimizcha, ko‘chmas mulk deb – yer maydoni, yer osti boyliklari va uning ustki qismida joylashgan hamda mustahkam bog‘liq bo‘lgan obyektlarni hisobga olgan holda, qo‘zg‘almas va almashtirib bo‘lmaydigan, alohida qiymatga ega bo‘lgan ashyolarga aytiladi.

Xulosalar.

Ko‘chmas mulk bozori talabi alohida bozordagi iste‘molchilarning individual talablari yig‘indisiga bog‘liq. Ko‘chmas mulk bozori talabi esa ma‘lum bozordagi iste‘molchilarning individual talablarini qo‘shish orqali olinishi mumkin. Ko‘chmas mulk bozorining alohida xususiyati shundaki, bozorda doimo muvozanat holati ro‘y beravermaydi. Balki taklifga qaraganda talab ustun yuradi va bu narxning bozorda yuqori bo‘lishiga olib keladi. Xorijiy davlatlar qonunlarida ko‘chmas mulk va rieltorlik faoliyati va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan qiyosiy tahlildan kelib chiqqan holda quyidagicha xulosaga kelindi:

* ko‘chmas mulk bozori va ipoteka uy savdolarini rivojlantirish uchun aholining ijtimoiy qatlamlari (quyi, o‘rta, yuqori ta‘minlanganlik)ni e‘tiborga olib uy-joy ko‘chmas mulkini barpo qilish;

* respublikada ko‘chmas mulkini qurish uchun avvalambor unga nisbatan talabni o‘rganish lozim. Chunki mamlakatimizda o‘rta nufuzli ko‘chmas mulkning xaridiga talab yuqori bo‘lganligi bois, mana shu talabni qondirish borasida ishlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq.

* rieltorlar faoliyati va ko‘chmas mulk reklamasini soliqqa tortishda imtiyozlar yaratish va boshqalar.

Yuqoridagilarni amalga oshirsa mamlakat miqyosida rieltorlik sohasiga talab ham keskin oshib boradi. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarda ko‘chmas mulk bozori va rieltorlik faoliyatini rivojlanishi jamiyatimizda ko‘chmas mulk bozorini rivojlanishiga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

**Mirsagatov Murod
Atxamovich
Xasanov Otabek**

Davlat bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti
Qayta tayyorlash va malaka oshirish
fakulteti dotsenti, f.-m.f.n.
Davlat bojxona qo‘mitasi boshqarma boshlig‘i

BOJXONA ORGANLARI TOMONIDAN INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI HIMOYA QILINISHI

So‘nggi yillarda respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlariga intellektual faoliyat natijalari va innovatsiyalarni olib kirish mexanizmlarini takomillashtirish, mintaqaviy brendlarni joriy qilish, kontrafakt mahsulotlarning importini va realizatsiyasining oldini olish, intellektual mulkning ishonchli huquqiy himoyasini ta‘minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bojxona organlari tomonidan intellektual mulk huquqini himoya qilishning huquqiy asoslari Bojxona kodeksining¹ 56-bobi (382-393-moddalar) va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ–221-son qarori² talablari asosida belgilangan bo‘lib, himoya qilinishi uchun intellektual mulk ob‘ekti (keyingi o‘rinlarda – IMO) “Intellektual mulk ob‘ektlarining bojxona reestri”ga (keyingi o‘rinlarda – bojxona reestri) kiritilgan bo‘lishi zarur.

Bugungi kunga qadar bojxona reestriga 430 ta IMO kiritilgan bo‘lib, ularning barchasini tovar belgilari tashkil etadi. Shundan, 211 tasi turli sababalarga asosan bojxona reestridan chiqarilgan. Hozirgi kunda bojxona reestrída 219 ta tovar belgisi qayd etilgan.

Bojxona reestri IMolarini himoya qilish uchun asosiy ma‘lumotlar bazasi sifatida bojxona organlari tomonidan bojxona rasmiylashtiruv va nazorati jarayonida foydalaniladi.

Belgilarni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi Madrid bitimi³ hamda Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari

¹ <https://lex.uz/docs/2876354>.

² <https://lex.uz/docs/5987120>.

³ <https://lex.uz/docs/1345387>.

to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga¹ asosan ro‘yxatdan o‘tgan tovar belgilari himoyaga olingan hisoblanadi.

Natijada, xalqaro va milliy ro‘yxatdan o‘tib, huquqiy himoyaga ega bo‘lgan tovar belgilari bojxona reestriga kiritilmagan bo‘lsa, bojxona organi tomonidan himoya qilinmaydi.

Shu bois, birinchi bosqichda huquq egalari tomonidan o‘zlariga tegishli bo‘lgan tovar belgisini bojxona reestriga kiritish to‘g‘risidagi bojxona organlariga ariza bilan murojaat etishadi.

Joriy yilning sentyabr oyiga qadar tovar belgilarining huquq egalari o‘zlariga tegishli bo‘lgan huquqni buzuvchi tovarlarga nisbatan chora ko‘rish bo‘yicha faqatgina ariza bilan bojxona organlariga murojaat etganlaridagina ularning huquqiy himoyasi bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, Bojxona kodeksiga asosan, bojxona organlari tomonidan IMO bo‘yicha huquq buzilganlik alomati bor tovarni chiqarib yuborilishi 10 ish kuniga to‘xtatiladi.

Bojxona organlari tomonidan ko‘riladigan choralar huquq egasining o‘ziga tegishli bo‘lgan huquqlarini himoya qilishi uchun sud organlariga murojaat etishi uchun amalga oshiriladi.

Bojxona organlari tomonidan to‘xtatib turish muddati mobaynida huquq egasi tomonidan sud organlariga murojaat qilinganligi haqidagi sud ajrimi bojxona organlariga taqdim etilmasa bunday tovar belgilangan tartibda chiqarib yuboriladi.

Bojxona organlari tomonidan IMOga bo‘lgan huquqni himoya qilishning ushbu mexanizmi saqlanib qolgani holda, joriy yilning 1-sentyabr kundan shunday tartib o‘rnatildiki, bunda bojxona nazorati va rasmiylashtiruv jarayonida bojxona reestriga kiritilgan IMO bo‘yicha huquq buzilganligi alomati mavjud tovar aniqlanganda, bojxona organlari tomonidan huquq egasining «Yagona darcha» bojxona axborot tizimidagi shaxsiy kabinetiga ushbu holat to‘g‘risida bir ish kunida elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan xabar yuboriladi.

Bunda, xabar yuborilgandan boshlab bir ish kuni davomida huquq egalardan tegishli shakldagi ariza kelib tushgan taqdirda, ularning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qonunchilikda belgilangan tartibda bojxona organlari tomonidan choralar ko‘riladi, ya‘ni IMO bo‘yicha huquq buzilganlik alomati bor tovarni chiqarib yuborilishi 10 ish kuniga to‘xtatiladi. Lekin, xabar yuborilgandan boshlab bir ish kuni

¹ <https://lex.uz/docs/24925>.

davomida huquq egalaridan shunday ariza bojxona organlariga kelib tushmasa, tovarlar belgilangan tartibda chiqarib yuboriladi.

Shu bilan birga, tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvda intellektual mulk huquqlari buzilganligi alomatini xavfni boshqarish tizimi natijalari asosida aniqlash amaliyoti joriy etildi. Bunda, bojxona reestriga kiritilgan IMOlari bo‘yicha xavf profillari ishlab chiqilib, Davlat bojxona qo‘mitasining xavfni boshqarish tizimiga kiritilmoqda va elektron nazorat o‘rnatilmoqda.

Hozirgi kunda, intellektual mulk sohasidagi xalqaro normalar va Jahon savdo tashkilotining intellektual mulk bo‘yicha xalqaro shartnomalari normalaridan kelib chiqqan holda, “ex officio” tartibini bojxona qonunchiligiga kiritish va IMOga bo‘lgan huquqni himoya qilish borasida bojxona organlariga qo‘shimcha huquqlar berish borasida O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lib, tegishli idoralar tomonidan ko‘rib chiqish jarayoni ketmoqda.

Mazkur loyihada belgilanganlarga binoan, intellektual mulk huquqlari buzilganlik belgilari bo‘lgan tovarlar bojxona organlari tomonidan aniqlanganda, huquq egasining intellektual mulk ob‘ektiga bo‘lgan o‘z huquqini himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish to‘g‘risidagi arizasisiz va bojxona reestriga kiritilmagan IMOni o‘z ichiga olgan tovarlarni chiqarib yuborish bojxona organlari tomonidan to‘xtatib turilishi mumkin.

Bojxona organlari qo‘shimcha huquqlarni amalga oshirishda himoyaga olingan tovar belgilari O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish sohasidagi vakolatli davlat organining davlat reestridan ro‘yxatdan o‘tkazilganligi bo‘yicha ma‘lumotlardan foydalanadi.

Tovarlarni chiqarib yuborishni to‘xtatib turish bojxona organlari tomonidan intellektual mulk huquqlari buzilganlik belgilari bo‘lgan tovarlar aniqlanganda bu haqda huquq egasi va tovarga vakolatli shaxsni xabardor qilish uchun, qonun hujjatlarida belgilanganlarga muvofiq, barcha zarur choralar ko‘riladi.

Bojxona organlari IMOga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish uchun tovar belgisining huquq egasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarini (nomi, manzili, telefon raqami, elektron pochta) aniqlashda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish sohasidagi vakolatli davlat organiga, xususan Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligiga so‘rovnoma yuboradi.

Bunda, bojxona organlari va O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk huquqlarini himoya qilish sohasidagi vakolatli davlat organi 24 soat ichida huquq egasining manzilini topish va uni xabardor qilish yuzasidan barcha zarur choralarni ko‘radi.

Agar bojxona organlari tomonidan 24 soat ichida huquq egasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni topish imkoni bo‘lmasa, tovarlarni chiqarib yuborishni to‘xtatib turish bekor qilinadi va tovarlar belgilangan tartibda chiqarib yuboriladi.

Intellektual mulk huquqlari buzilganlik belgilari bo‘lgan tovarlar aniqlanganda chiqarib yuborishni to‘xtatib turish uch ish kuniga qadar amalga oshiriladi va ushbu kun ichida huquq egasiga xabar yuboriladi hamda tovarlarni chiqarib yuborishni to‘xtatib turishni davom ettirish yoki uni bekor qilish belgilanadi.

Huquq egasi tomonidan to‘xtatib turishga ajratilgan uch ish kuni mobaynida bojxona organiga:

- tovarlarni chiqarib yuborishni to‘xtatib turish muddatini o‘n ish kunigacha uzaytirish to‘g‘risida ariza berilmaganda;

- tovarlarni to‘xtatib turishni bekor qilish bo‘yicha ariza yuborilganda chiqarib yuborishni to‘xtatib turish bekor qilinadi.

Agar to‘xtatib turishga ajratilgan uch ish kuni mobaynida bojxona organlariga huquq egalaridan tovarlarni chiqarib yuborishni to‘xtatib turish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ariza kelib tushgan bo‘lsa, tovarlarni chiqarib yuborishni to‘xtatib turish dastlabki to‘xtatilgan kundan e‘tiboran o‘n ish kunigacha belgilanadi.

Mazkur loyihadagi qonunchilikka kiritiladigan o‘zgartirishlarga asosan, bojxona organlariga IMOga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish uchun bojxona reestriga kiritilmagan IMOlarini ham o‘z tashabbuslari bilan himoya qilish huquqi beriladi. Ushbu o‘zgartirishlarni kiritilishi respublikamizda bojxona organlari tomonidan IMOlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilinishi Jahon savdo tashkilotining bu boradagi talablari bilan muvofiq bo‘lishini yanada yaqinlashtiradi.

**TOSHEV OTABEK
MIRZAYEV SHUXRAT**

Adliya vazirligi huzuridagi
Huquqiy siyosat tadqiqot instituti
ma’sul xodimlari

O‘ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI TA’MINLASHGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Bugungi kunda intellektual mulk davlat va jamiyat uchun katta ahamiyatga ega soha ekanligi kundek ravshan. Zero intellektual mulkka bo‘lgan huquq boshqa mulk qatori tan olinib, daromad keltiradigan manba sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Bu hozirgi kunda bilim, innovatsiya va ijodiy natijalarga investitsiyalarni jalb qilishga ham yordam beradi. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda intellektual mulk innovatsion iqtisodiyotning asosi bo‘lib bormoqda. Masalan, AQSHda so‘nggi besh yil ichida ichki iqtisodiy faoliyat yoki ishlab chiqarish hajmining 40 foizdan ortig‘i intellektual mulk obyektlaridan intensiv foydalangan kompaniyalar hisobiga to‘g‘ri keldi. Ushbu kompaniyalar 2019-yilda 62,5 million ish joyini yoki mamlakat bandligining 44 foizini ta’minlagan.

Intellektual mulk, xususan tovar belgilari (brendlar) kompaniyalarga mashhur bo‘lishga va daromadlarini oshirishga yordam beradi. Masalan, 2022-yil boshida “Apple” brendining qiymati 355 milliard, “Amazon”niki 350 milliard, “Google”niki 263 milliard, “Microsoft”niki esa 184 milliard dollarni tashkil etgan¹. Shu sababli intellektual mulkni tan olish va himoya qilish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga va innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga imkon beradi.

Xush, O‘zbekistonda intellektual mulk sohasida huquqiy asoslar qay daraja shakllangan?

Bu sohada o‘ziga hos mustahkam va bazaviy qonunchilik yaratilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Eng avvalo, amaldagi Konstitutsiyaning 36-moddasida har kim mulkdor bo‘lishga haqli ekanligi mustahkamlangan. Garchi intellektual mulk alohida ko‘rsatib o‘tilmagan bo‘lsada, fuqarolik qonunchiligi nuqtayi nazaridan intellektual mulk konstitutsiyaviy darajada himoyalanaadi deyishga asoslar yetarli. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizning 42-moddasida ilmiy-texnik ijod erkinligini belgilangan, bu esa yangi intellektual mahsulot yoki ishlanma yaratgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish bilan birga, ijodiy erkinlik masalasini belgilaydi.

Demak, amaldagi Konstitutsiya intellektual mulkni alohida e’tirof etmasa ham, insonning ijodiy va innovatsion faoliyatini himoya qilishni umumiy qonunchilik orqali yetarli darajada kafolatlaydi.

¹ <https://kommers.uz/amaldagi-konstitucziya-intellektual-mulkni-alohida-etirof-etmajdi-ekspert>

Ayni chogʻda, intellektual mulkni bevosita tartibga solishga qaratilgan 8 ta Qonun va oʻndan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Fuqarolik kodeksining IV boʻlim intellektual mulkka bagʻishlangan.

Bundan tashqari, mazkur tarmoq yangi ishlanmalar, ijod namunalari, ixtirolar, foydali modellar, sanoat naʼmunalar, nou-xaular, dasturiy mahsulotlar va boshqalardan iborat boʻlib nafaqat fuqarolik qonunchiligi, balki koʻplab qonun osti hujjatlar bilan ham tartibga solinadi.

Shuningdek, Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksda va Jinoyat kodeksida intellektual mulkka boʻlgan huquqlarni buzganlik uchun bir qator moddalarda javobgarlik belgilangan. Bu sohadagi tadqiqotchilar fikriga koʻra, xususan Sh.Xoʻjayev nazdida umuman olganda, intellektual mulk masalasida yaxshi qonunchilik bazasi shakllangan¹.

Shu bilan birga, bu sohadagi mavjud muammolarni yanada samarali hal etish maqsadida, uning fikricha qonunchilikni bir qator yoʻnalishlarda takomillashtirish mumkin.

Avvalo, intellektual mulk sohasiga oid qonunchilik tarqoq va tizimsiz ekanligi sababli, uni tizimlashtirish va uygʻunlashtirish joiz. Biz, turli nomuvofiqliklar va tushunmovchiliklarni oldini olish maqsadida qonunchilik normalarini oʻzaro uygʻunlashtirish va yaxlit qonunchilik tizimini yaratish uchun **Intellektual mulk kodeksini** ishlab chiqish va yaratish gʻoyasini qoʻllab-quvvatlaymiz.

Ayni chogʻda, eng asosiy qonunchilik hujjati – Fuqarolik kodeksini ham zamonaviy talablardan kelib chiqib, takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bu masalada tadqiqotchi D.Anvarova Ishchi guruh tomonidan yangi tahrirdagi Fuqarolik kodeksini ishlab chiqilyotgani, unda intellektual mulk huquqiga oid bir qator ijobiy oʻzgartirishlar kiritilayotganini qayd etadi².

Jumladan, intellektual mulk huquqiga oid boʻlimiga quyidagi yangi normalar kiritildi:

birinchidan, **intellektual mulk huquq tushunchasi** kiritildi. Unda intellektual mulk mohiyati, asosiy belgilari, boshqa oʻxshash kategoriyalardan asosiy farqi oʻz ifodasini topgan boʻlib, ushbu normani shakllantirishda Ukraina Fuqarolik kodeksining 418-moddasi mazmunidan xorijiy tajriba sifatida foydalanilgan;

ikkinchidan, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, Iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar toʻgʻrisida xalqaro Pakt normalari hamda Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasiga asosan **intellektual faoliyat erkinligi** toʻgʻrisidagi norma kiritilib, unda intellektual faoliyat bilan shugʻullanish xar bir fuqaro huquq layoqatining ajralmas qismi ekanligi, har kimga ilmiy ijod erkinligi kafolatlanishi,

¹ <https://kommers.uz/amaldagi-konstitucziya-intellektual-mulkni-alohida-etirof-etmajdi-ekspert>

² https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonning-yangi-tahrirdagi-fuqarolik-kodeksida-intellektual-mulk-huquqiga-oid-yangiliklar_257535

ilmiy ijodiy fikrlarni to‘g‘riligi yoki noto‘g‘riligi oldindan belgilab qo‘yilishi mumkin emasligi, intellektual faoliyat va uning natijalariga afzallik berilishi belgilandi.

uchinchidan, intellektual mulk obyektlari turlari kengaytirildi. Xususan integral mikrosxemalar topologiyalari, tijorat siri, sun‘iy intellekt asosida faoliyat ko‘rsatuvchi obyektlar, ratsionalizatorlik yechimlari, geografik ko‘rsatkichlar kiritildi.

to‘rtinchidan, **intellektual mulk huquqining subyektlari tushunchasi** kiritildi. Intellektual mulk huquqi obyektining yaratuvchisi (yaratuvchilari) (muallif, ijrochi, ixtirochi va boshqalar) va qonun yoki shartnomaga muvofiq shaxsiy nomulkiy va (yoki) mulkiy huquqlar tegishli bo‘lgan boshqa shaxslar intellektual mulk huquqining subyektlari hisoblanadi. Intellektual mulk obyektlari o‘zini yaratuvchilari, foydalanuvchilari bo‘yicha farqlanadi. Yaratuvchilar mulkiy huquqlardan tashqari shaxsiy huquqlarga ega bo‘ladilar va alohida huquqiy maqom e‘tirof etiladi.

Mualliflikka bo‘lgan huquq yaratuvchining asosiy huquqi hisoblanadi. Intellektual mulkning fuqarolik muomalasida bo‘lishi bilan bog‘liq ravishda vujudga keladigan huquqiy munosabatlarning ko‘pchilik ishtirokchilari o‘z huquq-majburiyatlari hajmi bo‘yicha intellektual mulk huquqining subyekti sifatida maxsus e‘tirof etishga loyiq. Bu xorijiy davlatlar fuqarolik kodekslarida o‘z ifodasini topgan. Jumladan, Ukraina Fuqarolik kodeksi 421-moddasida bu to‘g‘risida maxsus norma mavjud.

Albatta, D.Anvarovning yangi FKga oid mazkur ma‘lumotlarini ijobiy qabul qilish joiz. Biroq, shu o‘rinda, FK – bu fundamental qonunchilik manbasi ekanligini unutmaslik darkor. Shuning uchun, intellektual mulk huquqini himoyalashda alohida maxsus qonun hujjatlariga ko‘proq urg‘u berish, shu jumladan **“Intellektual mulk huquqini himoyalash to‘g‘risida”**gi qonunni ishlab chiqib, unda ayrim hanuzgacha tartibga solinmagan masalalarga huquqiy yechim topish maqsadga muvofiq.

Afsuski, O‘zbekistonda intellektual mulkni tijoratlashtirish darajasi juda past.

Darhaqiqat, intellektual mulkni tijoratlashtirish dolzarb masalalardan biridir. Mazkur masalani hal etishda jamiyatimizda intellektual mulkka nisbatan hurmat va ehtiromni shakllantirishimiz zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida foyda keltirmaydigan mashg‘ulot bilan shug‘ullanish ko‘pchilik uchun ma‘qul emas. Shu sababli, fuqarolar va tadbirkorlar orasida intellektual mulkni tijoratlashtirish usullari va imkoniyatlari haqida targ‘ibot ishlarini olib borish, bu yo‘nalishda ularga amaliy yordam berish lozim.

Bundan tashqari, turli biznes qatlamlari va intellektual mulk egalari birlashtiradigan sanoat va innovatsion platforma va yarmarkalarni samarali yo‘lga qo‘yish lozim.

Taklif etilayotgan qonun intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarni munosib ravishda qonun darajasida himoya qilishga xizmat qiladi. Intellektual mulk

huquqining kuchli va samarali himoya qilinishi ilmiy-ijodiy va tijoriy faoliyatni rag‘batlantirishga turtki bo‘ladi. Davlat nafaqat intellektual mulk egalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini tan oladi, balki himoya qiladi.

Demak, muallif yoki huquq egasi yangi intellektual mulk obyektlarini yaratishga qiziqadi, mahalliy tadbirkorlar o‘z brendini yaratishga manfaatdor bo‘ladi, o‘z navbatida intellektual mulk egasi o‘zi yaratgan mahsulotidan foyda olishi ham mumkin.

Misol uchun, ushbu Qonunda mualliflar va intellektual mulk egalari huquqlarini samarali himoya qiluvchi mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini tartibga solish lozim. Bundan tashqari, ushbu Qonunda bojxona tekshiruvda “ex officio” tartibini kiritish maqsadga muvofiq. Mazkur tartib intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarni buzadigan tovarlarni mamlakat hududiga olib kirilishini oldini olishga xizmat qiladi.

Ayni damda, axborot-texnologiyalari rivojlanishini inobatga olib, yangi vujudga kelayotgan obyektlar (raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, kriptosistemalar)ga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk siyosatini belgilash va amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiyki, Internet zamonida yashar ekanmiz, intellektual mulk obyektlarini halqaro hamkorlikni lozim darajada o‘rnatmay turib, samarali himoyalash, qariyb imkonsiz. Shuning uchun, bu sohaga ilg‘or xalqaro tajribani implementatsiya qilishni davom ettirish lozim.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Belgilarni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi Madrid bitimiga bayonnoma (1989-yil 27-iyun) va Patent kooperatsiyasi to‘g‘risidagi shartnoma (Vashington, 1970-yil 19-iyun)larning ishtirokchisi hisoblanadi. Ushbu xalqaro shartnomalar doirasida huquqiy muhofaza (tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, ixtirolar) O‘zbekiston hududida Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish orqali beriladi.

Shu bilan birga, Sh.Xo‘jayev qayd etganidek, Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilish jarayonida tashkilotning Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo‘yicha bitim (TRIPS) normalari va tamoyillarini O‘zbekiston qonunchiligiga joriy etish muvofiqligini tahlil qilish zarur¹.

TRIPS xalqaro shartnoma bo‘lib, JSTni tashkil etish haqidagi hujjatlar toifasiga kiradi. Geografik ko‘rsatkichlar bilan bog‘liq masalalarni tartibga soladigan qonunlar Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Azarbayjon, Armaniston, Belarusiya, Gruziya, Kozog‘iston, Moldova, Rossiya va Ukraina kabi davlatlarda qabul qilingan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, intellektual mulk nafaqa ilm-fan va texnologik taraqqiyotga hissa qo‘shadi, yangiliklar va innovatsiyalarni joriy etilishiga xizmat qiladi. Intellektual mulk – bu bugungi kunda sezilarli tijoriy farovonlik vositasi bo‘lib,

¹ <https://kommers.uz/amaldagi-konstitucziya-intellektual-mulkni-alohida-etirof-etmajdi-ekspert>

uning davlat tomonidan himoyalaniishi, albatta, fuqarolar va davlatning munosib darajada rivoj topishi, boyishiga hissa qo‘shadi.

Demak, zamonaviy globallashuv jarayonida aynan intellektual mulk himoyasini to‘g‘ri va oqilona tashkil etish – mamlakat taraqqiyotining muhim omili sanaladi. Zotan, intellektual mulk siyosati jamiyat va davlatning qariyb barcha jabhalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

**QO‘CHQOROV ABBOSJON
BAHROMJON O‘G‘LI**

Yuristlar malakasini oshirish markazi
Bosh mutaxassisi

MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARISH SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

***Annotatsiya.** Maqolada mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish sohasidagi davlat siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari milliy va xorijiy tajriba asosida o‘rganilgan. Bundan tashqari, mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish faoliyatidagi muammolar, mualliflik huquqini himoya qilishning xalqaro standartlari, milliy hamda xorijiy mamlakatlar olimlarining fikrlari tahlil qilingan. Shuningdek, mavzu doirasida davlatning jamoaviy boshqarishdagi roli, jamoaviy boshqarishning tamoyillari, mualliflik huquqi egalariga to‘lovlarni yig‘ish, tarqatish va to‘lash masalalari ham turli davlatlar tajribasi asosida atroflicha o‘rganilgan. Mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish institutini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*

***Kalit so‘zlar:** mualliflik huquqi, mulkiy huquqlar, jamoaviy boshqarish, jamoaviy boshqaruvchi tashkilot, huquq egasi.*

Jahon tajribasidan ma’lumki, intellektual mulkka nisbatan davlat siyosatining qandayligi shu sohaning rivojlanish omillaridan biri hisoblanadi, xususan, mualliflik huquqidagi jamoaviy boshqaruvda ham. Mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish sohasida 2013-yildan beri Butunjahon intellektual mulk tashkiloti shaffoflik, hisobdorlik va samarali boshqaruv tamoyillarini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Ayni paytda ham BIMT ushbu tamoyillarga asoslangan tashabbuslar hamda mamlakatlarga huquqlarni jamoaviy boshqarish ekotizimini yaratishda yaqindan yordam berish ustida ishlamoqda.

Xususan, BIMT bilan hamkorlikda mamlakatimizda “2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish Strategiyasi” ishlab chiqildi. Prezidentimizning 2022-yil 26-apreldagi “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-221-son

qarori bilan ushbu Strategiya tasdiqlandi¹. Strategiyadagi intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish yo‘nalishida intellektual mulk obyektlarini ishonchli huquqiy himoya qilish maqsadida soha bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasidagi idoralararo hamkorlikni yanada takomillashtirish, intellektual mulk sohasidagi nizolarni sudga qadar hal qilish tartiblarini keng joriy qilish va intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish bo‘yicha maxsus vakolatli organlar faoliyati bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish vazifalari belgilangan.

Bundan tashqari, Strategiyaning “Intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish tizimini takomillashtirish” yo‘nalishida esa mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini tahliliy o‘rganish, ularni mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni tom ma‘noda himoya qiluvchi tashkilotlarga aylantirish choralari ko‘rish lozimligi qayd etilgan.

Bilamizki, dunyo bo‘yicha mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari mamlakat huquqiy tuzilishining muhim qismi hisoblanadi. Mazkur qonun hujjatlarining amalda ishlashi va u qabul qilingan manfaatlarga, xususan, ijodkorlikni rag‘batlantirish va shu orqali madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashishga xizmat qilishidan davlat organlari manfaatdordir. Bu individual boshqaruvni amalga oshirish mumkin bo‘lmagan yoki qiyin bo‘lgan holatlarda qonunni qo‘llash va huquqlarni boshqarishning tegishli mexanizmlari mavjudligini nazarda tutadi. Bu boradagi muammo davlat organlari, ya‘ni hukumat jamoaviy boshqaruvda qay darajada ishtirok etishi kerakligida. Eng asosiy yondashuv, albatta, bunday jamoaviy boshqaruv huquq egalari o‘zlari manfaatlariga mos keladi. Shuning uchun asosiy yondashuv shunday bo‘lishi kerakki, ular o‘zlari bunday tashkilotlar tuzishlari va ularning faoliyatni nazorat qilishligi kerak.

Hukumatning roli qonunchilikka qarab, davlatdan davlatga farq qiladi. Davlatlarning qonunchiligida tashqi nazoratga oid qoidalar mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga yoki jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonun hujjatlariga kiritilishi mumkin. Eng keng tarqalgan talab - jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarga tegishli organ, masalan, Madaniyat vazirligi yoki mualliflik huquqi idorasi tomonidan ruxsat berilishi kerakligi talabi. Ko‘pgina mamlakatlar qonunchiligida bir xil huquq egalari guruhini yoki bir xil

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-221-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5987120>

toifadagi huquqlarni faqat bitta tashkilot boshqarishi mumkinligi to‘g‘risidagi qoida mavjud.

Ba‘zi mamlakatlarda hech qanday sohada jamoaviy boshqaruv an‘analari mavjud emas va boshqa mamlakatlarda foydalanuvchilar tomonidan har xil qiyinchiliklar yoki qarshiliklar bo‘lishi mumkin va bunday holatda hukumat tomonidan qandaydir rag‘batlantirish yoki qo‘llab-quvvatlash ma‘qul yechim bo‘lishi mumkin. Bu yo‘nalishda hukumatning bunday ishtiroki darajasi va uni amalga oshirish usuli, albatta, har bir mamlakatning huquqiy an‘analari, siyosiy va iqtisodiy jihatlariga bog‘liq.

Yaxshi boshqaruvni yuqori sifatli qarorlar qabul qilish jarayonlari uchun standart sifatida aniqlash mumkin. Bu boshqaruvni bir qator tamoyillar asosida amalga oshirishni talab qiladi: shaffoflik, ishtirok etish, hisobdorlik, izchillik, tezkorlik, samaradorlik, tenglik va inklyuzivlik, hokimiyatlar bo‘linishi tamoyillarini o‘z ichiga oladi.

Bunda boshqaruvning shaffofligi deganda, “jamoat tashkilotlariga oid ma‘lumotlarning mavjudligi va hukumat siyosati, qoidalari va qarorlari haqida aniqlik” tushuniladi¹. Shaffoflik manfaatdor tomonlarga o‘z huquqlarini amalga oshirish uchun yetarli ma‘lumot bilan ta‘minlaydi. Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish kontekstida oshkoralik mualliflik huquqi to‘lovlarini birgalikda boshqarish usuli barcha manfaatdor tomonlar, xususan mualliflik huquqi egalari va foydalanuvchilar uchun aniq bo‘lishini talab qiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasiga ko‘ra mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqarayotgan tashkilot haq to‘lash bilan bir vaqtda huquq egalari ularning huquqlaridan foydalanilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan hisobotlarni taqdim etishi shart hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqiga a‘zo barcha davlatlarda milliy qonunchilikdagi yoki jamiyat nizomidagi o‘ziga xos qoidalar yig‘uvchi jamiyatlar a‘zolarining jamiyatlar faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan foydalanishini ta‘minlaydi. Bunda asosiy talab - yillik hisobot va yillik audit qilingan hisoblarni nashr etish. Majburiy oshkor etilishi kerak bo‘lgan narsalarga oid tafsilotlar turli a‘zo davlatlar qonunchiligi va yig‘uvchi jamiyatlar nizomlarida farqlanadi. A‘zolar va ba‘zi hollarda keng jamoatchilik va manfaatdor uchinchi shaxslar manfaati uchun e‘lon qilinishi kerak bo‘lgan

¹ Kautio, T. & Lefever, N. (2018). Assessing Governance in the Context of Copyright Systems - Second Edition. Cupore webpublications 45. P. 15.

ma'lumotlar, odatda, yig'uvchi jamiyatlarning operatsiyalari, tashkiliy qoidalar, faoliyat yuritish uchun ruxsatnomalar, tarqatish qoidalari, tariflar, repertuar, ma'murlar ro'yxati va tafsilotlari, ommaviy hisobotlar va qarorlarni o'z ichiga oladi.

Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatining tamoyillari sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin: 1) huquq egalari manfaatlariga qat'iy rioya qilish; 2) tenglik; 3) oshkoralik; 4) javobgarlik; 5) samarali boshqaruv.

Ko'pgina Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida jamiyatlar o'z faoliyatini boshqarish bo'yicha davlat organlari yoki jamoat tomonidan tayinlangan organlar tomonidan nazorat qilinadi. Nazorat qiluvchi organning vakolatlari ko'lami turli a'zo davlatlarda farq qiladi. Jamiyatlarning davlat organlari oldidagi asosiy majburiyatlariga, odatda, quyidagilar kiradi: ularni tashkil etish uchun ruxsat olish zarurati, yillik hisobotni taqdim etish zarurati va yillik auditorlik hisoboti, qonun hujjatlarida va (yoki) jamiyat ustavida belgilangan yaxshi xulq-atvor talablariga rioya qilish zarurati va boshqalar.

Ba'zi mamlakatlarda jamoaviy boshqaruv tashkilotlari bevosita nazorat qilinadi. Bu, masalan, Germaniyada Patent idorasi bunday nazorat funksiyasiga ega bo'lgan organ. Boshqa mamlakatlarda, masalan, Shveysariya va Daniyada bo'lgani kabi, hukumat tariflarni tasdiqlaydi. Bunday jamiyatlar faoliyatini nazorat qilishning yana bir usuli bu raqobat qonunidir. Bu jamiyatlarning bozordagi de-fakto (yoki de-yure) hukmron mavqeini suiiste'mol qilishining oldini olishga qaratilgan¹.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida hukumat darajasida jamiyatlar faoliyatini nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlarini quyidagicha guruhlash mumkin: Belgiya, Lyuksemburgda Iqtisodiyot vazirligi, Chexiya, Fransiya, Gretsiya, Vengriya, Italiya, Latviya, Litva, Polsha, Portugaliya, Slovakiya, Ispaniyada Madaniyat vazirligi, Vengriyada (talab bo'yicha tariflar uchun mas'ul organ) Informatika va telekommunikatsiyalar vazirligi, Italiya (yillik hisob va moliyaviy jihatlarni taqdim etish) va Latviyada (yillik hisob va moliyaviy jihatlarni taqdim etish) Moliya vazirligi jamiyatlar faoliyatini nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari hisoblanadi.

Jamiyatlar ustidan nazoratni vazirlik darajasidagi organlar amalga oshirmasa, jamiyatlar faoliyatini nazorat qilish vazifasi boshqa organlarga yuklanadi. Masalan, Germaniyada nazoratni Germaniya Patent va tovar belgilari idorasi (DPMA) Federal

¹ Henry Olsson. The importance of collective management of copyright and related rights // URL: https://www.wipo.int/edocs/mdocs/arab/en/wipo_cr_krt_05/wipo_cr_krt_05_4.pdf

Kartel idorasi (Bundeskartellamt) bilan hamkorlikda amalga oshiradi, Irlandiyada nazorat Patent dizaynlari va tovar belgilari bo‘yicha nazoratchi tomonidan amalga oshiriladi. Sloveniyada esa Iqtisodiyot vazirligi huzurida tashkil etilgan Intellektual mulk milliy idorasi jamiyatlari faoliyatini nazorat qilish uchun javobgardir. Chexiya, Gretsiya va Slovakiyada nazorat organi, agar ular qonunda belgilangan majburiyatlarga rioya qilmasa, jamiyatlarga jarima solishga haqli. Vazirlik darajasidagi nazorat organi tashkil etilgan barcha hollarda, u jamiyatga o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilish huquqiga ega. Bu Avstriya, Germaniya, Malta va Sloveniyada ham mavjud.

Umuman olganda, jamiyatlar Shimoliy Yevropada (Skandinaviya mamlakatlari, Finlyandiya, Irlandiya, Buyuk Britaniya) ham shaffoflik talablari, ham tashqi organlar tomonidan nazorat qilish bo‘yicha kamroq qat’iy qonunchilik qoidalariga bo‘ysunadi. Ushbu mamlakatlarda jamiyatlarning javobgarligi odatda jamiyatning o‘z nizomi, a‘zolar va foydalanuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat, shuningdek, umumiy amaliyot bilan bog‘liq. Markaziy Sharqiy Yevropa mamlakatlari va janubiy Yevropa mamlakatlari jamiyatlar faoliyatining ko‘p jihatlarni qamrab oluvchi batafsilroq qonunchilik qoidalari bilan ajralib turadi. Bu mamlakatlarda nazorat va monitoring odatda davlat organlariga yuklanadi.

Jamoaviy boshqaruvchi jamiyatlar faoliyatidagi javobgarlik va nazoratni quyidagicha umumlashtirish mumkin: butun Yevropada huquqlarni jamoaviy boshqarish milliy qonunchilik va jamiyat nizomlarida belgilangan boshqaruv, hisobdorlik, shaffoflik, jamiyatlar faoliyatini monitoring qilish va nazorat qilish kabi jihatlarni qamrab olgan bir qator qoidalarga bo‘ysunadi. Jamiyatlarning faoliyati uchun qo‘yiladigan talablar darajasi a‘zo davlatlarda farq qiladi, lekin ko‘pchilik jamiyatlar hech bo‘lmaganda o‘zlarining yillik hisobotlari va ma‘lumotlarini ommaga e‘lon qilish zarurati bilan bog‘liq asosiy shaffoflik qoidalariga bo‘ysunadilar.

Shuningdek, davlatlarning bu sohadagi qonunchiligiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ayrim mamlakatlarda mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish bo‘yicha maxsus qonun hujjatlari qabul qilingan. Masalan, Ukrainada (“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasidagi huquq egalarining mulkiy huquqlarini samarali boshqarish to‘g‘risida”gi Qonun)¹, Finlandiyada (“Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish to‘g‘risida”gi Qonun)², Yaponiyada (“Mualliflik

¹ Law of Ukraine No. 2415-VIII of May 15, 2018, on Efficient Management of Property Rights of Right Holders in the Sphere of Copyright and Related Rights // URL: <https://wipolex.wipo.int/en/legislation/details/18415>

² Act on Collective Management of Copyright (Act No. 1494/2016 of December 29, 2016) // URL: <https://wipolex.wipo.int/en/legislation/details/16607>

huquqi va turdosh huquqlarni boshqarish to‘g‘risida”gi Qonun)¹, Germaniyada (“Jamoaviy jamiyatlar tomonidan mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni boshqarish to‘g‘risida”gi Qonun)².

Yaponiyada 2001-yil 1-oktabrdan boshlab “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni boshqarish to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirdi. Qonunda mualliflik huquqini boshqarish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni ro‘yxatga olish tizimi joriy etilgan bo‘lib, unda bunday tadbirkorlik subyektlarining adolatli faoliyatini ta‘minlash, asarlardan foydalanishga ko‘maklashish ko‘zda tutilgan.

Germaniya esa avvalroq mualliflik huquqini yuqori darajada himoya qilgan va mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish uchun alohida qonunchilik rejimini qabul qilgan mamlakatlardan biridir. Germaniyada tashkil etilgan “Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish to‘g‘risida”gi qonun mualliflik huquqini boshqaruvchi tashkilotlarning de-fakto monopolistik maqomini tan oladi va unda nazarda tutilgan majburiy jamoaviy boshqaruv rejimi quyidagilardan iborat: birinchidan, monopoliya hukmron, lekin maxsus sohalarda raqobat o‘tkazishga ruxsat etiladi. Ikkinchidan, davlat aralashuvi darajasi nisbatan yuqori va jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining muayyan boshqaruv faoliyatida Germaniya hukumatining ma‘muriy bo‘linmalari tomonidan ko‘pincha nazorat mavjud.

Finlyandiyada mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish 2017-yil 1-yanvardan kuchga kirgan “Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish to‘g‘risida”gi qonuni bilan tartibga solinadi. Finlyandiyadagi barcha jamoaviy boshqaruv tashkilotlar notijorat tashkilotlardir va shuning uchun Finlyandiya Assotsiatsiyalari qonuniga bo‘ysunadi³. Finlyandiyaning raqobat to‘g‘risidagi qonuni⁴ ham ularning faoliyatiga muhim ta‘sir ko‘rsatadi: Finlyandiyada har bir ish yoki huquq turi uchun faqat bitta jamoaviy boshqaruvchi tashkilot mavjud bo‘lib, ular amalda bozorda ustunlik qiladi. Shu jihatdan, iste‘molchilar va raqobat organlari ularning faoliyatini nazorat qiladi.

Mamlakatimizda esa mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi. 2022-yilning mart oyiga qadar Intellektual mulk agentligi

¹ Act on management business of copyright and neighboring rights (Act no. 131 of November 29, 2000, as amended up to Act no. 28 of may 2, 2008) // URL: <https://wipolex.wipo.int/en/legislation/details/6580>

² Act on the Management of Copyright and Related Rights by Collecting Societies (Collecting Societies Act, as amended up to Act of June 1, 2017) // URL: <https://wipolex.wipo.int/en/legislation/details/17616>

³ Act 503/1989. // URL: <https://www.prh.fi/en/yhdistysrekisteri/act.html>

⁴ Act 948/2011. // URL: <https://www.kkv.fi/en/facts-and-advice/competition-affairs/legislation-and-guidelines/competition-act/>

mamlakatimizda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish maxsus vakolatli davlat organi hisoblanar edi. Prezidentimizning 2022-yil 17-martdagi PF-89-son Farmoniga ko‘ra Intellektual mulk agentligi va uning hududiy markazlarini vazifa, funktsiya va vakolatlarini Adliya vazirligiga o‘tkazgan holda qo‘shib olindi hamda vazirlikda Intellektual mulk departamenti tashkil etildi¹. Shuningdek, intellektual mulkni huquqiy muhofaza va himoya qilish yo‘nalishida Adliya vazirligiga intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish hamda ixtirolar, tovar belgilari, mualliflik huquqi va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish va ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish hamda intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarga jarima qo‘llash kabi qo‘shimcha vazifa va vakolatlar yuklatildi.

Yurtimizdagi amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan, bu sohada ko‘pgina muammo va kamchiliklar mavjud. Bu muammo va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida qonunchiligimizda jamoaviy tashkilotlar faoliyatining maqsadi va tamoyillari, tashkilot manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yuritadigan huquq egalarning toifalari, tashkilotga a‘zolik shartlari, umumiy yig‘ilishning vakolatlari, tartibi va davriyligi, tashkilotning ijro etuvchi, nazorat organlarini tashkil etish tartibi va vakolatlari, tashkilotning ijro etuvchi va nazorat qiluvchi organlarining hisobot berish tartibi, tashkilotning ijroiya va nazorat organlarining qarorlari ustidan shikoyat qilish tartibi kabi masalalarni aniq va qat’iy belgilab qo‘yish.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.03.2022-dagi “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-89-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5914998>

**UMARALIEV VALI
IRSALIEV ZOIR
RUZMATOV SHAXRUX**

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, yuridik fanlar nomzodi, dotsent;
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti jamoat havfsizligini huquqiy ta‘minlash yo‘nalishi magistranti;
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti jamoat havfsizligini huquqiy ta‘minlash yo‘nalishi magistranti.

O‘ZBEKISTON VA BMT: O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI. HOZIRGI DAVRDA MULK HUQUQINI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya: Maqolada mulk huquqi bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarning huquqiy rejimi masalalari yoritilgan bo‘lib, jumladan, ushbu munosabatlarni tartibga solish, mulkdorlarga tegishli kafolatlar, preferensiyalar berish, shuningdek, mulk huquqi sub‘ektlarining huquqlarini turli tajovuzlardan muhofaza qilish, uning amaldagi qonunchilik bo‘yicha daxlsizligini ta‘minlash masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy rejim, mulk, mulk huquqi, qonun, kodeks, iqtisod, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, tartibga solish, tajovuz, dahlsizlik, kafolatlar.

Annotation: This article discusses issues related to the legal framework for the protection of property rights at the present stage of development of our society. It analyzes the legal regime of social relations that are directly related to the right of ownership, issues of their legal regulation. Also, some aspects of providing guarantees to owners and ensuring immunity, as well as their protection from various encroachments.

Key words: legal regime, property, property law, law, code, economy, society, public relations, regulation procedure, encroachment, immunity, guarantees.

Mulk har bir jamiyatning iqtisodiy asosi bo‘lib hisoblanali. U jamiyatning bevosita iqtisodiy formatsiyasini, siyosiy tuzilishini belgilaydi. Mulk masalalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida belgilanigandek, - bozor

munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi.

Davlat istemolchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi dahlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibidagina mahrum etilishi mumkin [1].

Ta’kidlash kerakki, - mulk mazmunini iqtisodiy hokimiyat ham tashkil etadi va asosan ikki tomonlama xarakterga egadir, ya’ni, bir tomondan, iqtisodiy hodisa bo’lsa, ikkinchi tomondan, yuridik voqelikdir.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, davlatimiz tomonidan mulkchilikka oid, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli 53-54-moddalari, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari mulkning barcha shakllari, mulkdorlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy asoslar majmuasini tashkil etadi.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 30 oktyabrda qabul qilingan “Mulk to‘g‘risida”gi qonuni, 1997 yil 1 martdan kuchga kirgan Fuqarolik kodeksi, 2012 yil 24 sentyabrdagi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” gi qonuni, 2015 yil 21 iyundagi “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tabirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4725-son farmoni qabul qilinishi munosabati bilan, O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonun, bevosita mulkdorlarning qonuniy mafaatlari himoya qilishga qaratilgandir [2].

Ta’kidlash lozimki, 2016-2022 yillar davrida xususiy mulk va mulkdorlar huquqlarini himoya qilish yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan qabul qilingan o‘nlab farmonlar, qarorlar, jumladan, 2022 yil 24 avgustda qabul qilingan “Mulk huquqining daxlsizligi ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoniga asosan, 2022 yil 22 avgustda o‘tkazilgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqot doirasida belgilangan mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasini yaratish, ushbu huquqlarni cheklayotgan omillarni bartaraf etish bo‘yicha vazifalar ijrosini ta’minlash

maqsadida, mulk huquqini daxlsizligini ta’minlashning yangi kafolatlari belgilandi [3].

Jumladan, mulk egalari tomonidan yer uchastkalariga bo’lgan huquqlardan foydalanish, ya’ni ixtiyoriy ravishda yer uchastkasidan voz kechish tartibi, yuridik shaxs tugatilishi munosabati bilan, qishloq xo’jaligi yerlaridan tashqarida bo’lgan huquqlarini bekor qilish, ko’chmas mulk ob’ektlariga bo’lgan huquqlarning davlat reestri tizimini shakllantirish, jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlar kompensatsiya qilish bo’yicha hududiy maqsadli jamg’armalar tuzish, kompensatsiya bo’yicha amalga oshirilgan to’lovlar, keyinchalik aybdor shaxslardan regress tartibida undiriladi va yana bir qator choralar belgilangan.

Albatta, hozirga davrda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 apreldagi PF 5064-sonli farmoniga ko’ra, yangi tahrirdagi Fuqarolik kodeksi loyihasi ishlab chiqildi. Bu loyiha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan ko’rib chiqilib, yuqori palata senatorlari uni ma’qullaganidan so’ng qabul qilinadi.

Amaldagi Fuqarolik kodeksining II bo’limi bevosita mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarga tegishli munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo’lib, 13-19 boblarda mulk huquqiga tegishli 164-223-moddalar belgilangandir, jumladan, 19- bobdagi 228-233-moddalar esa, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni fuqaroviy-xuquqiy himoya qilishga bag’ishlangan.

“Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi qonunning 8-moddasiga asosan [4], xususiy mulk huquqini himoya qilishning bir qator usullari mustahkamlab qo’yilgan.

Jumladan, ular qatoriga quyidagilar kiradi – xususiy mulk huquqini tan olish, xususiy mulk huquqi buzilishidan oldingi holatini tiklash va xususiy mulk huquqini buzilishi yoki uning buzilishi xavfini tug’diradigan harakatlarning oldini olish, davlat organining va boshqa organning qabul qilgan hujjatini haqiqiy emas deb topish, mulkdorga yetkazilgan zararni undirish, ma’naviy zararni undirish va boshqalar.

Bundan tashqari, fuqarolik huquqi normalari bilan mulk huquqini himoya qilish usullariga – mulkni birovning noqonuniy egallashidan talab qilib olish, ya’ni vindikatsion da’volar qo’zg’atish orqali, - mulkdorning huquqlarini egalik qilishdan mahrum qilishga qaratilgan tajovuzlarning oldini olish, ya’ni negator da’volar qo’zg’atish yo’li bilan amalga oshiriladi.

Mulk huquqini buzishga qaratilgan g'ayriqonuniy shartnoma va bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risida qarorlar chiqarish orqali qo'riqlash, asossiz olib qo'yilgan mulkni uning haqiqiy egasiga qaytarish yo'li bilan qo'riqlash ham asosiy usullar doirasiga kiradi.

Fuqarolik kodeksida mulk huquqini himoya qilinishining kuchaytirilishini ta'minlovchi bir qancha, muhim ahamiyatga ega bo'lgan qoidalar mustahkamlanganligi e'tiborga savzovordir.

Xususan, mulk egasi mulkini yo'qotgan yoki o'g'irlatgan hollarda uni topib, insofli egallovchidan talab qilib olishdan tashqari yana mulk egasi ixtiyoridan tashqari bo'lgan mulk egaligi qo'lidan ketgan taqdirda ham, o'z mulkini talab qilib olishi mumkin.

Shuningdek, mulk boshqa shaxslarga ishonib topshirib qo'yilganida ixtiyoridan tashqari qo'lidan chiqib ketib bo'lgan taqdirda ham, u mulkni insofli egallovchidan talab qilish huquqiga egadir.

Agarda mulk boshqa shaxsga topshirish huquqiga ega bo'lmagan shaxsdan tekinga olingan bo'lsa, bu holda mulk egasi har qanday holatda ham o'z mulkini qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi.

Sud amaliyoti shundan dalolat beradiki, hozirgi davrda mulk huquqini himoya qilishga qaratilgan da'volar ichida vindikatsion da'volar (mulkni noqonuniy egallash) hajmi ko'proq uchraydi, negator da'volar (mulk huquqi buzilishini oldini olish) esa, aksincha kamroq uchraydi.

Biroq, bundan mulk egalarining huquqlarini himoya qiluvchi normalar o'z ahamiyatini yo'qotgan degan noto'g'ri xulosa kelib chiqmasligi kerak.

Qayd qilish kerakki, ming afsus, amaliyotda ba'zi hollarda mulk huquqi kafolatlariga qarama-qarshi bo'lgan qoidalar ham uchrab turadi. Masalan, 2004 yil 26 avgustda qabul qilingan “Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi qonunning 19-moddasida fermer xo'jaligining mulk huquqi davlat himoyasidadir deb belgilangan [5]. Unga asosan, bino, inshootlar, ekinzorlar, chorva mollari, yetishtirilgan mahsulotlar, transport vositalari ushbu fermer xo'jaliklariga tegishlidir.

Biroq, ta'kidlash lozimki, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18 dekabdagi 1012-sonli qarori tasdiqlangan, jumladan, iqtisodiy jihatdan samaradorligi past, kam hosil beradigan ekinzorlarni foydasiz deb tan olish tartibi to'g'risidagi nizomda belgilangan talablar fermerlarning mulk huquqlarini buzilishiga olib kelmoqda.

Yuqorida qayd etilgan nizomga asosan, fermer ho‘jaliklari yoki boshqa shakldagi qishloq xo‘jaligidagi tadbirkorlik sub‘ektlariga qarashli bo‘lgan – iqtisodiy jihatdan samarasiz, ya‘ni kam hosillik bog‘lar, ekinzorlarni foydasiz deb belgilash va boshqa kategoriyadagi yerlar toifasiga o‘tkazish tuman hokimliklari tomonidan, qishloq xo‘jalik vazirligi huzuridagi bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi, shuningdek, uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi bilan kelishilgan tarzda 6 oy muddatda amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu misoldan yaqqol ko‘rinib turibdiki, qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyati tashkil etilgan tadbirkorlik sub‘ektlariga tegishli bo‘lgan mulklar va ularga nisbatan mulkdorlarning huquqlari taqdiri tuman hokimliklari ixtiyoriga bog‘liq bo‘lib qolgan. Bu holat, o‘z navbatida mulk egalariining mulkiy huquqlari daxlsizligiga salbiy ta‘sirini o‘tkazib kelmoqda.

Agarda, biz horijiy davlatlarning bu sohadagi tajribasini tahlil qiladigan bo‘lsak, masalan, Xitoy Xalq Respublikasida, bir qator Yevropa davlatlarida – Fransiya, Ispaniya, Avstriya, Vengriyada ularda qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlariga asosan, mulkdorlarning mol-mulkiga tegishli yoki ularni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlariga aralashish man qilingandir.

Albatta, tan olish kerakki, turli sohalarda – iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsiyalarni jalb qilish, qishloq xo‘jaligida jadal sur‘atlar islohotlar olib borilmoqda. Bu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning tashabbusi bilan olib borilayotgan pragmatik, oqilona, xalqparvar siyosat o‘zining ijobiy natijalarini berayotganligiga har birimiz sezmoqdamiz va o‘z hayotimizda ulardan bahramand bo‘lmoqdamiz. Lekin, o‘zini vatanparvar deb hisoblaydigan har bir fuqaroni ushbu yo‘nalishda hali amalga oshirilishi lozim bo‘lgan juda katta ishlar kutmoqda.

Fikrimizning yaqqol dalili sifatida, Prezidentimizning 2022 yil 22 avgust kuni respublika tadbirkorlari bilan o‘tkazgan ochiq muloqotlarida misli ko‘rilmagan yangiliklar, tadbirkorlik sub‘ektlariga ularning faoliyatiga tegishli taqdim etilgan – hattoki, ertaklardagi kabi, ular tasavvur etolmagan imtiyozlar, preferensiyalar, yangi o‘zgarishlar, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, ularning qarzdorligidan voz kechish, soliq stavkalarining kamaytirilishi, eksport va import operatsiyalari bo‘yicha bojxona bojlari, 12 ta turli talablarning bekor qilinishi, ularni ma‘lum bir huquqlardan mahrum qilmaslikni belgilash, tadbirkorlarning yerga, mulkiga bo‘lgan huquqlarini ishonchli himoya qilish va eng asosiysi yer egalari, mulk egalariining huquqlari, faqatgina qonunda belgilangan holda va faqatgina sud qarori asosidagina chegaralanishi mumkinligi qat‘iy belgilandi.

Ishonchimiz komilki, bu global xarakterga ega bo'lgan yangi tartib-qoidalar qisqa muddat ichida amaldagi qonunchilik normalarda o'z aksini topadi.

Ta'kidlash lozimki, albatta bu yo'nalishda erishilgan ijobiy natijalar ham, amalga oshiriladigan vazifalar ham juda ko'p bo'lishi bilan birga qishloq xo'jaligida tadbirkorlar, fermerlarning asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer munosabatlari muhim ahamiyatga egadir, shu bilan bir qatorda, amaliyotda bu sohada hali ham bir qator muammolar ham mavjud ekanligi qayd qilish kerak.

Hozirgi davrda, paxta monopoliyasini qisqartirish orqali, o'n minglab gektar sermahsul yer maydonlari qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari va tadbirkorlik sub'ektlariga turli shakllarda rasmiylashtirib berilmoqda. Biroq, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga egalik qilish huquqining vujudga kelishi va uni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan bir qator muammolar dehqon-fermer xo'jaliklari tomonidan bunday yerlardan unumli foydalanishiga har doim ham imkoniyat bermaydi.

Masalan, “Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi qonunning 11-moddasiga ko'ra, dehqon-fermer xo'jaliklari faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan yer uchastkalari ochiq tanlov asosida ijaraga 50 yilgacha, biroq, 30 yildan kam bo'lmagan muddatga berilishi qayd qilingan [6].

Biroq, dehqon-fermer xo'jaliklari faoliyati yuritish amaliyotda yer maydogini ijaraga olish shartnomasi tuzish bilangina chegaralanib qolmoqda. Jumladan, ushbu qonunning 32-moddasida davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yoki yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun, shu jumladan, ajratilgan yer maydoni belgilangan maqsadlarda foydalanmaganligi hollarida, shuningdek, yekotraktatsiya shartnomasining shartlarida belgilangan mahsulotlar o'rniga, shartnomada ko'rsatilmagan mahsulotlar yetishtirilganda yer uchastkalarini majburan olib qo'yish zarurari kelib chiqqan taqdirda, yer uchastkasi ijarasi bo'yicha tomonlar o'rtasida tuzilgan ijara shartnomasi o'rnatilgan tartibda bekor qilinishi sababli, dehqon-fermer xo'jaligini tugatish masalasi belgilangan [7].

Agarda e'tibor beradigan bo'lsak, ushbu normada dehqon-fermer xo'jaligining tugatilishi va yer maydonini olib qo'yilishi negadir bir-biriga bog'lab qo'yilgan. Aslida, esa fermerlar kontraktatsiya shartlarini buzganligi uchun ijara shartnomasi bekor qilinishi va fermer xo'jaligi tugatilishi orqali emas, balki shartnomaviy qoidalar asosida tartibga solinishi kerak.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 53, 54-moddalariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yer maydonlari uzoq muddatli faqat fermer xo‘jaliklari va fuqarolarga dehqon xo‘jaligi shaklida yuridik shaxs tashkil etish sharti bilan ajratiladi. Biroq, ushbu norma boshqa shakldagi yuridik shaxslarning, (masalan, ma‘suliyati cheklangan jamiyatlar, aksiyadorlik jamiyatlari kabi) qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanish uchun uzoq muddatli ijaraga yer uchastkalariga ega bo‘lish imkoniyatini amaliyotda cheklamoqda.

Bu holat, o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi bo‘yicha yangi tadbirkorlik sub’ektlari va ularning mablag‘lari kirib kelishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga xulosa qilib, ta‘kidlash mumkinki, hozirga davrda mulk huquqini muhofaza qilish haqidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirilishi mulk egasining mulkka egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqidan o‘z hohishiga ko‘ra foydalana olishini, xususiy mulkni ishonchli himoyalaniishi va jumladan, mulkdorning mulkiy huquqlari buzilgan taqdirda, uni qayta tiklanishiga mustahkam huquqiy kafolatlarni vujudga keltirmoqda.

**ILXOMBEKOV JASURBEK
ILXOMBEK O‘G‘LI**

Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

O‘ZBEKISTONDA ISTIQLOL YILLARIGA QADAR BO‘LGAN DAVRDA AXBOROT ALMASHINUVINING RIVOJLANISH JARAYONI

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda istiqlol yillariga qadar bo‘lgan davrda axborot almashinuvining qisqacha tarixi aks etgan. Xususan, mustamlaka yillarida yurtimiz hududlarida nashr etilgan ilk axborot manbalari haqida batafsil to‘xtalib o‘tilgan. Bundan tashqari mamlakatimizda ilk bosma nashrlarning vujudga kelishi, gazetalar, jurnallarning omma e‘tiboriga havola etilish jarayonlari kabi masalalar o‘rganilgan. Maqolada Toshkentning televidenie vatani bo‘lishiga sabab bo‘lgan voqealar o‘rin olgan. O‘sha davr matbuotining aholiga asosiy urg‘u qaratilgan holda yetkazilgan axborotlari tahlil qilingan. Olimlarning o‘sha davr matbuoti va axborot almashinuviga oid fikrlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: axborot, gazeta, jurnallar, nashr, bosma nashrlar, matbuot, o‘zbek matbuoti, ommaviy axborot vositalari, huquq, tarix.

Axborot va telekommunikatsiyalar rivoji har bir davlat kelajagi hamda taraqqiyotining garovi hisoblanadi. Ana shu axborot erkinligini huquqiy jihatdan ta‘minlash, odamlarning o‘z fikr va g‘oyalarini, atrofdagi voqea-hodisalarga munosabatini erkin ifoda etadigan muhitni yaratish bugungi kunning dolzarb mavzularidan sanaladi. Zero, shunday muhitning yaratilishigina haqiqiy demokratiyaga yo‘l ochadi.

Axborot almashinuvining jadallashuvi, fuqarolarning global tarmoqdan foydalanish tempining yuqoriligi hamda masofadan turib interaktiv xizmatlardan foydalanishga ehtiyojning yuqoriligi, eng asosiysi esa axborotga bo‘lgan talab ortib borayotgan bir paytda, keng imkoniyatlar yaratib beradigan global telekommunikatsiya infratuzilmasini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bu borada ham mamlakatimizda istiqlol davridan boshlab muayyan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Avvalo, sohaning huquqiy bazasiga e‘tibor qaratildi va rivojlangan davlatlar tajribalarini o‘rganish boshlandi. Axborot erkinligi sohasining xalqaro huquqiy asoslari bu “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”,

“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar, boshqa davlatlar bilan axborot siyosatiga doir tuzgan bitim va shartnomalari hisoblanadi. Bundan tashqari ushbu sohani tartibga solishda milliy qonunchiligimizning o‘rni beqiyosdir.

Mazkur huquqiy hujjatlar axborotni izlash, olish, tarqatish jarayonlari va axborot sohasidagi faoliyatini bevosita yoki bilvosita tartibga soluvchi normalardir. Fuqarolik jamiyatini barpo etishning va o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirishning yo‘nalishlaridan biri sifatida amaldagi axborot mexanizmini, jumladan, ommaviy axborot vositalarini takomillashtirish nazarda tutiladi. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlariga xizmat qiladigan erkin muloqot usullari va an‘analari bor. Ulardan biri sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri efini hamda Internetdagi elektron ommaviy axborot vositalarini keltirib o‘tish mumkin. Fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida ommaviy axborot vositalari o‘z-o‘zini boshqarishning tarkibiy qismlaridan biriga aylanib boradi. Shu bois ma‘lum hududda yashovchi fuqarolarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri efinda, elektron va davriy bosma matbuot orqali o‘z fikrlarini, qarashlarini bayon etishlari, muloqotga, munozaraga kirishishlari odatiy va doimiy holatdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda axborot jamiyati shakllanishga ulgurdi. Lekin ushbu jamiyatning shakllangungacha bo‘lgan davri qanday kechgan edi. Shu bois mamlakatimizda axborot sohasining tarixiga nazar solsak maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Kishilik taraqqiyoti tarixida yozuvning ixtiro etilishi va natijada yozma adabiyotlarning paydo bo‘lishi axborot almashinuvida keskin burilish yasadi. Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” (1030 yil), Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” (1077 yil), Kaykovusning “Qobusnoma” (1082-1083 yillar), Muhammad Zahiriddin Boburning “Boburnoma” (1526-1529 yillar) kabi asarlarida ham jurnalistikaning ilk kurtaklarini kuzatish mumkin. Chunki ushbu nodir asarlarda o‘ziga xos publitsistik ruh mavjud bo‘lib, ularda o‘sha zamon tarixi, odamlarning hayoti, madaniyati, kundalik turmush tarzi atroflicha aks ettirilgan. Shu ma’noda o‘zbek jurnalistikasining tarixiy ildizlarini ming yillarga borib taqaladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.¹ Darhaqiqat, B.Alimovning fikrlarida jon bor. Chunki ana shu kabi asarlar o‘sha zamon va makon haqida ilk axborot manbalari hisoblanadi.

¹ Qarang: *Alimov B.* // O‘zbekiston jurnalistikasi: 150 yillik tarixga nazar. // Elektron manba: <http://beruniyalimov.uz/archives/654>

Fikrimizni chor Rossiyasi davrida bosilgan yurtimizdagi ilk gazetalar tarixi bilan davom ettiramiz. Bundan qariyb bir yarim asr oldin, aniqrog‘i 1870 yil 28 aprel (yangi taqvim bo‘yicha 10 may) kuni Toshkentda “Turkestanskije vedomosti” (“Turkiston vedomostlari”) gazetasining birinchi soni bosmadan chiqdi. Bu bilan nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi vaqtli matbuotiga tamal toshi qo‘yildi. Keyinchalik ushbu nashr o‘zbek tilida “Turkiston viloyatining gazetasi” nomi bilan ham chop etila boshlandi.¹

O‘sha davrda mamlakatimiz uchun ushbu voqea ajoyib natija edi. Zero, ushbu gazeta keyinchalik o‘zbek matbuotining, axborot tarqatishning va ulashishning ilk tamal toshi sifatida tarixda qoladi.

Tarixga nazar tashlasak, bu o‘sha davrdagi kishilik jamiyati taraqqiyotidagi tom ma‘nodagi olamshumul voqea bo‘lgan. Chunki ayrim hozirgi sanoati rivojlangan davlatlarda hali gazetachilikdan asar ham yo‘q edi. Misol uchun Yaponiyada ilk gazeta “Tokio Nichi Nichi Shimbun” (東京日日新聞) oradan ikki yil o‘tgandan keyingina – 1872 yilning 21 fevral kuni nashr etila boshlandi. Koreyada esa bizdan roppa-rosa o‘n uch yildan keyin, ya‘ni 1883 yilning 31 oktyabr kuni birinchi milliy gazeta “Xansonsunbo” (한성순보) dunyo yuzini ko‘rdi.²

Albatta, biz nomini keltirib o‘tgan gazetalar chor Rossiyasi manfaatlarini himoya qilgan. Ushbu nashrlarning vazifasi o‘lkadagi dehqonchilik, paxta yetishtirish, savdo-sotiq, yangi yerlarni o‘zlashtirish, sug‘orish masalalari, harbiylar hayoti va general-gubernatorning buyruq va farmoyishlari, shuningdek, mahalliy xalqni “ma‘rifatli” qilish bilan bog‘liq kundalik voqealarni aks ettirish edi. Chor Rossiyasi ushbu nashrlardan o‘z siyosatlarini yuritishda va uni oqlashda foydalanganlar.

Shu tariqa matbuotimiz sekin asta rivojlanib boradi. Ilk bosmaxona 1868 yilda Xivada ishga tushdi. Oradan ko‘p o‘tmay, xususiy bosmaxonalar ham yuzaga keldi. Dastlab 1877 yili Toshkentda, 1880 yili Samarqandda, 1882 yili Namanganda, 1887 yili Qo‘qonda shunday bosmaxonalar tashkil etildi. Shundan keyin, XIX asrning 80-90 yillariga kelib Turkistonda xususiy gazeta va jurnallar ham chop etila boshlandi. “Zakaspiyskoe obozrenie” (1895-1913), “Russkiy Turkestan” (1898-

¹ Qarang: Elektron manba: <https://www.uzanalytics.com/tarix/4042/>

² Qarang: Alimov B. // O‘zbekiston jurnalistikasi: 150 yillik tarixga nazar. // Elektron manba: <http://beruniyalimov.uz/archives/654>

1907), “Asxabad” (1899-1918), “Okraina” (1890-1898) gazetalarini “Sredneaziatskiy vestnik” (1896-1907), “Srednyaya Aziya” (1895-1896) jurnallari chiqib turgan.¹

Ushbu nashrlarning g’oyaviy qarashlari, albatta, o’sha davr siyosiy muhiti bilan bevosita bog’liq edi. Ular yoritgan mavzular esa turli xil bo’lib, mazkur jurnallar asosan rus tili hamda madaniyatini mahalliy aholi orasida keng tarqatishni o’z oldilariga maqsad qilib qo’ygan edilar.

Vaqt o’tgani sari asta sekinlik bilan mahalliy ziyolilar qatlami yuzaga kela boshlaydi. Ana shunday ziyolilar qatlami xalqning ongini o’stirishga va madaniy qatlamning o’sishiga hissa qo’shadilar. Ular mustamlakachilikdan xalos bo’lib, mustaqillikka erishish uchun, eng avvalo, mahalliy aholini ma’rifatli qilish, milliy ongni oshirish, o’zligini anglatish lozim, deb hisoblaydilar. Buning uchun esa milliy matbuotni tashkil etish masalasi juda muhim edi. Bu tarixiy vazifani jadidlar o’z zimmalariga oladilar. Shunday qilib, Turkiston jadidlari tomonidan ilk nashr dunyo yuzini ko’radi.

Birinchi jadidlar nashri – “Taraqqiy” gazetasi Toshkent shahrida Ismoil Obidov muharrirligida, 1906 yil 27 iyundan e’tiboran chop etila boshlangan. Aynan shu sababdan ham hozirgi kunda O’zbekistonda 27 iyun – “Matbuot va ommaviy axborot vositalari kuni” sifatida nishonlanadi. Albatta, bu davrga kelib Turkistonda o’ziga xos milliy matbuot paydo bo’lishining siyosiy-ijtimoiy omillari ko’p edi.² Shuning uchun ham mazkur sanani har yili eslashimiz bizga tarixdan bir saboq beradi.

Nashr etilgan “Taraqqiy” gazetasi milliy matbuotimizda gazetalar evolyusiyasini boshlab berdi. Ana shundan keyin birin ketin gazetalar chop etila boshlandi. Xususan, 1906 yilning avgust oyida Toshkent jadidlarining yetakchilaridan sanalgan Munavvar qori noshir va muharrirligida “Xurshid” gazetasini chiqarishga muvaffaq bo’ldi. Bu turkistonlik jadidlarning ikkinchi gazetasi edi. Bu gazeta ham “Taraqqiy” kabi mahalliy ziyolilarning mustaqillik, milliy ozodlik harakatlaridan o’quvchilarni xabardor qilib bordi. Ammo ko’p o’tmay ushbu vaqtli nashrlar hukumat tomonidan yopildi.

1907 yilning 1 dekabridan A. Avloniy muharrirligida “Shuhrat” degan gazeta chiqa boshlaydi. U ham “Taraqqiy” va “Xurshid” gazetalarining yo’lidan bordi. Ammo uning ham 10 ta soni chiqqandan keyin, hukumat tomonidan yopildi. 1908 yildan boshlab chiqa boshlagan “Osiyo” gazetasi beshta sondan keyin faoliyatini

¹ Qarang: F.f.n. Qosimova N., f.f.n. Toshpulatova N., Shofayziyeva N., Muratova N.. Bosma OAV tahririyatlari uchun o’quv qo’llanma // Toshkent-2008

² Qarang: Elektron manba: <https://www.uzanalytics.com/tarix/4042/>

to'xtatishga majbur bo'ldi. Faqat 1907 yilda Toshkentda chiqarilgan “Tujjor” gazetasi 36-sonidan keyin chiqmay qo'ydi. 1912 yil martdan to 1913 yil yanvargacha Buxoroda “Buxoroi sharif”, 1912 yil iyuldan 1913 yil yanvargacha “Turon” gazetalari chiqqan.¹

Ushbu gazetalar mahalliy aholini hurfikrlilikka chorlagan. Ushbu davrni biz Turkiston milliy matbuotning birinchi davri, deb ayta olamiz. Ushbu davrda mahalliy aholi vakillari gazeta chop etish malakasiga ega bo'ldilar va uning qudratni anglab yetdilar.

Ushbu gazetalar boshqa bosma nashrlar keng tarqalishiga zamin yaratdi. Buning natijasida, dastlab gazetalar Toshkent va Buxoroda nashr qilingan bo'lsa, keyinchalik bosma nashrlar Turkiston o'lkasining boshqa hududlariga ham yoyiladi.

Xususan, Samarqand va Farg'onada ham matbuot paydo bo'ldi. Shuningdek, gazetalar bilan birga jurnallar ham chiqa boshladi. 1913 yil aprel oyidan Samarqandda “Samarqand” gazetasi Mahmudxo'ja Behbudiy muharrirligida chiqa boshladi. Gazetaning jami 45 sonidan keyin moddiy tanglik tufayli faoliyati to'xtadi. 1914 yil aprel oyidan esa “Sadoi Turkiston” gazetasi Toshkentda advokat Ubaydulla Asadullaxo'jaev muharrirligida chiqqan. Bu gazeta jadidlarning eng obro'li gazetalaridan biri darajasiga ko'tarildi. Gazetaning 66-soni chiqqandan keyin 1915 yil aprel oyida to'xtatildi. Ushbu gazeta bilan bir paytda, ya'ni 1914 yil aprelda Qo'qonda “Sadoi Farg'ona” gazetasi ham chop etila boshlandi. Gazeta o'z oldiga o'lkadagi ijtimoiy hodisalarning mohiyatini xalqqa tushuntirish maqsadini qo'ygan edi va bu vazifani imkon darajasida amalga oshirgan. Gazetaning jami 122 ta soni chiqib, 1915 yilda yopiladi.²

Milliy matbuotimizning rivoji uning boshqa turlarini, xususan, jurnallarning nashr etilishini tezlashtirib yubordi va ushbu bosma tur ham rivojlana bordi. Ana shunday jurnallardan biri “Oyna” jurnali edi.

Jurnalning birinchi soni 1913 yil 20 avgustda Samarqandda chiqqan. Uning muharriri ham Mahmudxo'ja Behbudiy edi. Dastlab haftada bir marta, keyinroq o'n besh kunda bir marta chiqqan bu jurnal tez orada o'z o'quvchilarini topdi va ularning sevimli nashriga aylandi. U faqat Samarqand, Buxoro, umuman Turkistondagina emas, balki Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya kabi davlatlarga ham yetib bordi. “Oyna” jurnali 1915 yil iyun oyigacha

¹ Qarang: F.f.n. *Qosimova N.*, f.f.n. *Toshpulatova N.*, *Shofayzieva N.*, *Muratova N.*. Bosma OAV tahririyatlari uchun o'quv qo'llanma // Toshkent-2008

² Qarang: F.f.n. *Qosimova N.*, f.f.n. *Toshpulatova N.*, *Shofayzieva N.*, *Muratova N.*. Bosma OAV tahririyatlari uchun o'quv qo'llanma // Toshkent-2008

faoliyatda bo‘lib, jami 68 ta soni chiqqan. Shu yilning yanvar oyidan yana bir jurnal “Al-Isloh” faoliyatini boshlab, 1918 yilgacha chop etiladi.

1917 yil Rossiyada monarxiya tuzumi ag‘darilgandan so‘ng Turkistonda turli gazeta va jurnallar paydo bo‘ldi. Shulardan biri, bu “Najot” gazetasi bo‘lib, u 1917 yilda “Turkiston viloyatining gazetasi” o‘rniga muvaqqat hukumatning nashri sifatida chop etila boshlandi. Uning hammasi bo‘lib 20 ta soni chiqqan. Bu davrga kelib xususiy gazetalar, partiya va jamiyatlarning nashrlari ham chiqa boshladi. Jumladan, Namanganda (1917 martdan) “Farg‘ona sahifasi”, Toshkentda (1917 yil aprel-may oylaridan) “Farg‘ona nidosi”, Samarqandda (1917 apreldan) “Turon”, “Sho‘roi islom”, “Kengash”, “Hurriyat”, Qo‘qonda (1917 yil sentyabrdan) “El bayrog‘i” gazetalar hamda Qo‘qonda Hamza Hakimzoda Niyoziy muharrirligida “Kengash”, “Hurriyat”, keyinchalik iyun oyidan esa “Yurt” jurnallari chiqa boshladi. Mazkur gazeta va jurnallar Turkistonda ikki inqilob orasida dolzarb bo‘lgan masalalarni keng yoritdilar. 1917 yil 25 oktyabrda sho‘rolar hokimiyatni egallaganidan so‘ng, ular muholifatda bo‘lgan barcha gazeta va jurnallarni taqiqlab, boshqa sohalar qatorida matbuotni ham o‘z qo‘llariga oldilar hamda mahalliy xalq o‘rtasida o‘z mafkuralarini targ‘ib etishga xizmat qiladigan nashrlarini tashkil eta boshladilar. Shunday nashrlardan biri 1918 yilda Samarqandda “Mehnatkashlar o‘qi” nomi bilan chop etildi. Toshkentda esa shu yili “Ishtirokiyun” gazetasi chiqa boshladi. Shu bilan birga asta-sekin turli sohalar, ijtimoiy guruhlar (yoshlar, bolalar, o‘qituvchilar, shifokorlar, fan va madaniyat xodimlari va h.k) ham o‘z nashrlariga ega bo‘ldilar.¹

Shu tariqa matbuot o‘z yo‘lida davom etadi. Qayd etish kerak, sho‘rolar matbuotida janrlar taraqqiy eta boshlaydi, publitsist va muharrirlar davrga mos ravishda faoliyat yuritadi. Davr siyosiy muhitidan kelib chiqib, ilk marotaba xorijda o‘zbek matbuoti paydo bo‘ladi (“Yosh Turkiston”, Parij, 1929–1939).²

Albatta, xorijda o‘zbek matbuotining paydo bo‘lishi katta hodisa edi. Chunki, mustamlaka o‘laroq o‘sha davr ziyolilarining harakati bilan Yevropaning ko‘zga ko‘ringan va demokratiya o‘choqlaridan biri bo‘lgan davlatda o‘zbek nashrining paydo bo‘lishi matbuotning katta yutug‘i hisoblanadi.

Shu o‘rinda axborot sohasining muhim bo‘lagidan hisoblanadigan televideniening paydo bo‘lishiga to‘xtalsak. Jahon jurnalistikasi tarixida Toshkent televidenie vatani sifatida e‘tirof etiladi. Chunki dunyodagi ilk oq-qora tasvirli

¹ Qarang: F.f.n. *Qosimova N.*, f.f.n. *Toshpulatova N.*, *Shofayziyeva N.*, *Muratova N.*. Bosma OAV tahririyatlari uchun o‘quv qo‘llanma // Toshkent-2008

² Qarang: *Alimov B.* // O‘zbekiston jurnalistikasi: 150 yillik tarixga nazar. // Elektron manba: <http://beruniyalimov.uz/archives/654>

elektron televidenie tizimi loyihasi 1925 yilda aynan Toshkent shahrida faoliyat yuritgan olimlar B.Grabovskiy va I.Belyavskiylar tomonidan ishlab chiqilgan. Shu yili mazkur kashfiyot uchun patent ham olingan. 1928 yilda televizion tajriba qurilmasida harakatlanuvchi (oddiy) ob’ektlar namoyish etilgan.¹

Shu tariqa o’zbek matbuotining rivojiga hissa qo’shgan televideniyaning yaratilishi nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosidagi olamshumul voqeaga aylandi. Ana shunday rivojlanish asnosida o’zbek milliy matbuotining tub burilish davri ikkinchi jahon urushiga to’g’ri keldi. Umuman, sho’rolar matbuotining urush davri faoliyatiga qisqacha tavsif beradigan bo’lsak, bu vaqtda frontda o’zbek tilidagi qator nashrlar, xususan, “Dushmanga qarshi olg’a”, “Suvorovchi”, “Vatan uchun”, “Front haqiqati”, “Qizil askar haqiqati”, “Vatan sharafi uchun” gazetalarining ham tarqatilganini aytib o’tish o’rinlidir.

Urushdan keyingi – mamlakat xalq xo’jaligini tiklash, “sotsializm qurilishi uzil-kesil va to’la g’alaba qilishi”ni ta’minlashda matbuotning vazifasi oshib boradi. Turg’unlik yillarida sho’ro ommaviy axborot vositalari sistemasi takomillashadi.

Sobiq sho’ro tuzumi davrida O’zbekistonda davriy matbuot tarmog’i respublika, viloyat va tuman miqyosida chiqadigan umumsiyosiy va tarmoq gazetolari, shuningdek, yangi jurnallar hisobiga kengayadi. Ayni paytda radiojurnalistika va telejurnalistika ham tarkib topa boradi. Lekin ular mustabid tuzum ko’zlagan siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy maqsadlarga xizmat qilishga mahkum edilar.

O’zbekistonda teleko’rsatuvlarni rasmiy ravishda efirga uzatish 1956 yil 5 noyabrdan boshlangan. Xuddi shu paytda Toshkent televidenie studiyasi tashkil etilgan. “Qayta qurish” davrida (1980 yillar o’rtalaridan) esa OAV o’ta siyosiy lashib ketadi. Keyinchalik kommunistlar partiyasiga xizmat qiladigan sho’ro matbuoti barham topa boshlaydi.²

Bularning barchasi tarix, albatta. Lekin axborot sohasidagi tub burilish davri istiqloq yillariga to’g’ri keladi. Zero, ushbu davrda rivojlanish tendensiyalari bevosita qonun hujjatlarining ushbu sohani qamrab olganligi bilan bog’liq.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, axborotni to’plash va tarqatish sohasi zaminimizda azaldan taraqqiy etib kelgan. Ulug’ allomalarimizning bir necha asr avval yozgan nodir asarlari (Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston”, Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’atit turk”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Muhammad

¹ Qarang: Elektron manba: <https://www.uzanalytics.com/tarix/4042/>

² Qarang: Alimov B. // O’zbekiston jurnalistikasi: 150 yillik tarixga nazar. // Elektron manba: <http://beruniyalimov.uz/archives/654>

Zahiriddin Boburning “Boburnoma”) bizga o’sha davr ruhiyatini, insonlarning hayotini va turmush tarzlarini qay yo’sinda olib borganliklari haqidagi ma’lumotlarni beradi.

Demak, istiqlol yillariga qadar axborot sohasi yurtimizda mana shu ko’rinishda asta sekinlik bilan rivojlanib keldi. Bundan ko’rinib turibdiki, zaminimiz qadimdan axborot ulashish masalasida boshqa davlatlardan orqada qolmagan. Ayniqsa, zamonaviy axborot tashuvchilarning, xususan gazetalarning yurtimiz xududlarida nashr etilgani esa bunga yaqqol isbot bo’la oladi. Ayniqsa, hozirgi har tomonlama taraqqiy etgan demokratik davlatlardan ham oldinroq bosma nashrning, xususan gazetalarning (1870 yil 28 aprel “Turkestanskie vedomosti” (“Turkiston vedomostlari”)) chop etilishi fikrimiz isbotidir. Bundan tashqari, Yevropaning rivojlangan demokratik davlatlarida ilk o’zbek nashrining (“Yosh Turkiston”, Parij, 1929–1939) paydo bo’lishi esa tarixiy natijadir. Televideniya vatani sifatida azim poytaxtimiz Toshkentning e’tirof etilishi (1928 yilda televizion tajriba qurilmasida harakatlanuvchi (oddiy) ob’ektlar namoyish etilgan) esa mamlakatimizning zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishiga qo’shgan hissasi yuqoriligi bilan ham e’tirof etishga loyiqligini isbotlaydi.

**QOBILOV PO‘LAT
FAXRIDDIN O‘G‘LI**

**Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi**

INTELLEKTUAL MULKKA NISBATAN HUQUQLARNI BOSHQARISH AMALIYOTI: HUQUQLARNI O‘TKAZISH VA LITSENZIYALASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish usullari, xususan, intellektual mulkka doir huquqlarni uchinchi shaxsga o‘tkazish (huquqlardan voz kechish) va litsenziyalash masalalari, intellektual mulkni tijoratlashtirishni boshqarish tartibi va amaliyoti o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishga doir statistik ma’lumotlar ham aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: intellektual mulk, litsenziya, huquqlarni o‘tkazish, tijoratlashtirish, shartnoma, intellektual mulkni boshqarish.

Intellektual faoliyat natijalarining mualliflari (huquq egalari) ana shu natijalarga nisbatan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘ladi. O‘z navbatida, muallif (huquq egasi)ga mutlaq huquq asosida tegishli bo‘lgan intellektual mulk obyektlaridan boshqa shaxslarning foydalanishiga faqat uning ruxsati bilan yo‘l qo‘yiladi. Shunga muvofiq, intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquq egasi bu huquqni boshqa shaxsga to‘liq yoki qisman o‘tkazishga, intellektual mulk obyektidan boshqa shaxs foydalanishiga ruxsat berishga haqli.

Intellektual mulkka bo‘lgan huquqni uchinchi shaxsga to‘liq o‘tkazib berish mulkdorning intellektual mulkdan o‘z biznesida foydalanishdan voz kechishini anglatadi. Ya’ni intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarni o‘tkazib berishda huquqlarni oluvchi (assignee) o‘tkazib beruvchi (assignor)ga tegishli bo‘lgan intellektual mulk huquqlarini sotib oladi, bunda o‘tkazib beruvchi huquqlarni sotib olgan shaxsdan litsenziyani qaytarib olishi ham mumkin (intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarni qisman o‘tkazib berish bundan mustasno) [1].

Texnologiyalar transferi – bu tijoratlashtirish elementi bo‘lib, unda litsenziat intellektual mulk obyektiga (litsenziar) o‘zaro kelishilgan shartnomaviy shartlarda belgilangan shakl va miqdorlarda haq to‘laydi.

Intellektual mulk huquqini o'tkazib berish bunday huquqlarni sotish orqali yoki transfer shaklida (to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy tovon bilan yoki tovonsiz) amalga oshirilishi mumkin. Patent qonunchiligi intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni o'tkazib berish munosabatlarini to'g'ri va samarali yo'lga qo'yish uchun bunday o'tkazib berish yozma shaklda rasmiylashtirilishni talab qiladi. Shundan kelib chiqib, odatda, intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni o'tkazib berish shartnoma yoki dalolatnoma shaklida rasmiylashtiriladi. Buning sababi transfer taraflarining quyidagi xohishlarida ko'rinadi:

- intellektual mulkka bo'lgan huquqni o'tkazib berishda transferga qo'shimcha ravishda litsenziyani oluvchiga qaytarib berish, intellektual mulkka nisbatan kafolatlar, savdoni cheklash to'g'risida shartni va shu kabi boshqa shartlarni kiritish;

- intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni to'liq o'tkazib berish xohishini aniq hujjatda aks ettirish.

Intellektual mulkka oid mutlaq litsenziya va intellektual mulk huquqini o'tkazib berish natijalari o'rtasida farq mavjud bo'lib, bunday farq transfer shartlarini belgilab beruvchi hujjat mazmunidan kelib chiqib aniqlanadi. Bunda shartnomaning mazmuni va shartlarini belgilashda huquqbuzarlarga qarshi da'vo kiritish huquqi rad qilinganligi, shuningdek muayyan shartlar asosida yoki eng so'nggi muddatlarda intellektual mulk afzalliklaridan foydalanish huquqi berilganligi kabilar ta'sir qilishi mumkin.

Ma'lumki, milliy qonunchilikka ko'ra intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni o'tkazish to'g'risidagi va ulardan foydalanish bo'yicha litsenziya shartnomalari vakolatli organ (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi)da rasmiy ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Ayni ushbu qoida intellektual mulk sohasiga doir mamlakatimiz qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2022-yil 31-martda tasdiqlangan 8-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Qoidalarda ham o'z aksini topgan [2].

O'zbekiston Respublikasining «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida»gi Qonuni 11-moddasi, «Seleksiya yutuqlari to'g'risida»gi Qonuni 38-moddasi, «Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida»gi Qonuni 30-moddasi, «Integral mikrosxemalar topologiyalarining huquqiy muhofazasi to'g'risida»gi Qonuni 15-moddasi, «Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy

muhofazasi to‘g‘risida”gi Qonuni 9-moddasiga muvofiq quyidagi shartnomalar Departamentda ro‘yxatga olinadi:

- ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug‘iga berilgan patentni berish to‘g‘risidagi shartnoma;
- ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug‘idan foydalanish to‘g‘risidagi litsenziya shartnomasi (sublitsenziya shartnomasi);
- O‘zbekiston Respublikasida muhofaza qilinayotgan tovar belgisiga bo‘lgan huquqni o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnoma;
- O‘zbekiston Respublikasida muhofaza qilinayotgan tovar belgisidan foydalanish to‘g‘risidagi litsenziya shartnomasi (sublitsenziya shartnomasi).
- ro‘yxatga olingan elektron hisoblash mashinalari uchun dastur yoki ma’lumotlar bazasiga bo‘lgan barcha mulkiy huquqlarni to‘liq yoki qisman berish to‘g‘risidagi shartnoma;
- integral mikroshemalar topologiyalariga bo‘lgan huquqni to‘liq yoki qisman o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnoma.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1034-moddasiga ko‘ra intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mulkiy huquqlar egasiga ana shu intellektual mulk obyektidan o‘z xohishiga binoan har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqi tegishli bo‘ladi. Huquq egasiga mutlaq huquq asosida tegishli bo‘lgan intellektual mulk obyektlaridan boshqa shaxslarning foydalanishiga faqat huquq egasining ruxsati bilan yo‘l qo‘yiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, intellektual mulkka nisbatan mutlaq huquq tushunchasi quyidagi harakatlarni o‘z ichiga oladi:

- intellektual faoliyat natijasi (ixtiro, foydali model, sanoat namunasi)da yaratilgan biron-bir tovarni tayyorlash, sotish, foydalanish va uni davlat hududi orqali tarqatish imkoniyati;
- belgilangan tartibda patent olingan texnologiya, metodologiya, usul yordamida mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati;
- patent bilan muhofazalangan texnologiyadan foydalanish imkoniyati.

Intellektual faoliyat natijalari turli usullar orqali uchinchi shaxslarga o‘tkazilib, bunda ushbu o‘tkazish tijorat va notijorat turlarga bo‘linadi. Ushbu usullar o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘ladi. Odatda, notijoriy usulda ilmiy-texnik axborotni o‘zaro almashish yoki berish yoxud boshqa hamkorlik darajasida bo‘lishi mumkin.

*Intellektual mulk obyektlariga doir huquqlarni to‘liq yoki qisman berish to‘g‘risidagi shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazilganlik statistikasi
(intellektual mulk obyektlari kesimida)*

Intellektual mulk obyekti nomi	2018-yil	2019-yil	2020-yil	Jami
Huquqlarni o‘tkazishga doir shartnomalar				
Ixtiro	4	8	4	16
Foydali model	1	2	-	3
Tovar belgisi	102	164	139	404
EHM uchun yaratilgan dastur va ma’lumotlar bazasi	7	4	3	15
Jami:	114	178	146	438

Shartnomalarni ro‘yxatga olish uchun vakolatli organ (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi)ga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

a) shartnomani ro‘yxatga olish uchun ariza.

Ariza Qoidalarda keltirilgan shaklda o‘zbek yoki rus tilida bir nusxada topshiriladi. Xorijiy ismlar va korxonalarining nomlari o‘zbekcha yoki ruscha transliteratsiyada keltiriladi. Ariza bitta shartnomaga tegishli bo‘lishi kerak.

Agar patent egalari (huquq egalari)ning boshqa shaxsga litsenziyani taqdim etish yoki huquqni topshirishga roziligi taqdim etilayotgan boshqa biron hujjatda qayd etilmagan bo‘lsa, ariza ularning hammalari tomonidan imzolanadi.

Yuridik shaxs tomonidan ariza korxonaga, tashkilot rahbari tomonidan yoki bunga vakolatli shaxs tomonidan, uning lavozimi ko‘rsatilgan holda, imzolanadi. Imzo muhr bilan tasdiqlanadi. Imzolar imzo qo‘yayotgan shaxslarning familiyasi va ismi va otasi ismlarining bosh harflari ko‘rsatilgan holda ochib beriladi.

b) belgilangan tartibda tasdiqlangan shartnoma yoki shartnomadan ko‘chirma uch nusxada.

Shartnoma varaqlari tikilgan, raqamlangan bo‘lishi, va ularda tuzatishlar, qo‘shimcha yozuvlar, o‘chirilgan so‘zlar va boshqa olingan kelishilmagan to‘g‘rilashlar bo‘lishi kerak emas.

Shartnomada quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

- aniq ko‘rsatilgan shartnoma tomonlari;

- shartnoma predmeti (muhofaza hujjatining raqami, tovar belgisining xalqaro ro'yxatga olish raqami);
- huquqni topshirish turi;
- litsenziya shartnomasi bo'yicha topshirilayotgan huquqlar hajmi;
- shartnomaning amal qilish hududi;
- shartnomaning amal qilish muddati;
- mukofot miqdori (yoki bu borada kelishuv mavjudligini tasdiqlaydigan qoida).

Tovar belgisiga taalluqli litsenziya shartnomasida litsenziat tovarlarining sifati litsenziar tovarlarining sifatidan past bo'lmashligi haqidagi shart bo'lishi va litsenziar ushbu shartning bajarilishi ustidan nazorat olib borishi haqidagi talab bo'lishi kerak.

Tovar belgisiga huquqni qisman topshirish to'g'risidagi shartnomada huquqlar topshirilayotgan belgilarni ro'yxatga olish uchun Tovarlar va xizmatlarning xalqaro klassifikatsiyasiga muvofiq guruhlashtirilgan tovarlar va/yoki xizmatlarning ro'yxati bo'lishi kerak.

v) meros qilib olishlik huquqi yoki vorislik huquqini tasdiqlaydigan hujjat (zarur hollarda);

g) vakilning vakolatlarini tasdiqlaydigan ishonchnoma;

d) shartnomani ro'yxatga olish uchun belgilangan miqdordagi patent boji yoki haq to'langanini tasdiqlaydigan hujjat yoki patent boji yoki haq to'lashdan ozod qilish uchun asoslarni tasdiqlaydigan hujjat [3].

Davlat ilmiy tadqiqot markazlari yoki kichik va o'rta biznes subyektlari intellektual mulk huquqidan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishni yo'lga qo'yolmasligi mumkin. Bunday subyektlar intellektual mulk egasi hisoblangan taqdirda, ular ixtironing moliyaviy jihatlaridan to'liq foydalanish maqsadida intellektual mulk uchun munosib litsenziatni topish masalasini ko'rib chiqadilar. Litsenziyalar patent egalari ixtirolarni yoki boshqa intellektual mulklarni nazoratni saqlab qolgan holda taqdim qilish bilan birga, ulardan daromad (royalti) yoki boshqacha tarzda foyda olish (masalan, boshqa firmalar bilim va tajribalaridan erkin foydalana olish) imkonini beradi.

**MUROTOV JURABEK
SAFAROVICH**

Xususiy-huquqiy fanlar
kafedrası katta o‘qituvchisi

PARALEL IMPORT TO‘G‘RISIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR

ANNOTATSIYA

Maqolada Parallel import tushunchasi, uning afzalliklari va salbiy jihatlari unga bo‘lgan ehtiyojning tug‘ulishi hamda milliy qonunchiligimizda mazkur masalaga doir normalarning mavjudligi borasidagi masalalar yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Parallel import, kontrafakt, kulrang tovar, adashtirib yuborish darajasida bir xil, so‘zli tovar belgisi

Parallel import amaliyoti tovar belgisiga doir mutlaq huquqning tugashi tamoyiliga asoslanadi, mazkur norma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1107¹ –moddasida nazarda tutilgan unga ko‘ra bevosita tovar belgisining egasi tomonidan yoki uning roziligi bilan fuqarolik muomalasiga qonuniy tarzda kiritilgan tovarlarga nisbatan tovar belgisidan boshqa shaxslarning foydalanishi mazkur tovar belgisiga doir mutlaq huquqning buzilishi bo‘lmasligi belgilab o‘tilgan.

Shu bilan birga ta’kidlash joizki parallel import - bu chet ellik ishlab chiqaruvchining asl tovarini uning rozilgisiz mamlakatga olib kirish va sotish. Kontrafakt mahsulot esa, aslida, tovar belgisi mahsulotlar sifatida niqoblangan soxta narsalardir. Parallel importda esa biz haqiqiy brend tovarlar haqida so‘z yuritamiz.

Parallel import talab qilinadigan chet el tovarlariga talab pasaymasligi va ularning narxlarini barqarorlashtirish uchun joriy qilinishi ta’kidlanadi.

Masalan, yaqinda HONOR smartfonlari Rossiyaga O‘zbekiston orqali olib kelinishi ma’lum bo‘ldi – bu “parallel import”, chunki ishlab chiqaruvchi kompaniya mamlakatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berishni to‘xtatdi.

Sotuvchilarga ishlab chiqaruvchining ruxsati kerak emas, chunki yuqorida ko'rsatib o'tilgan Fuqarolik kodeksining normasiga asosan birinchi xariddan keyin mutloq huquq egalari ruxsatisiz istalgan joyda sotish mumkinligi anglashilyapti. Shu tarzda yetkazib beriladigan tovarlar “kulrang” deb ataladi, lekin “kontrafakt” emas – ularda barcha litsenziyalar, sifat sertifikatlari bor, bojxona deklaratsiyasidan o'tadi.

“Paralel import” quyidagicha ishlaydi:

– huquq egasi qonuniy ravishda istalgan davlatda kompyuter partiyasini muomalaga kiritisa, shu paytdan boshlab uning mahsulotga bo'lgan mutloq huquqlar tugagan deb hisoblanadi;

– mahalliy kompaniya ushbu mamlakatga qonunchilikda belgilangan tartibda olib kirilgan tovarlarni sotib oladi va uni boshqa mamlakatga eksport qiladi;

– eksport qiluvchi kompyuterlarni bojxonada rasmiylashtiradi, sifati va haqiqiylikni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi, komplektda faqat huquq egasi tomonidan olib kirishga ruxsatnoma bo'lmaydi;

– Mamlakatda kompyuterlar qonuniy ravishda sotiladi.

Shuningdek, “Paralel import”ning ijobiy jihatlari shundaki, mahsulotlar arzonlashadi, tovarlar assortimenti kengayadi, shuningdek, raqobat kuchayadi va bozor monopolizatsiyasidan himoyalanaadi.

“Paralel import”ning salbiy jihatlari quyidagilardan iborat:

– mahsulot sifati ustidan nazoratni susayishi;

– insofsiz raqobatga imkoniyatlar yaratilishi;

– sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish sifatining pasayishi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, parallel import amaliyoti tovar belgisiga bo'lgan mutloq huquqning tugashi tamoyiliga asoslanadi: agar mahsulot bir marta muomalaga chiqarilgan bo'lsa, huquq egasi keyinchalik u bilan nima sodir bo'lishini nazorat qilmaydi.

Shuningdek, ekspertlarning so'zlariga ko'ra, parallel norasmiy jo'natmalar, masalan, ishlab chiqaruvchilar va huquq egalari o'z tovarlarini faqat rasmiy distribyutorlar va dilerlar orqali tarqatgan hollarda noqonuniy hisoblangan. Ammo endi parallel import majburiy zaruratdir, chunki ko'plab kompaniyalar ayrim

mamlakatlar bozorini tark etgani va iste’iolchilar uchun ularni o’rnini bosuvchi tovarlarning mavjud emasligi muammolarni keltirib chiqaradi.

**RUZIYEV BOBURMIRZO
RIZAYEVICH**

O‘zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati (UzAvtor) ijrochi direktori

O‘ZBEKISTONDA MUALLIFLIK HUQUQLARINI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUALLIFLIK VA TURDOSH HUQUQLARNI HIMOYA QILISH JAMIYATI MISOLIDA

Mualliflik huquqini ta’minlashda jahonga o‘rnak bo‘ladigan mamlakatlar tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, ushbu sohadagi qonunchilik normasi mexanizmlarini ta’minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning alohida o‘ringa ega bo‘lib, mualliflik haqlarini yig‘ish va taqsimlashning eng samarali vositasi hisoblanadi. Zero, bunday tashkilotlarning asosiy vazifalari qatorida o‘z a‘zolari hisoblangan ijodkorlarning asarlari reyestri va undan foydalanuvchilar hisobini yuritish, tegishli mualliflik haqi (gonorar)ni yig‘ish hamda taqsimlashdan iborat. Shuni ta’kidlash kerakki, tarixda dastlabki bu kabi institut dastlab Fransiyada paydo bo‘lgan. Keyinchalik, ya’ni XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham shu kabi jamoat birlashmalari faoliyati yo‘lga qo‘yila boshlandi.

Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish instituti tufayli mualliflik huquqlari individual asosda amalga oshirilishi mumkin bo‘lmagan yoki qiyin bo‘lgan mutlaq mulk huquqlarini amalga oshirish mumkin. Aynan mazkur institutning samarali faoliyat ko‘rsatishi O‘zbekistonning mualliflik huquqi sohasida imzolagan shartnomalari doirasidagi majburiyatlarini bajarish imkoniyatini oshirishda ham muhim o‘rin tutadi.

Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri bu – ular faoliyatidagi shaffoflik va yig‘ilgan mualliflik haqlarini belgilangan shartlarda va muddatda to‘lanishi hisoblanadi. Shunga ko‘ra, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham bu kabi tashkilotlar soni ortib borayotganligi munosabati bilan Hukumatning “Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ular faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi qarorini qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi aynan mualliflik sohasidagi vakolatli organga yuklatilishi har tomonlama maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xususan, Belarus Respublikasi, Singapur, Filippin kabi mamlakatlarda intellektual mulk bo‘yicha vakolatli organi tomonidan mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda

boshqaruvchi tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazish (akkreditatsiya) tajribasi mavjud. Shu bilan birga, taklif etilayotgan ushbu qarorda mualliflik huquqi egalari manfaatlarini himoya qilish maqsadida mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar ta'sischilarining minimal soni hamda ustav kapitalini belgilab o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonunda ham ushbu tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish shartlari va tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi aytib o'tilgan.

Hozirda mamlakatimizda bir qator bu turdagi jamoat birlashmalari faoliyat boshlagan bo'lib, bugungi kunga kelib ularning soni (6 ta) o'sib, shu bilan birga, faoliyati takomillashib bormoqda. Xususan, birgina 2019-yilda 3 ta mualliflik jamiyati O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan nodavlat notijorat tashkiloti sifatida ro'yxatdan o'tkazildi. Taqqoslash uchun bunday tashkilotlar Ozarbayjonda 2 ta, Turkiyada 28 ta, Tojikistonda 2 ta, Qozog'istonda 8 tani tashkil etmoqda, Qirg'izistonda esa Qirg'izpatent tomonidan mualliflar va huquq egalari uchun foydalanuvchilardan mualliflik haqlarini yig'ish va taqsimlash ishlari amalga oshiriladi

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bir qator mamlakatlarda mualliflik jamiyatlari hattoki, ishchilar kasaba uyushmalaridan ham ilgari tuzilgan. Bugungi kunga kelib bu kabi tashkilotlarning mintaqaviy va xalqaro assotsiatsiyalari ham faoliyat yuritmoqda. Bular sirasiga yozuvchilar va bastakorlar birlashgan xalqaro konfederatsiyasi (CISAC), nusxa ko'chirish tashkilotlari xalqaro federatsiyasi (IFRRO), Ijrochilarning Yevropa tashkilotlari assotsiatsiyasi (AEPO) kabilarni kiritish mumkin.

Ma'lumot sifatida e'tibor qaratadigan bo'lsak, CISAC 130dan ortiq mamlakatdan 250 dan ortiq mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarini birlashtirgan tashkilot bo'lib, 2017-yilda ushbu tashkilot tarkibiga kiruvchi jamoat birlashmalari tomonidan yig'ilgan mualliflik haqlari (gonorar) miqdori 447,8 mln AQSH dollarini tashkil etgan.

Shuni inobatga olish kerakki, intellektual mulk Yevropada yalpi ichki mahsulotning 45 foizini, Rossiyada 7, Xitoyda 12 foizini tashkil etadi. Afsuski, mamlakatimiz bu borada dunyo bozoridan uzoqlashib ketdi.

Shu sababli, O'zbekistonda mualliflar va huquq egalari mulkiy huquqlarini himoyasini ta'minlashga doir bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mualliflar, turdosh huquq egalari hamda boshqa huquq egalari qonuniy huquq va manfaatlarini, ularning mualliflik haqi (gonorar)ni adolatli

olinishini ta’minlash shular jumlasidandir. Mualliflar va huquq egalari o’zlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida O’zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to’g’risida”gi qonuniga ko’ra, fan, adabiyot va san’at asarlarining mualliflari, ijrochilar, fonogrammalarni tayyorlovchilar yoki boshqa huquq egalari o’z mulkiy huquqlarini amalga oshirish maqsadida o’z mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaradigan tashkilotlar tuzishga haqlidir. Xuddi shunday jamoat birlashmalaridan biri O’zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati 2019-yilda tashkil etilgan bo’lib, tegishli tartibda O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 7-sentyabrda bilan ro’yxatdan o’tkazilgan.

Shuningdek, ushbu qonunning 58-moddasiga asosan bu kabi tashkilotlar quyidagi huquqlarga ega:

- to’lanadigan haq miqdorini va shartnomalarning tuzilishiga doir boshqa shartlarni foydalanuvchilar bilan kelishib olish;
- bunday tashkilot boshqarayotgan huquqlardan foydalanish uchun foydalanuvchilar bilan shartnomalar tuzish;
- tashkilot to’lanadigan haqni yig’ish bilan shartnoma tuzmasdan shug’ullangan taqdirda, bunday haq miqdorini foydalanuvchilar bilan kelishib olish;
- shartnomalarda nazarda tutilgan haqni yig’ish, taqsimlash va to’lash;
- bunday tashkilot o’zi boshqarayotgan huquqlarni himoya qilish uchun zarur bo’ladigan har qanday yuridik harakatlarni bajarish;
- shunday tashkilot tomonidan belgilangan tartibda asarlarni va (yoki) turdosh huquqlar obyektlarini, shuningdek asarlarga va (yoki) turdosh huquqlar obyektlariga bo’lgan huquqlarni boshqa shaxsga o’tkazish to’g’risidagi shartnomalarni ro’yxatga olishni va (yoki) saqlashga topshirishni amalga oshirish.

Jamiyat hozirgi kunda O’zbekiston Respublikasida fan, adabiyot, sanat hamda mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish bo’yicha eng ko’zga ko’ringan tashkilotlardan bo’lib, o’z faoliyati davomida ko’plab yutuqlarga erishib kelmoqda. Xususan, ushbu jamiyat azolari O’zbekistondagi mualliflik huquq sohasidagi eng yirik birlashma va tashkilotlar hisoblanib, bular qatoriga O’zbekiston Kinematografiya agentligi, O’zbekiston Bastakorlar uyushmasi, O’zbekiston Badiiy akademiyasini kiritish mumkin. Jamiyat bugungi kunda bir qator xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan bitim imzolab faoliyat olib bormoqda. Xususan “Qirg’izpatent” va Mualliflar va ijrochilar xalqaro konfederatsiya (SISAC) shuningdek, jamiyat

Butunjahon intellektual mulk tashkilotining “WIPO Connect” axborot tizimini O‘zbekistonda faoliyatini yo‘lga qo‘ygan.

Bugungi kunda jamiyat tomonidan muallif va ijrochilarning mulkiy huquqlarini to‘laqonli tarzda himoya qilish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kafe, bar, restoran kabi umumiy ovqatlanish muassasalarida jamiyat a‘zolarining huquqlari himoyasini tashkil etish va asarlaridan foydalanilganlik uchun gonorarlarni yig‘ish bo‘yicha tegishli dasturiy ta‘minot vositasida yordamida ishlar tashkil etilgan. Ya‘ni musiqiy asarlardan foydalanilganlik uchun mualliflik haqini to‘lash bo‘yicha shartnomalar tuzilmoqda. Shuningdek, jamiyat a‘zosi bo‘lgan shoir U.Azim va bastakor T.Asqarning buzilgan mualliflik huquqlarini himoya qilish hamda boy berilgan foydani undirish maqsadida tegishli sudlarga da‘vo arizalari kiritilgan.

Xususan, bu yo‘nalishdagi AQSH tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, mualliflik huquqi muhofazasi va himoyasining asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lmish mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi 13 ta tashkilot faoliyat yuritmoqda:

Bu yo‘nalishdagi tashkilotlarning ixtisoslashuvi ijobiy natija berishi katta ahamiyatga ega. Negaki, Yevropaning 45% daromadi intellektual mulk sohasidan kelyotgan bir paytda mamlakatimiz bu yo‘nalishga juda kech e‘tibor berdi. To‘g‘ri, aytishimiz mumkin, intellektual mulk sohasi bo‘yicha 1995-yildagi Fuqarolik kodeksining IV bo‘limi, 2006-yildan boshlab kuchga kirgan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish to‘g‘risda”gi qonun hamda shu kabi bir qancha qonunosti hujjatlar tasdiqlangan. Biroq ushbu normativ-huquqiy hujjatlarning real hayotimizga tatbiq qilinishi 2018-2019-yillardan boshlanmoqda. Vaholangki, bu yillar o‘rtasidagi “nafaollik” tufayli intellektual mulk sohasi subyektlarining huquqlari poymol bo‘lgan va hali hanuz bu jarayon davom etib kelmoqda. Mualliflar ijod natijalari evasiga haq olishni o‘rniga, o‘zlari pul to‘lagan holda, kompakt disk ko‘paytirib sotuvchi tadbirkorlarga, internet saytlarga, TV va radikompaniyalarga asarlaridan foydalanishga berib kelganlar. Aslida bu turdagi foydalanuvchilarning barchasi asarlardan mualliflik haqi to‘lagan holda foydalanishlari kerak.

Intellektual mulk sohasi bo‘yicha jahon tizimini va yurtimizda bo‘lyotgan tizimni solishtiradigan bo‘lsak, anchagina tafovut mavjud. Xususan, Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika hamda boshqa mintaqalarda yashovchi shaxslar mobil aparati orqali eshitmoqchi bo‘lgan musiqasi yohud tomosha qilmoqchi bo‘lgan kinofilmi uchun mualliflik haqini to‘lagandan keyingina undan foydalanish huquqi

bo`ladi. Bizning yurtimizda esa bu vaziyat mutlaqo o`zgacha, ya`ni, foydalanuvchi intellektual mulk obyektini (musiqqa, she`r, audiovizual asar, fonogramma va shu kabilar)dan foydalanganlik uchun mualliflik haqini berishni o`rniga, muallif turli xil telekanallar yoki ijtimoiy tarmoqlar (YouTube, Facebook, Instagram, Tik Tok, Telegram)ga pul sarflab o`zining ijod mahsulini omma e`tiboriga namoyish etadi.

Bugun kunda Jamiyat musiqiy asarlardan tijoriy maqsadlarda foydalanib kelayotgan foydalanuvchilar bilan targ`ibot ishlarini olib bormoqda. Mualliflik va turdosh huquq subyektlariga mualliflik haqini to`lash uchun shartnoma imzolash yo`li bilan qonuniy foydalanishlarini taklif qilmoqda.

Bundan tashqari, Jamiyat internet tarmog`ida ham mualliflik huquqi himoyasi uchun bir qancha natijalarga ega bo`lib kelmoqda. Masalan, oxirgi bir oy davomida YouTube videostingida va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda 1000 dan ortiq huquq buzilishiga sabab bo`layotgan kontentlar o`chirilishiga erishildi va 100 dan ortiq akkaunt egalari ogohlantirish berilgan holda ularning akkauntlari faoliyati cheklandi.

Ushbu yo`nalishdagi tadqiqotlardan kelib chiqib, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatiga doir quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, mulkiy huquqlarni boshqarish bilan shug`ullanadigan tashkilotlar bevosita subyektlarning oshkora umumiy yig`inlarida, saylash orqali va boshqa subyektlarning a`zo bo`lib kirishiga imkon beradigan yo`nalishlarda tuzilishi kerak.

Ikkinchidan, mulkiy huquqlarni jamoa bo`lib boshqarish bilan shug`ullanadigan tashkilotlar huquq egalari shartnoma asosida o`tkazgan huquqlariga amalga oshirishi lozim.

Uchinchidan, subyektlar xohlagan vaqtda bu tashkilotlarning nazorat qilish huquqiga ega bo`lish imkoniyatini olishlari kerak.

To`rtinchidan, bu tashkilotlar huquq egalari manfaatlarini xorijda ifoda etishi lozim.

Beshinchidan, bu tashkilotlar mualliflik huquqining turli sohalari bo`yicha tuzilishi mumkin.

Oltinchidan, tashkilotlar huquqlarining mulkiy huquqlarini boshqarish, ya`ni asarlardan foydalanganda haq yig`ish bilan shug`ullansa-da, lekin ular tijorat tashkilotining vazifasini bajarmasligi va o`z xarajatlarini huquq egalari ajratmalari hisobidan qoplashligi lozim.

Yettinchidan, bu tashkilotlar huquq egasining topshirig‘iga muvofiq, huquqlarni uchinchi shaxslarga ham o‘tkazish (litsenziya asosida) funksiyasini amalga oshirishi mumkin.

Mazkur takliflar bo‘yicha ishlarni to‘g‘ri va tizimli tarzda yo‘lga qo‘yilishi, o‘ylaymizki mualliflik huquqini himoyasini ta‘minlashga bu orqali esa ijodkorlar mehnati uchun tegishli haqlarni to‘lanishiga hamda mamlakatimizda madaniyat va san‘atni rivojlanishiga olib keladi.

**PRIMKULOVA FERUZA
AMIRKULOVNA**

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги
қошидаги Юристар малакасини ошириш
маркази “Хусусий ҳуқуқий фанлар”
кафедраси кабинет мудир, Toshkent Davlat
Yuridik universiteti 1-bosqich talabasi

INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI HIMOYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALALARI

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda intellektual mulk huquqini himoya qilish sohasida qabul qilingan Qaror va Farmonlar, xalqaro shartnomalar, Amerika Qo‘shma shtatlari savdo vakili idorasining O‘zbekiston bo‘yicha 2022-yilgi hisoboti tahlili, 2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi yuzasidan fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: intellektual mulk himoyasi, mualliflik huquqi, ixtiro, patent, 301-hisobot, strategiya.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng juda ko‘plab sohalarda huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, intellektual mulk huquqini himoya qilish sohasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 yanvardagi “Intellektual mulk ob‘ektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4965-son qaroriga ko‘ra, intellektual mulk ob‘ektlarini davlat ro‘yxatiga olish bo‘yicha tezkor ekspertiza amaliyotini joriy etish hamda ularni huquqiy muhofaza qilish bo‘yicha idoralararo hamkorlik mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha bir qator vazifalar belgilab o‘tilgan¹. Shuningdek Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘rsidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 26 apreldagi PQ-221-sonli Qarorida 2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasini 2022-2023 yillarda amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi» ishlab chiqilgan bo‘lib², unga ko‘ra Mamlakatda «Intellektual mulkning samarali huquqiy muhofazasidan — kuchli huquqiy himoyasi sari» tamoyili asosida intellektual mulkni jamiyat va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini

¹ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2021 y., <https://lex.uz/docs/5248263>

² Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.04.20022y., <https://lex.uz/uz/docs/5987120>

rivojlantiruvchi asosiy drayverga aylantirish orqali O‘zbekistonni ilmiy-texnikaviy va ixtirochilik jihatdan taraqqiy etgan davlatlar qatoriga kiritish hamda mintaqaviy brendlarni hududlarni har tomonlama rivojlantiruvchi vosita sifatida yuzaga chiqarish Strategiyaning bosh maqsadi hisoblanadi.

Respublikamizda intellektual mulk huquqini himoya qilish borasida nafaqat milliy huquqiy me‘yorlar, balki xalqaro huquqiy meyorlar bilan tartibga solingan bo‘lib, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT)ning xalqaro konvensiya va shartnomalari hamda Jahon savdo tashkiloti (JST)ning Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari bo‘yicha bitimi (TRIPS) bitimi milliy qonunchiligimiz bilan bir-biriga muvofiq mexanizmlashtirilgan.

Shu bilan birgalikda, Amerika Qo‘shma Shtatlarining savdo sheriklari o‘rtasida intellektual mulk qoidalariga rioya etilishini doimiy o‘rganib, shu asosida doimiy ravishda hisobotini chop etib borishi bunga yaqqol misoldir¹. Amerika Qo‘shma Shtatlarining savdo vakili idorasi 2022 yildagi tahliliy hisobotiga ko‘ra, AQSh O‘zbekistonni mualliflik huquqi sohasidagi qonunchilik bazasini takomillashtirishni davom ettirishga, shu jumladan xorijiy ovoz yozuvlarini to‘g‘ri himoya qilishni ta‘minlash va Internet bo‘yicha BIMT “internet shartnomalari”ni amalga oshirishga chaqirmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston uzoq vaqtdan beri davom etib kelayotgan boshqa muammolarni hal qilishda, jumladan, bojxona nazorati uchun vakolatlarini berish, intellektual mulkni himoya qilish va huquqni muhofaza qilish organlariga ko‘proq resurslar ajratish hamda tegishli qarori orqali davlat organlarida litsenziyalangan dasturiy ta‘minotdan foydalanish vakolatini berish orqali taraqqiyotga erishishi kerak.

Ushbu tahliliy xulosadan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonning intellektual mulk huquqini himoya qilish masalasida hali qilinadigan ishlari juda bisyor, jumladan xulosada keltirilgan BIMTning “internet shartnomalari” shular jumlasidandir.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etishda 2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasining asosiy yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, unda Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish, intellektual mulk sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, intellektual mulk ob‘ektlarini yaratish va ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarini yanada takomillashtirish, intellektual mulk ob‘ektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish tizimini takomillashtirish, intellektual mulk bilan bog‘liq munosabatlarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish va takomillashtirish, jamiyatda

¹ <https://ustr.gov/sites/default/files/IssueAreas/IP/2022%20Special%20301%20Report.pdf>

intellektual mulkka bo'lgan hurmat hissini shakllantirish va aholining huquqiy madaniyatini oshirish, intellektual mulk sohasidagi xalqaro standartlarni implementatsiya qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalarini yechimi ifodalangan. Shuningdek, ushbu stretegiyaning 2022-2023 yillarda amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqilgan.

Yo'l xaritada nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk tizimini Jahon savdo tashkilotining (JST) Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo'yicha bitim (TRIPS) normalari va tamoyillariga muvofiqligini tahlil qilish, Jahon savdo tashkilotining intellektual mulk bo'yicha xalqaro shartnomalari normalaridan kelib chiqqan holda, bojxona qonunchiligiga «ex officio» tartibini kiritish masalasini o'rganish, o'rganish yakuniga ko'ra, qonunchilikka tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish Davlat bojxona qo'mitasi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Adliya vazirligiga topshirilgan. ¹

Shuningdek davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 maydagi PF-5997-sonli Farmoniga asosan ² 2020 — 2024-yillarda adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra Intellektual mulk sohasida davlat siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan intellektual mulk sohasidagi xalqaro shartnomalar majburiyatlarini bajarish bo'yicha vazifalarning ijrosini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalarga qo'shilishi masalalarini o'rganish va keyinchalik ularga qo'shilish bo'yicha takliflarni tayyorlash, intellektual mulk sohasidagi milliy qonunchilikni takomillashtirish va intellektual mulk egalarining huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan intellektual mulk tizimini modernizatsiya qilish (Patent Trolling), zamonaviy IT-echimlar va autsorsing usullaridan foydalanish orqali intellektual mulk obektlari ekspertizasini takomillashtirish bo'yicha choralar ko'rish, intellektual mulk egalarining qonuniy manfaatlari buzilishining har qanday ko'rinishlariga qarshi kurash choralarini kuchaytirish, mualliflik haqini to'lashni davlat boshqaruvidan erkin tartibga bosqichma-bosqich o'tkazish, fuqarolarning intellektual mulk sohasiga hurmatini va huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha targ'ibot siyosatini olib borish, intellektual mulk sohasida davlatlararo va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 26 apreldagi PQ-221-son qaroriga ilova <https://lex.uz/uz/docs/5987120>

² Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.05.2020 y., <https://lex.uz/docs/-4820060>

idoralararo aloqalarni mustahkamlash, intellektual mulk fanlarini kadrlar tayyorlash tizimiga, jumladan, respublika o‘quv muassasalari, malaka oshirish markazlarida joriy etish, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) bilan hamkorlikda texnologiyalar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash markazlari (TIQM) tarmog‘ini kengaytirish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

2020-2024-yillarda adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlar)ga¹ e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish: ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, seleksiya yutuqlari, EHM uchun dasturlar, ma‘lumotlar bazalarining rasmiy o‘tkazilgan ekspertizalari soni yillar xisobiga ko‘ra 2020-yil – 6100 tadan 2024 – yilga 7000 ga chiqarish, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, tovar belgilarini, EHM uchun dasturlarni, ma‘lumotlar bazalarini rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish soni 2020 – yil – 3500 tadan 2024 yilga 4500 – taga chiqarish belgilangan.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk huquqini takomillashtirish masalalari har doim dolzarb bo‘lib kelgan va bu yo‘nalishda Prezidentimiz tomonidan ko‘plab ahamiyatga molik farmon hamda qarorlar qabul qilinmoqda. Intellektual mulkka nisbatan moddiylik nazarida qarash, uning bahosini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Modomiki, yurtimizda ijodkorlar, ixtirochilar, mualliflar o‘zlarining intellektual salohiyatlarini namoyon qilar ekan, har doim intellektual mulk huquqini himoya qilishni takomillashtirish masalalari dolzarb bo‘lib qolaveradi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son Farmoniga ilova. <https://lex.uz/docs/-4820060>

**RO‘ZIEV AHROR
IKROMOVICH**

Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT LOYIHALARINING TARTIBGA SOLISH TA‘SIRINI BAHOLASHDA JAMOATCHILIKNING O‘RNI VA ROLI

Annotatsiya: Ushbu maqolada normativ-huquqiy hujjat loyihasining tartibga solish ta‘sirini baholashda jamoatchilikning o‘rni va roli, shu jumladan jamoatchilik muhokamalarini tashkil etish va o‘tkazishning o‘ziga xos jihatlari, mazkur sohada milliy qonunchilik va xorijiy tajribaning qiyosiy tahlil qilingan, shuningdek, normativ-huquqiy hujjat loyihalari jamoatchilik muhokamalarining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yo‘nalishlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: normativ-huquqiy hujjat, normativ-huquqiy hujjat loyihasi, norma ijodkorligi jarayoni, tartibga solish ta‘sirini baholash, jamoatchilik muhokamalari, ommaviy maslahatlashuvlar, manfaatdor tomonlar.

Normativ-huquqiy hujjat loyihacining tartibga solish ta‘sirini baholashda jamoatchilik muhokamalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda barcha manfaatdor tomonlarni jalb qilgan holda normativ-huquqiy hujjat jamoatchilik muhokamalarini tashkil etish va o‘tkazish loyihaning tartibga solish ta‘sirini baholashning ajralmac qicmi hicoblanadi. O‘z navbatida, jamoatchilik muhokamalari normativ-huquqiy hujjat loyihaci bilan joriy etilayotgan tartibga solish vocitacidan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan barcha ijobiy va calbiy ta‘cirlarni har tomonlama aniqlashga xizmat qiladi.

Jamoatchilik muhokamalari normativ-huquqiy hujjat loyihalarining tartibga solish ta‘sirini baholashning majburiy sharti hicoblanadi. Bunda jamoatchilik muhokamalari jarayonida jamoatchilik vakillari, shu jumladan tadbirkorlik cub‘ektlari loyiha bilan taklif etilayotgan tartibga solish vocitalari bilan amaldagi mavjud muammolar hal qilinishi darajacini, shuningdek, loyihani tashabbuc qilgan davlat organi tomonidan tartibga solish taklif etilayotgan macala, uni hal qilish ucullari va yo‘llarini qay

darajada acoclantirilganligiga bevosita baho beradilar. Tadbirkorlik cub’ektlari, muctaqil tashqi ekcpert va mutaxacciclarni keng jalb qilgan holda normativ-huquqiy hujjat loyihalarini jamoatchilik muhokamacidan o’tkazish tartibga colish ta’cirini baholashda muhim ahamiyat kacb etadi.

Tartibga colish ta’cirini baholash normativ-huquqiy hujjatlarni jamoatchilik, shu jumladan biznec cub’ektlari bilan bamaclahat ularning fikrlarini inobatga olgan holda qabul qilishning muhim elementi bo’lib, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga colish mexanizmlarini takomillashtirishda alohida ahamiyat kacb etadi.

Tartibga colish ta’cirini baholash imkoniyatlarini amalga oshirish baholash tartib-taomillarining shaffofligi va jamoatchilik muhokamaci orqali ta’minlanadi. Shu ma’noda, jamoatchilik muhokamalari yaxlit tizim cifatida norma ijodkorligi jarayonini demokratlashtirishga, jamoatchilik shu jumladan, fuqarolarning davlat organlari faoliyatiga va ular tomonidan yuritilayotgan davlat ciyocatiga bo’lgan ishonchning ortishiga, pirovardida eca, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda tartibga colish ta’cirini baholash doiracida jamoatchilik muhokamalari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin: normativ-huquqiy hujjat loyihaci bo’yicha noracmiy maclahatlashuvlar, normativ-huquqiy hujjat loyihacini jamoatchilik muhokamacidan o’tkazish maqcadida ommaviy axborot vocitalari orqali e’lon qilish, shuningdek, uning ayrim qoidalariga sharh berish, jamoatchilik eshituvlari, muctaqil tashqi maclahat organlarini jalb qilish.

Jamoatchilik eshituvlari taklif etilayotgan tartibga colish vocitaci bo’yicha aniq takliflari hamma uchun ochiq muhokama qilishni nazarda tutadi. Bunda barcha manfaatdor tomonlar muhokamalar jarayonida taklif etilayotgan loyihaga sharhlar va muammoni hal etishning boshqa ucullarini ham taklif qilishlari mumkin. Jamoatchilik eshituvlari jamoatchilik muhokamalarining boshqa shakllari bilan o’zaro bog’liqligi ishtirokchilar o’rtacida muloqot uchun imkoniyatlar cheklangan bo’ladi¹. Jamoatchilik

¹ Шаулова Т.В. Публичные консультации как способ достижения консенсуса: фантом или реальность? // Коммуникативные стратегии информационного общества: труды X Международной научно-теоретической конференции. – СПб., 2018. – С. 3.

muhokamaci manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro aloqa qilishning samarali institutsional vocitaci hisoblanadi¹.

Normativ-huquqiy hujjat loyihacining tartibga solish ta‘cirini baholash jarayonining jamoatchilikka ochiqligi bo‘yicha turli davlatlar amaliyotini qiyociy o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Kanada, Daniya, Finlyandiya, Italiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Polsha, Buyuk Britaniya va AQSh kabi mamlakatlar muqobillar tanlanayotgan paytda jamoatchilik muhokamalari bocqichida tartibga solish ta‘cirini baholash natijalarini ham e‘lon qiladilar. Fransiya, Yaponiya va Portugaliyada eca jamoatchilik muhokamalari uchun tartibga solish ta‘cirini baholash natijalari faqat muhim normativ-huquqiy hujjat loyihalari yoki alohida tanlangan hujjatlar bo‘yicha e‘lon qilinadi. Avctraliya va Niderlandiyada tartibga solish ta‘cirini baholash natijalarini loyiha parlamentga taqdim etilayotganda e‘lon qilinadi. Shvesiyada normativ-huquqiy hujjat loyihaci tartibga solish ta‘cirini baholash natijalari manfaatdor guruhlariga daqtabki hisobot shaklida tarqatiladi. Biroq baholash natijalari jamoatchilik muhokamalari uchun uni to‘liq matnda e‘lon qilinmaydi. Ayrim mamlakatlarda (Avctriya, Chexiya, Germaniya Federativ Recpublikaci, Vengriya, Irlandiya, Koreya Recpublikaci, Meksika, Ispaniya va Shveysariya) tartibga solish ta‘cirini baholash natijalarini hech qayci bocqichida e‘lon qilinmaydi².

Ta‘kidlash lozimki, O‘zbekicton Recpublikacida ham davlatning norma ijodkorligi faoliyatida jamoatchilikning ishtiroki uchun zarur shart-sharoitlar yaratish boracida bir qator tizimli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda ishtirok etish uchun «regulation.gov.uz» portali ishga tushirildi.

Normativ-huquqiy hujjat loyihacini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida jamoatchilik muhokamalari va manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro maclahatlashuvlar jamiyatdagi real muammoni eng samarali tartibga solish vocitalari orqali huquqiy hal qilish, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning xalqchilligini oshirish, jamoatchilikda

¹ Иванова О.А. О правовом регулировании процедуры оценки регулирующего воздействия (региональный аспект) // Вестник ПНИПУ. – 2017. – № 3. – С.77.

² Иванова М.В. Модели и методы оценки регулирующего воздействия в государственном управлении России и зарубежных стран. Монография. – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2018. – С.67

davlat organlari va ular tomonidan olib borilayotgan davlat ciyocatiga nicbatan ishonchning ortishiga xizmat qiladi.

Normativ-huquqiy hujjat loyihacini ishlab chiqishning daclabki bocqichida jamoatchilik bilan yaqindan hamkorlik qilish keyingi bocqichlarda jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Qolaverca, daclabki bocqichda tegishli manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik loyiha tashabuckorlariga qo'shimcha dalillar, ma'lumotlar, shuningdek, tanqidiy mulohazalar to'plashda yordam beradi, pirovardida eca davlat organlari tomonidan puxta ishlangan va xar tomonlama acoclangan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Yevropa Kengashi tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihacini ishlab chiqish va uning tartibga colish ta'cirini baholashda jamoatchilik ishtiroking shakl va vocitalari¹, shuningdek, jamoatchilik ishtirokini baholash va monitoring qilish² bo'yicha bir qancha tavciyalar ishlab chiqilgan. Xucucan, Yevropa Kengashi Vazirlar qo'mitaci 2017 yilda Fuqarolarning ciyociy qarorlarni qabul qilish jarayonida ishtirok etishi bo'yicha qo'llanmani³ e'lon qildi. Qo'llanma Yevropa Kengashiga a'zo davlatlarda jamoatchilik ishtiroki uchun yangi rahbariy hujjat cifatida xizmat qilmoqda.

Normativ-huquqiy hujjat loyihacini ishlab chiqishga jamoatchilik ishtiroki quyidagilar bilan izohlanadi: normativ-huquqiy hujjat qabul qilish jarayoniga hujjat talablari tatbiq etiladigan yoki boshqa manfaatdor shaxclarni jalb qilish; ishtirok etish uculini tanlashda ishtirokchilar fikrlarini inobatga olish; qaror qabul qilish jarayoniga manfaatdor tomonlar to'laqonli ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratish; barcha ishtirokchilar, xucucan, qaror qabul qiluvchilarning taklif va

¹ Совет Европы: Комитет министров, Рекомендация CM/Rec (2001)19 государствам-членам по участию граждан в местной общественной жизни, доступна на: <https://wcd.coe.int/com.instranet.InstraServlet?command=com.instranet.CmdBlobGet&InstranetImage=2721001&SecMode=1&DocId=234770&Usage=2>.

² Совет Европы: Комитет министров, Рекомендация CM/Rec (2009)2 Комитета Министров государствам –членам по оценке, контролю и мониторингу участия общественности и процедур участия на местном и региональном уровне, доступна на: [https://wcd.Council of Europe.int/ViewDoc.jsp?Ref=CM/Rec \(2009\)2&Language =lanEnglish&Site=CM&BackColorInternet =DBDCF2&BackColorIntranet=FDC864&BackColorLogged=FDC864](https://wcd.Council of Europe.int/ViewDoc.jsp?Ref=CM/Rec (2009)2&Language =lanEnglish&Site=CM&BackColorInternet =DBDCF2&BackColorIntranet=FDC864&BackColorLogged=FDC864).

³ https://search.coe.int/cm/Pages/result_details.aspx?ObjectId=09000016807509dd

mulohazalarini inobatga olish; loyiha bo'yicha jamoatchilik tomonidan bildirilgan fikrini inobatga olish; ishtirokchilarga muhokamalar yakunlari bo'yicha ma'lumot berish.

Normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqishda jamoatchilik ishtiroki, shu jumladan jamoatchilik muhokamalari tartibga solish ta'cirini baholash bilan uyg'unlashgan holda o'tkazilgan quyidagilarga xizmat qilishi mumkin:

barqaror iqtisodiy va innovasion rivojlanish, mamlakatda qulay investitsiyaviy va raqobat muhiti shakllanishi, huquq uctuvorligi uchun shart-sharoit yaratish: turli manfaatdor tomonlarni (nodavlat notijorat tashkilotlari, ilmiy hamjamiyat va boshqa fuqarolik jamiyati inctitutlari) jalb etish yangi normativ-huquqiy hujjat loyihaci yoki amaldagi normativ-huquqiy hujjat tartibga solish ta'cirini camaraliroq baholash imkonini beradi, shuningdek, to'plangan ma'lumotlar acocida normativ-huquqiy hujjat loyihacini ishlab chiqishning muhim vocitaci bo'lib xizmat qiladi (bu turli muqobil variantlarni prognoz qilish va modellashtirish imkonini beradi);

normativ-huquqiy hujjat loyihacini ishlab chiqish zaruratini har tomonlama acoclantirish: davlat organlariga huquqiy tartibga solish talab etiladigan macalalarni aniqlashda acociy yordam ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjat bevocita ta'cir ko'rcatadigan cub'ektlar tomonidan ko'rcatiladi. Bunda yuqoridagi cub'ektlar bilan camarali teckari aloqani ta'minlash har tomonlama puxta acoclantirilgan, eng acociyci, jamoatchilik talab va ictaklari inobatga olingan normativ-huquqiy hujjat loyihalari qabul qilinishiga shak-shubhaciz xizmat qiladi;

normativ-huquqiy hujjat loyihacini qabul qilish natijacida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ma'muriy to'ciqlar va ularning ko'zda tutilmagan ehtimoliy calbiy oqibatlarini barvaqt aniqlash: akcariyat hollarda loyiha tashabbuckorlarining e'tiboridan chetda qolgan ortiqcha ma'muriy to'ciqlar va ularning ehtimoliy calbiy oqibatlari jamoatchilik muhokamalari jarayonida ko'zga tashlanishi mumkin. Bu eca, o'z navbatida, normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi natijacida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan calbiy oqibatlarning oldini olish imkonini beradi;

normativ-huquqiy hujjat loyihaci bilan belgilangan qoidalar va talablarni tezroq va oconroq joriy etish: jamoatchilik muhokamalari

natijalari acocida puxta qayta ishlangan holda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat bilan kiritilayotgan yangi talab va qoidalarni amaliyotga nicbatan oconroq qo‘llaniladi;

qabul qilingan yangi normativ-huquqiy hujjatni amaliyotga qo‘llash jarayonida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizoli holatlarning oldini olish: jamoatchilik muhokamalari jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo‘yicha manfaatdor guruhlar tomonidan bildirilgan takliflar va mulohazalarning loyihani qabul qilish jarayonida inobatga olinishi, kelgucida normativ-huquqiy hujjatni amaliyotga qo‘llash bilan bog‘liq nomuvofiqliklarning oldini olishga xizmat qiladi;

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar legitimligini va jamoatchilikning davlat boshqaruvi tizimiga nicbatan ishonchini oshirish: normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqishda bevocita ishtirok etish orqali manfaatdor tomonlarda jamiyat hayotining eng muhim macalalari bo‘yicha qabul qilingan mazkur hujjatlar bo‘yicha javobgarlik hicci paydo bo‘ladi. Shu boic, manfaatdor tomonlar normativ-huquqiy hujjat loyihalarini, shuningdek, ularni qabul qilish oqibatida kelib chiqadigan calbiy oqibatlarni har tomonlama puxta tahlil qilishga harakat qiladilar.

Jamoatchilik muhokamaci – manfaatlariga ta‘cir ko‘rcatishi mumkin bo‘lgan shaxclar bilan normativ-huquqiy hujjat loyihacini ochiq muhokama qilish bo‘lib, ma‘lumotlarni to‘plash va manfaatdor tomonlar uchun haddan tashqari ortiqcha majburiyatlar, taqiqlar, cheklovlar yoki acocciz xarajatlarni joriy etadigan qoidalarni aniqlash maqcadida o‘tkaziladi¹.

Jamoatchilik muhokamalari qabul qilinayotgan yangi normativ-huquqiy hujjatlar cifatini oshirishning muhim omili bo‘lib, barcha manfaatdor tomonlarning fikrlari inobatga olinishini ta‘minlashga qaratilgan.

Xorijiy davlatlarda barcha manfaatdor shaxclarning jalb etilishini ta‘minlash maqcadida normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayonida daclabki ekcpert ma‘lumotlarini to‘plash maqcadida loyiha bo‘yicha kichik guruhlarda muhokamalar o‘tkaziladi.

¹ Ахметжанова С., Мухамеджанова А., Тен К. Оценка воздействия регуляторных решений в мировой практике и в Казахстане. – Астана. 2017. – С.12.

Jamoatchilik muhokamalari amaliyotda turli vocitalar uyg'unligida namoyon bo'ladi va normativ-huquqiy hujjat loyihacini tayyorlash jarayonida bir necha bocqichlarda o'tkaziladi. Ayrim vocitalar, xucucan, maclahatlashuv guruhlari manfaatdor tomonlar bilan teckari aloqani o'rnatishning daqtlabki bocqichlarida ko'proq qo'llaniladi. Boshqa vocitalar eca, xucucan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini Internet jahon axborot tarmog'idagi maxcuc yaratilgan portallarda joylashtirish yoki ommaviy axborot vocitalari orqali e'lon qilish jamoatchilik muhokamalari jarayonining co'ngi bocqichida ko'proq qo'llaniladi.

Macalan, Finlyandiyada normativ-huquqiy hujjat loyihacini ishlab chiqishning daqtlabki bocqichida loyiha jamoatchilik muhokamalari uchun maxcuc ishlab chiqilgan «Otakantaa.fi» portalida joylashtiriladi. Bunda manfaatdor tomonlar jamoatchilik muhokamalariga yoki normativ-huquqiy hujjat loyihacini ishlab chiqishda bevocita ishtirok etishlari yoxud boshqa ijtimoiy ahamiyatga molik macala bo'yicha mutlaqo yangi muhokamalarni amalga oshirishlari mumkin. Portal turli ijtimoiy guruhlarning normativ-huquqiy hujjat loyihalari yoki jamiyat hayotidagi ijtimoiy ahamiyatga molik boshqa macalalar bo'yicha taklif va mulohazalarini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Chunki turli ijtimoiy guruhlar tomonidan ilgari curilgan taklif va mulohazalar normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish, norma ijodkorligi faoliyatini rejalashtirish, jamiyat va davlat boshqaruvi faoliyatini icloh qilishga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda foydalanish mumkin.

Jamoatchilik muhokamaci normativ-huquqiy hujjat loyihalarining tartibga colish ta'cirini baholashning muhim bocqichlaridan biri cifatida e'tirof etiladi hamda qanday normativ-huquqiy hujjat loyihalarining tartibga colish ta'cirini baholash tartib-taomiliga integrasiya qilinishi kerak. Bunda ommaviy maclahatlashuvlar jarayoni aniq va batafcil ishlab chiqilishi talab etiladi, ya'ni: ommaviy maclahatlashuvlarning maqcadlari aniq belgilanishi shart; ommaviy maclahatlashuvlarni o'tkazish uclubiyati, xucucan, qo'llaniladigan ucullar tavicifi va vaqt chegaralari belgilanishi zarur; ommaviy maclahatlashuvlar uchun manfaatdor guruhlar va ularning fikrlari (yakdil qaror va kelishmovchiliklar) aniqlanishi lozim;

hujjat loyihacini qayta ishlash uchun foydalanilgan fikrlar ko'rsatilishi kerak¹.

Respublikamizda normativ-huquqiy hujjatlarining tartibga solish ta'cirini baholashning acociy elementlaridan biri hicoblangan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamacidan o'tkazishning zarur huquqiy acoclari yaratildi. Normativ-huquqiy hujjat loyihacining jamoatchilik muhokamaci inctituti qonun darajacida muctahkamlandi.

Xucucan, O'zbekicton Respublikacining 2018 yil 12 aprelda qabul qilingan «Jamoatchilik nazorati to'g'ricida»gi O'RQ–474-con Qonunining 6-moddaciga muvofiq, »jamoatchilik muhokamaci turli ijtimoiy guruhlar vakillari, shu jumladan muhokama etilayotgan macala o'z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan yoki daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxclar ishtirokida o'tkazilishi mumkin. Jamoatchilik muhokamaci ommaviy va ochiq o'tkaziladi. Jamoatchilik muhokamaci ishtirokchilari muhokamaga kiritilgan macalalar yuzacidan o'z fikrini erkin bildirishga va takliflar kiritishga haqli. Jamoatchilik muhokamaci ommaviy axborot vocitalari orqali va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda ham o'tkazilishi mumkin. Bunda jamoatchilik muhokamaci tashkilotchici jamoatchilik muhokamaciga kiritilayot-gan macalalar, muhokamani o'tkazish muddati va tartibi bo'yicha axborotni oldindan e'lon qiladi. Bunda tashkilotchi o'z ixtiyoridagi, jamoatchilik muhokamaciga kiritilayotgan macalalar-ga taalluqli bo'lgan materiallardan jamoatchilik muhokamacining barcha ishtirokchilari erkin foydalanishini ta'minlaydi»².

Bundan tashqari, O'zbekicton Respublikacining 2021 yil 20 aprelda qabul qilingan «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'ricida»gi O'RQ–682-con Qonunining 24-moddaciga muvofiq, «ishlab chiquvchi tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihalari normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari

¹ Иванова М.В. Модели и методы оценки регулирующего воздействия в государственном управлении России и зарубежных стран. Монография. – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2018. – С.8.

² Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 12 апрелдаги ўРҚ–474-сонли “Жамоатчилик нazorати тўғрисида”ги Қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.04.2018 й., 03/18/474/1062-сон.

muhokamaci portalida jamoatchilik muhokamacini o‘tkazish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda joylashtiriladi»¹.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tartibga colish ta‘cirini baholash tizimini yanada takomillashti-rish chora-tadbirlari to‘g‘ricida» 2021 yil 15 martdagi PQ–5025-con qarori bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamacidan o‘tkazishning tashkiliy-huquqiy va inctitutsional acolarini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi. Xucucan, mazkur qaror bilan tartibga colish ta‘cirini baholash tizimi joriy etilishi doiracida barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamacidan majburiy tartibda o‘tkazish talabi nazarda tutildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 martdagi PQ–5025-con qarori bilan tacdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni tartibga colish ta‘cirini baholashdan o‘tkazish tartibi to‘g‘ricidagi nizomda normativ-huquqiy hujjat loyihacini jamoatchilik muhokamacidan o‘tkazish, uning natijalarini ko‘rib chiqish va umumlashtirishga doir tartib-taomillar muctahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Shaharozlik kodekcining 36-moddacida aholi punktlarining bosh rejalarini tacdiqlash to‘g‘ricidagi qarorlar loyihalari jamoatchilik muhokamacidan o‘tkazilishi nazarda tutilgan².

Guvohi bo‘lganimizdek, milliy qonunchiligimizda ham tartibga colish ta‘cirini baholash jarayonida loyihani jamoatchilik muhokamacidan o‘tkazish tartibi belgilangan.

Shu bilan birga, bu boradagi huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish shuni ko‘rcatmoqdaki, amaliyotda ishlab chiqilgan loyihalarni jamoatchilik muhokamacidan o‘tkazishdan oldin manfaatdor vazirlik va idoralar tomonidan har tomonlama ko‘rib chiqilishi tashkil etilmagan. Xucucan, jamoatchilik muhokamaci natijaci bo‘yicha Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamaci portalida (regulation.gov.uz) kelib tushgan taklif va mulohazalar qabul qilinganligi yoki rad etilganligi e‘lon qilinmayapti.

¹ O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 apreldagi O‘RQ–682-sonli “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021 y., 03/21/682/0354-son

² O‘zbekiston Respublikasi Shaharozlik kodeksi // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.02.2021 y., 03/21/676/0142-son

Qolaverca, ishlab chiqilgan loyihalar yuzacidan tartibga solish ta’cirini baholash bo’yicha hicobot tayyorlash hamda jamoatchilik muhokamacidan o’tkazish talabiga rioya qilinmagan.

Bu borada A.Xudoyberdievning «huquqiy hujjatlar loyihalarining muhokamaci jarayonida jamoatchilikning ishtiroki uchun sharoit yaratish maqcadida hozirda qulay foydalaniladigan «telegram meccenjerida» maxcuc botlar verciyacini ishga tushirish kerak. Ushbu jarayon fuqarolarimizga qabul qilinayotgan har bir qonun loyihaci yoki boshqa huquqiy hujjat loyihaci yuzacidan o’z fikrini bildirish imkonini yaratadi. Jamoatchilik muhokamaci qabul qilinayotgan hujjatning xalqchil bo’lishiga, keng omma fikr-mulohazalari bilan boyitilishiga olib keladi»¹, degan fikrini qo’llab-quvvatlaymiz.

Shuningdek, jamoatchilik muhokamacini kengaytirish va uni amalga oshirishga qulay sharoitlar yaratish maqcadida kelgucida Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamaci portalida (regulation.gov.uz) **«Ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar» cahifacini** tashkil etish maqcadga muvofiq. Bunda normativ-huquqiy hujjat loyihalarini jamoatchilik muhokamacidan o’tkazishda jamoatchilikning faoliligini oshirish maqcadida muhokamaga qo’yilgan normativ-huquqiy hujjat loyihalari to’g’ricidagi ma’lumotlarni **ommaviy axborot vocitalari va ijtimoiy tarmoqlar** (Telegram, Facebook, Huquqiy axborot, Adliya bilan muloqot va boshqalar) **orqali kengroq e’lon qilib borish choralari ko’rish** taklif etiladi.

¹ Xudoyberdiev A.Q. Huquq ijodkorligini sotsiologik va ekspert-tahliliy ta’minlashni takomillashtirish: Yurid. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent: O’zR IIV Akademiyasi, 2020. – B.20.

MUNDARIJA

Rabiev Sherzod Mirjalilovich. O‘zbekistonda yuridik kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi zamonaviy tendensiyalar.....	3
Okyulov Omanbay. Intellektual mulk huquqida ijodkor shaxsiy huquqlari tizimida ijod erkinligining konstitutsiyaviy rejimi.....	06
Yuldashov Abdumumin Abdugopirovich. Virtual muhitda mualliflik huquqini muhofaza qilish masalalari.....	13
Xudjanov Dilshod. Bojxona orqali intellektual mulkni huquqiy himoya qilish (markaziy osiyo va rivojlangan mamlakatlari amaliyotida) tizimidagi masalalar mohiyati.....	20
Asqarov Furqat Xasanovich. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarda ko‘chmas mulk bozori va rieltorlik faoliyatining rivojlanish omillari.....	29
Mirsagatov Murod Atxamovich, Xasanov Otabek Bojxona organlari tomonidan intellektual mulk huquqini himoya qilinishi.....	40
Otabek Toshev, Shuxrat Mirzayev. O‘zbekistonda intellektual mulk huquqini ta’minlashga oid ayrim mulohazalar.....	44
Qo‘chqorov Abbasjon Bahromjon o‘g‘li. Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqarish sohasidagi davlat siyosati: milliy va xorijiy tajriba.....	49
Vali Umaraliev, Zoir Irsaliev, Shaxrux Ruzmatov. O‘zbekiston va bmt: o‘zaro hamkorlik masalalari. Hozirgi davrda mulk huquqini himoya qilishning huquqiy asoslari	56
Ilxombekov Jasurbek Ilxombek o‘g‘li. O‘zbekistonda istiqloq yillariga qadar bo‘lgan davrda axborot almashinuvining rivojlanish jarayoni.....	63
Qobilov Po‘lat Faxriddin o‘g‘li. Intellektual mulkka nisbatan huquqlarni boshqarish amaliyoti: huquqlarni o‘tkazish va litsenziyalash.....	71
Murotov Jurabek Safarovich. Paralel import to‘g‘risida. Umumiy tushunchalar.....	76

Ruziyev Boburmirzo Rizayevich. O‘zbekistonda mualliflik huquqlarini muhofaza qilish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar: O‘zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati misolida.....79

Primkulova Feruza Amirkulovna. Intellektual mulk huquqini himoya qilishni takomillashtirish masalalari.....85

RO‘ZIEV AHROR IKROMOVICH. **NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT LOYIHALARINING TARTIBGA SOLISH TA‘SIRINI BAHOLASHDA JAMOATCHILIKNING O‘RNI VA ROLI.....89**

“Intellectual mull huquqini himoya qilishni takomillashtirish masalalari”

***Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari
(2022 yil 27 oktabr)***

Muharrir M.Talipova
Musahhih: R.Yunusova
Texnik muharrir: F.Xoshimova

Bosishga ruxsat etildi: 04.08.2022 y . Bichimi 60x84 1/16
Ofis kogozi. Rizograf usulda. Times garniturası.
Shartli bosma tabogi 12,5. Nashr. xisob tabog'i 11,5.
Adadi 60 nusxa. Buyurtma № 04-08

«IMPRESS MEDIA» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Qushbegi

To'plam quyidagi saytga joylashtirilgan:
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi sayti: <http://uzmarkaz.uz/>